

2024

**MINTAQA IQTISODIYOTIGA
INVESTITSIYALAR JALB ETISHNING OPTIMAL
TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Surxondaryo viloyati misolida)**



T.D. Maxmudov

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

MAXMUDOV TURSUNPULAT DAVRONOVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTIGA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING
OPTIMAL TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Surxondaryo viloyati misolida)**

(MONOGRAFIYA)

Termiz – 2024 yil

Ushbu monografiya universitet Kengashining 2024-yil 07- dekabrda bo'lib o'tgan 3 – sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi.

Muallif: T.D.Maxmudov

Ma'sul muharrir: Termiz davlat universiteti, "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **O.A. Abdug'aniyev**

Taqrizchilar: Termiz davlat universiteti, "Komyuter va dasturiy injiniring" kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, **M.D. Zaripova**

Termiz davlat universiteti, "Amaliy matematika" kafedrası mudiri, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, **K.A.G'ulomqodirov**

“Mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishning optimal tartibga solish mexanizmini takomillashtirish (Surxondaryo viloyati misolida)” Monografiya / T.D.Maxmudov – Termiz.: Poligraf - nashr, 2024. – 136 b.

Monografiyada keltirilgan ma'lumotlar tadqiqotchilar uchun investitsiyalar samaradorligini monitoring qilish, shahar va tumanlarning hududiy xususiyatlariga ko'ra investitsion loyihalarni joylashtirish, investitsiyalar oqimini prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni optimallashtirish, hudud va tarmoqlar kesimida samarali taqsimlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, investitsiyalar oqimiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, masalaning ilmiy-uslubiy jihatlarini boyitish va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, talabalar uchun Surxondaryo viloyatida jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish, investitsiyalardan viloyat soha va tarmoqlarida samarali foydalanish, mintaqaning investitsiya siyosatini amalga oshirish, shahar va tumanlarning investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, mintaqada kichik sanoat zonalarini tashkil qilish istiqbollari belgilash masalalarini yechishga, oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar uchun esa «Mintaqaviy iqtisodiyot», «Investitsiya va investitsion faoliyat», «Investitsiya siyosati», «Ekonometrika asoslari», «Statistika» fanlarining o'quv-uslubiy materiallarini takomillashtirishda xizmat qilishi mumkin

KIRISH

Jahonda globallashuv sharoitida mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror o'sishini ta'minlash, aholi turmush darajasini hamda ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, xususan xorijiy mablag'larni kengaytirish orqali erishishga e'tibor qaratilmoqda. «Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 2022-yilda 4 foizga o'sib 916 mlrd.AQSH dollariga yetdi yoki dunyo investitsiya oqimining 70 foizini tashkil qildi. Amalga oshirilgan yangi investitsion loyihalar 37 foizga, xalqaro moliyalashtirish bo'yicha bitimlar – 5 foizga o'sdi»¹. Ayni shu maqsadda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish, mintaqaning investitsiya salohiyati va faolligini oshirish, mintaqalararo investitsiya loyihalarni ko'paytirish, yangi korxonalarni barpo etish hisobiga hududlarning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda mintaqqa iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish, ularning mavjud ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, mintaqalarsa jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish hamda hudud va sohalar kesimida samarali taqsimlash yuzasidan qator maqsadli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mintaqqa rivojlanishiga investitsiya ta'sirini baholash, investitsiyalarni optimal tartibga solish hamda taqsimlashning muhim omillarini aniqlash, investitsiya manbalarining mintaqqa iqtisodiyoti barqarorligiga bog'liqligining hududiy jihatlarini ochib berish, hududlarning investitsiya salohiyati va faolligini iqtisodiy-statistik usullarini takomillashtirish, mintaqalarga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish hamda taqsimlashni ekonometrik baholash bo'yicha tadqiqotlar bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

¹https://unctad.org/system/files/official-document/wir2023_Key_Messages_and_Executive_Summary_ru.pdf.

O'zbekistonda mintaqalar iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, ular o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish, bunda ularning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish, jalb etilayotgan investitsiyalar ko'lamini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish, hududlararo investitsiya loyihalarini amalga oshirish, kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish orqali investitsiyalarni optimal tartibga solish va taqsimlashga hamda mintaqaviy investitsiya siyosatini samarali yuritishga e'tibor qaratilmoqda. «Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish»² vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda mintaqalarda investitsiya jalb etishni xorijiy tajribasini o'rganish, investitsiyalarning mintaq hududlariga ta'sirini baholash, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning soha va tarmoqlar rivojlanishidagi o'rnini aniqlash, mintaqalarda jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini baholash, ularni optimal tartibga solishning ekonometrik modellarini takomillashtirish hamda prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son «Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari hamda 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-son «O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida» qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi VMQ-245-son «2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2020-yil 27-maydagi VMQ-332-son

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

«Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mintaqalarda investitsiyalar ko'lamini oshirish, ulardan samarali foydalanish masalalari uzoq xorij va MDH mamlakatlarining V.I.Persuxov, G.P. Podshivalenko, O.S.Yelkina, S.M.Vdovin, Ye.V.Yeroxina³, V.Y.Vilinskaya, L.A.Kostryukova, M.A.Oganyan, E.Dj.Dolan va D.Lindseyning⁴, Y.V.Lachin⁵ tadqiqotlarida, shuningdek, mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish hamda ularni iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullar asosida baholash A.L.Berekchiyan⁶, A.T.Aliyev, N.M.Kosmachyova⁷, B.D.Arslanov, Sh.D.Arslanovlar⁸, V.V.Litvinova⁹,

³ Перцухов В.И. Инвестиционный климат территориальных образований: основные положения исследования социально-экономических и инвестиционных процессов на территориальном уровне управления // Интеллект. Инновации. Инвестиции. 2010. № 4. С. 61—65. URL: [Link](#); Подшиваленко Г.П. Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2010. № 15. С. 7—10. URL: [Link](#); Елкина О.С. Инвестиционный климат как условие развития региона // Сибирский торгово-экономический журнал. 2016. № 4. С. 33—35. URL: [Link](#); Вдовин С.М. Инвестиционная привлекательность как фактор устойчивого развития региона // Экономический анализ: теория и практика. 2014. Т. 13. Вып. 41. С. 20—27. URL: [Link](#); Ерохина Е.В. Инвестиционный имидж и инвестиционная привлекательность региона — возможности развития // Наука и современность. 2016. № 4. С. 20—33.

⁴ Вилинская В.Ю., Кострюкова Л.А. Об инвестиционном климате в России // Устойчивое развитие России: финансово-экономические аспекты: сб. науч. тр. Челябинск: ЮУрГУ, 2015. С. 16—18.; Оганян М.А. Управление инвестиционным климатом на основе определения неоднородности регионов // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки. 2009. № 4. С. 173—177. URL: [Link](#); Долан Э. ДЖ., Линдсей Д. Микроэкономика/Пер. С англ. В. Лукашевича и др., Под общ. ред Б. Лисовкина и В. Лукашевича. — СПб., 1994. стр. 13

⁵ Лачин Ю.В. Инвестиционная активность региональных органов власти как одно из направлений повышения экономического потенциала региона // Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2015 № 1 (49). С.84-87.

⁶ Бerekchiyan А.Л. Инвестиционная привлекательность Ростовской области: динамика, опыт, пути совершенствования // [Economics](#). 2018. С. 103-107. <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnaya-privlekatelnost-rostovskoy-oblasti-dinamika-opyt-puti-sovershenstvovaniya>.

⁷ Алиев А.Т., Космачёва Н.М. Методологические основы оценки инвестиционной привлекательности в системе управления экономикой региона // Проблемы экономики и юридической практики. 2018, №5. С.17-21.

⁸ Арсланов Б.Д., Арсланов Ш.Д. Особенности управления корпоративными отношениями в российских компаниях // Вестник ДГТУ. Технические науки. 2011. №2. URL:[Link](#); Траченко М.Б., Джиоев В.А. Экспресс-анализ инвестиционной привлекательности регионов // Финансы и кредит. — 2018. — Т. 24, № 9. — С. 2151 — 2165. <https://doi.org/10.24891/ fc. 24. 9.2151>.

⁹ Литвинова В.В. Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона: к вопросу о дефинициях и оценке // Финансы: теория и практика. 2014. № 1. С. 139—152.

G.A.Aleksandrov, I.V.Vyakina G.G.Skvorsova¹⁰, I.N.Vilkov¹¹, I.V.Mixalyov, T.P.Levchenko¹², L.S.Valinurova va O.B.Kazakovalar¹³, K.D.Grigoryeva, M.V.Zaxarkina, N.V.Polyanskova¹⁴, M.B.Trachenko, V.A.Djiyoyev¹⁵, O.V.Kobozev¹⁶, T.V.Kramin va V.A.Leonovlar¹⁷, S.I.Lashko, V.Y.Saprikina¹⁸ tadqiqotlarida ko‘rib o‘tilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish, ularni optimal tartibga solishning iqtisodiy-statistik hamda ekonometrik usullarda baholash B.Valiyev¹⁹, I.S.Abdullayev²⁰, K.M.Xursandov²¹, N.Rajabov²², U.Otajonov²³, SH.X.Nazarov²⁴, SH.Mustafakulovlar izlanishlarida o‘rganilgan.

¹⁰ Александров Г.А., Вякина И.В., Скворцова Г.Г. Инвестиционный климат и инвестиционные риски: методология анализа взаимосвязи и оценки // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014, №22(259). С.12-22; Александров Г.А., Скворцова Г.Г., Вякина И.В. Повышение качества методов оценки инвестиционного климата региона // Российское предпринимательство. – 2017. – Том 18. – № 22. – С. 3473-3482. doi: 10.18334/rp.18.22.38495.

¹¹ Вилков И.Н. К вопросу о рейтингах инвестиционной привлекательности регионов // Вестник Пермского университета. Сер. «Экономика» = Perm University Herald. Economy. 2016. № 1(28). С. 90–97.

¹² Михалёв И.В., Левченко Т.П. Методические аспекты оценки инвестиционной привлекательности // Интернетжурнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 8, №3 (2016).

¹³ Валинурова Л.С., Казакова О.Б. Оценка инвестиционной привлекательности регионов Приволжского федерального округа: факторы и условия привлечения инвестиций // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. 2013. № 4. С. 81—95.

¹⁴ Григорьева К.Д., Захаркина М.В., Полянская Н.В. Иностранные инвестиции как важнейший фактор при оценке инвестиционного климата в Самарской области // Региональное развитие: электронный научнопрактический журнал. 2016. № 6(18).

¹⁵ Траченко М.Б., Джioев В.А. Оценка инвестиционной привлекательности регионов: какая методика отвечает интересам инвестора? // Государственное управление. Электронный вестник Выпуск № 76. Октябрь 2019. С. 92-108. DOI: 10.24411/2070-1381-2019-10005.

¹⁶ Кобозев О.В. Экспертный и статистический методы оценки инвестиционной привлекательности региона // Российское предпринимательство. 2011. Т. 12. № 2. С. 151—155.

¹⁷ Крамин Т.В., Леонов В.А. Развитие методики управления инвестиционной привлекательностью российских регионов // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. 2012. № 1. С. 40—47.

¹⁸ Лашко С.И., Сапрыкина В.Ю. Инвестиционная привлекательность региона (на примере Краснодарского края) // Научный вестник Южного института менеджмента. 2018. №2. С. 68-73. <https://doi.org/10.31775/2305-3100-2018-2-68-73>.

¹⁹ Валиев Б.Б. Ўзбекистонда ҳудудлар иқтисодий ва иқтисодий тармоқлари ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т.: Ўз.Р.Банк молия академияси. 2021 й.

²⁰ Абдуллаев И.С. Совершенствование механизмов оптимального регулирования региональной экономической системы. Автореферат дисс. Ташкент: 2017.

²¹ Хурсандов К. М. Саноатнинг машинасозлик тармоғида инвестициялардан самарали фойдаланиш йўналишлари. Иқт.фан.фалсафа.док. авт. 2022. 61 б.

²² Н.Р.Ражабов. Ҳудуд инвестицион салоҳиятидан самарали фойдаланиш //“Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2019 йил.

²³ Отажонов У.А. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг инвестиция муҳитини баҳолаш // “UzBridge” электрон журнали. 2020, №1. 46 – 58 б.

²⁴ Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. Монография. – Ташкент: IFMR, 2014. – 212 с.

Mintaqada investitsiyalar jalb etishni optimal tartibga solishni hududiy hamda tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirish, investitsiyalarni manbalari bo'yicha optimal ko'rsatkichlarni belgilash, hududlarda investitsion faollikni klaster usulida iqtisodiy-statistik guruhlash, Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari asosida investitsiyalar hajmi hamda faolligini prognoz parametrlarini ishlab chiqishga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa, mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

I BOB. MINTAQADA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Mintaqaviy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy asoslari

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ajralmas sharti mamlakatning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy kapitalga keng ko'lamli investitsiyalar kiritishdir. Mazkur masala o'z navbatida barqaror iqtisodiy o'sish asosini va bu aholining hayot sifatini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning moddiy asosini, uning texnik bazasini rivojlantirishda investitsiyalar muhim omil hisoblanadi.

Investitsiyalar mintaqalarni rivojlantirishda bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi²⁵. Jumladan: ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish; ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish; mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni oshirish; barcha tarmoqlarning muvozanatli rivojlanishiga erishish; sanoatning xomashyo bazasini kengaytirish; ish bitlan banlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish; mintaqada infratuzilmani rivojlantirish.

Demak, investitsiyalar mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda birdek muhim bo'lib, ular ko'lamini oshirish hamda jalb etish darajasini rivojlantirish mintaqaning muhim masalasi hisoblanar ekan.

Investitsiyalar - bu foyda va ijtimoiy samara olish maqsadida iqtisodiy faoliyatga kapital qo'yishdir.

Investitsiyalar sanoat, innovatsion va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi, ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini yanada oshirishda ishtirok etadi.

Inqiroz sharoitida investitsiyalar ijtimoiy va ishlab chiqarish salohiyatini tarkibiy o'zgartirish hamda uni bozorga moslashtirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Shu o'rinda, investitsiyalar ko'lami, salohiyati hamda samaradorligini oshirishda jalb etish va taqsimlashni maqbul amalga oshirish muhim hisoblanadi.

²⁵ Лачин Ю.В. Инвестиционная активность региональных органов власти как одно из направлений повышения экономического потенциала региона // Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2015 № 1 (49). С.84-87.

Jumladan, investitsiyalarni samarali va maqbul jalb qilishni amalga oshirishda bir qator jihatlarga e'tibor qaratishimiz lozim. Ya'ni, investitsiyalarni tarmoqlar, iqtisodiy ustuvorliklar bo'yicha oqilona taqsimlash, investitsiya siklini to'g'ri boshqarish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish, shuningdek, investitsiya va innovatsion jarayonlarni o'zaro bog'lash va boshqalar shular jumlasidan. Investitsiyalarni jalb qilish va uni maqbul tartibga solish mexanizmlarini asoslash va uni takomillashtirishda birinchi navbatda investitsiyaning mazmuni hamda mohiyatini qarab o'tamiz.

Investitsiya so'zi lotincha "invest" so'zidan olingan bo'lib, "mablag'ni safarbar etish", "joylashtirish", "yo'naltirish", "ishlab chiqarish sohasiga safarbar etilgan qiymatlarni aniq muddatga va maqsadlarga band qilish" kabi ma'nolarni bildiradi. Investitsiyaga asoslangan faoliyat mavjud qonunlar, meyoriy xujjatlar, davlat dasturlari orqali muvofiqlashtiriladi. Investitsiya tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin ilingan bo'lib, investsiya kelgusida oshirilgan qiymat olishni mo'ljallab, joriy davrda iqtisodiy loyihalarni yo'lga qo'yish sifatida tushuniladi.

Shuningdek, investitsiya va investitsion faoliyat bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq qilish avvalida uning iqtisodiy mazmuniga to'xtalamiz. Jumladan, investitsiyalarning ko'plab ta'riflari mavjud. U.Sharp, B.Aleksandr, J.Beyllar keng ma'noda investitsiya qilish kelajakda ko'proq pul olish uchun bugungi kunda pul talab qilish²⁶, deb ta'riflashgan.

Shuningdek, investitsiyalar investorning maqsadi - daromadini hisobga olgan holda, resurslar xarajatlarga aylanadigan jarayon sifatida ham belgilanadi. E.J.Dolan va D.E.Lindseyning so'zlariga ko'ra, makrodarajadagi investitsiyalar iqtisodiy tizimda faoliyat ko'rsatuvchi kapital miqdorini oshirish, Ya'ni, odamlar amalga oshiradigan ishlab chiqarish resurslarini yetkazib berishni ko'paytirishdan iborat²⁷.

Shu bilan birga, investitsiyani tavsiflash va uning iqtisodiyotga ta'sirini tavsiflashda J.Keynsning izlanishlari muhim sanaladi. Jumladan, J.M.Keyns

²⁶ Шарп У., Александр Б., Бэйл Дж. Инвестиции. М.: ИНФРА-М, 1997, стр.-8

²⁷ Долан Э. Дж., Линдсей Д. Микроэкономика/Пер. С англ. В. Лукашевича и др., Под общ.ред Б. Лисовкина и В. Лукашевича. – СПб., 1994. стр. 13

fikricha, investitsiya oddiy so‘z bilan aytilganda shaxs yoki korporatsiyaning biron bir eski yoki yangi mulkni sotib olishi tushuniladi. Ba‘zan mazkur atama fond birjasida qimmatli qog‘ozlar sotib olinishi bilan chegaralanadi.

Ammo investitsiyalar to‘g‘risida fikr bildirilganda, xarid qilishda ham, shuningdek, tayyor mahsulot zaxirasi to‘planishini yoki tugallanmagan ishlab chiqarishni ham tushunish lozim²⁸.

Investitsiyaning mohiyati bo‘yicha turlicha qarashlar mavjud. Bu qarashlar investitsiyaning mohiyatini turlicha ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, investitsiya mohiyati samara yoki daromad olish uchun turli shakllarda kapital qo‘yish jarayonidir. Investitsiya, bir tomondan, jamg‘arish maqsadida to‘plangan daromad miqdorini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, investitsiya taklifini amalga oshirish natijasida kapitalning o‘sishini belgilaydi.

Shunday qilib, investitsiyaning ikki yo‘nalishdagi ta’rifi mavjud: birinchidan, iqtisodiy yoki moddiy, unga ko‘ra investitsiyalar kelajakdagi ehtiyojlarni ortib borayotgan hajmda qondirishi tushuniladi. Ikkinchisi, texnik tavsif bo‘lib, investitsiyalar xarajatlar yig‘indisi hisoblanadi. Bu ikki jihat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qonuniga muvofiq investitsiyalarning mohiyati iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlarni ifodalaydi. Investitsiyalar bo‘yicha berilgan ta’riflardan ko‘rdikki, mualliflar mazkur tushunchani turlicha talqin etishmoqda.

Lekin barcha ta’riflarda bir jihatga, ya’ni kelgusida foyda olish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Huddi shuningdek, uning turlari ham ta’riflari kabi farqlanadi. Jumladan, ularni quyidagicha tasniflaymiz (1.1.1-jadval).

²⁸ Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. С основами аграрных рынков. Курс лекций. –М.: Ассоциация авторов и издателей. ТАНДЕМ: Изд. ЭКМОС, 1998. - 448 с

Investitsiyaning mazkur tasnifiy jihatlari mamlakat va mintaq xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirilgan. Shunday bo‘lsada, ularning biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi.

1.1.1-jadval

Investitsiyalarning zamonaviy qarashlar bo‘yicha tasniflanishi va turlari²⁹

Investitsiya belgilari	Investitsiyaning turlari va tasniflanishi
Investitsiya resurslarining tabiatiga ko‘ra	real (bevosita, moddiy) investitsiyalar
	moliyaviy (portfel) investitsiyalar
	intellektual (nomoddiy aktivlarda) investitsiyalar
Investitsiyalashda ishtirok etish xususiyatiga qarab	to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar
	bilvosita investitsiyalar
	oraliq investitsiyalar
investitsiya obyektiga ko‘ra	haqiqiy investitsiya
	portfel investitsiyalari
investitsiya maydoniga ko‘ra	umumiy investitsiyalar
	sof investitsiyalar
Investitsion davrning davomiyligiga qarab	qisqa muddatli investitsiyalar
	uzoq muddatli investitsiya
Investitsion resurslarga egalik shakllariga ko‘ra	xususiy investitsiyalar
	davlat investitsiyalar
Mintaqaviy belgilarga ko‘ra	mamlakatning ichki investitsiyalari
	xalqaro investitsiyalar

Shu o‘rinda, mamlakatning har bir mintaqasi iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga optimal integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan raqobatbardoshlikning oshishi respublikada hududlar rivojlanishi uchun investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

Investitsion resurslarning barqaror manbalarini izlash, ularni asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarga aylantirishning samarali hududiy mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, investitsiyalarni real sektorga samarali joylashtirish hozirgi kunda respublikaning barcha subyektlari uchun alohida ahamiyatga ega. Mintaqaviy investitsiya jarayonlarini har tomonlama faollashtirish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday bo‘lsada, investitsiyalar bilan bog‘liq masalalar barchasi murakkab hisoblanadi. Chunki, investitsiya iqtisodiyotga kiritilganidan boshlab,

²⁹ Muallif ishlanmasi.

o'zlashtirilgunga qadar ham tavakkalchiligi yuqoriligicha saqlanadi. Lekin, investitsiyaning muhim bosqichi, uning ko'p omilli jihatlaridan biri – jalb etish masalasi hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy jihatlarini hamda uning investitsiya muhiti omilini tadqiq qilgan ishlar qatorida V.I.Persuxov, G.P.Podshivalenko, O.S.Yelkina, V.Y.Vilinskaya, L.A.Kostyukova, M.A. Oganyan, S.M.Vdovin, Ye.V.Yeroxina kabilarning izlanishlari muhim o'rin tutadi³⁰. Jumladan, amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda mintaqalarda investitsiyalarni jalb etish darajasi bir qator omil va manbalarga bog'liq hisoblanadi. Jumladan,

- mintaqaviy menejmentning rivojlanish darajasi o'rtasidagi farqlanish;
- resurs-xomashyo bazasi joylashuvining farqlanishi;
- infratuzilmaning rivojlanish darajasining farqlanishi;
- investitsiya siyosatining ishlab chiqilganligi va faollik darajasi;
- axborotlarga kirish imkoniyati va ishonchligi³¹.

Shunday bo'lsada, investitsiyani jalb etish mexanizmlari qatorida samarali tadbirlardan biri qo'shma korxonalar tashkil qilish hisoblanadi. Mazkur yondashuv mintaqalarning raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir qiladi³². Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning samarali mexanizmi sifatida qo'shma korxonalarni barpo etish, birgalikda tadbirkorlik qobiliyatini

³⁰ Перцухов В.И. Инвестиционный климат территориальных образований: основные положения исследования социально-экономических и инвестиционных процессов на территориальном уровне управления // Интеллект. Инновации. Инвестиции. 2010. № 4. С. 61—65. URL: [Link](#); Подшиваленко Г.П. Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2010. № 15. С. 7—10. URL: [Link](#); Елкина О.С. Инвестиционный климат как условие развития региона // Сибирский торгово-экономический журнал. 2016. № 4. С. 33—35. URL: [Link](#); Вилинская В.Ю., Кострюкова Л.А. Об инвестиционном климате в России // Устойчивое развитие России: финансово-экономические аспекты: сб. науч. тр. Челябинск: ЮУрГУ, 2015. С. 16—18.; Оганян М.А. Управление инвестиционным климатом на основе определения неоднородности регионов // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки. 2009. № 4. С. 173—177. URL: [Link](#); Вдовин С.М. Инвестиционная привлекательность как фактор устойчивого развития региона // Экономический анализ: теория и практика. 2014. Т. 13. Вып. 41. С. 20—27. URL: [Link](#); Ерохина Е.В. Инвестиционный имидж и инвестиционная привлекательность региона — возможности развития // Наука и современность. 2016. № 4. С. 20—33.

³¹ Костин И.В. Привлечение инвестиций в основной капитал: региональная практика // Финансовый журнал, 2011, с. 161-170.

³² Особенности привлечения инвестиций органами местного самоуправления в Украине на примере города Мариуполя // Теоретичні і практичні аспекти економіки та інтелектуальної власності 2015 Випуск 2(12), Том 1. С.153-161.

amalga oshirish lozim³³. Fikrimizcha, joriy vaqtga kelib, xorijiy mamlakatlarda qo'shma korxonalar barpo etish asosida investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini oshirish, mexanizmlarini takomillashtirish amaliyoti keng tarqalgan. Jumladan, buning natijasida, bir qator ijobiy natijalarga erishiladi. Ya'ni, qo'shma korxonalarda mahalliy tadbirkor yoki davlatning investitsiya kiritishi hisobiga xorijiy investorning riski pasayadi, infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratiladi yoki qulay infratuzilma mavjudligiga e'tibor qaratiladi, eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Jumladan, oxirgi yillarda mintaqaning investitsiya siyosati faollashdi. Bu esa mintaqaning kapital jalb etish raqobatdoshligini ortishiga olib keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida katta resurslar ko'lamini hamda investitsion jrayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishni talab qiladi³⁴.

Ya'ni, mintaqaning investitsiya siyosati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni rag'batlantirish va tartibga solish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisidir. Mintaqaning investitsiya siyosatini asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatamiz: investorlargsha mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ko'mak berish; investitsiya bozorit infratuzilmasini rivojlantirish; investitsion jozibadorlikni yaratish; qulay investitsiya muhitini yaratish. Mintaqaviy investitsiya siyosatining asosini ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi kabilarni o'z ichiga olgan holda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir³⁵.

Mintaqalar uchun investitsiya siyosatining asosiy muammolaridan biri moliyalashtirish manbalarini izlashdir. Ayni paytda mintaqaviy loyihalarga sarmoya jalb etishning ko'plab ko'rinishlari mavjud. Hududning investitsion salohiyati uning jozibadorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

³³ Гимадиева Л.Ш. Динамика и перспективы использования прямых иностранных инвестиций в экономике региона (на примере Республики Татарстан) // Научный журнал КубГАУ, №115(01), 2016 года.

³⁴ Морозова Т. Г., Александрова А. В. Механизмы реализации инвестиционно-инновационной стратегии в стабильно развивающихся регионах РФ // Региональная экономика. — 2010. — № 18 (153).

³⁵ Лачин Ю.В. Инвестиционная активность региональных органов власти как одно из направлений повышения экономического потенциала региона // Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2015 № 1 (49). С.84-87.

Shu bilan birga, aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, yashashi uchun shart-sharoit yaratish uchun salmoqli investitsiyalar zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qarorida tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiyani o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan³⁶. Shuni alohida ta'kidlaymizki, investitsiya biln bog'liq jarayonlarda, uning ko'lami va sifatini oshirishda, maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda jamg'armalar ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jumladan, jamg'arma va investitsiyalarning nomutanosib taqsimlanishi mintaqaviy rivojlanishning jiddiy nomutanosibligiga olib keladigan asosiy omillardan biridir. Shu bois, Y.Shumpeter tadqiqotlarida iqtisodiyotdagi investitsiyalarning xilma-xilligi texnologik innovatsiyalar ta'siridan kelib chiqadi, deb hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar esa mazkur masala moliya bozori bilan bog'lanadi, deb hisoblaydi. Ya'ni, Mak Kinnon va Shou rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarning xilma-xilligining hamda jalb etishning tartibga solishda moliyaviy bozor rivojlanishiga bog'liqligini asoslab berganlar³⁷. Shu sababli, moliyaviy rivojlanish orqali mintaqaviy investitsiyalar taqsimotining nomutanosibligini hal qilish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muvozanatli mintaqaviy o'sishga erishish va tengsizlikni kamaytirish uchun muhim strategiyalardan biridir.

Shu bilan birga, mintaqaviy rivojlanish uchun investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirmoqda. Investitsion resurslarning barqaror manbalarini izlash, ularni asosiy kapitalga investitsiyalarga aylantirishning samarali hududiy mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, investitsiyalarni real sektorga samarali joylashtirish muhim. Ya'ni, hozirgi bosqichda mamlakatimizning barcha subyektlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy investitsiya jarayonlarini har

³⁶ <https://lex.uz/uz/docs/6329448#6330381>.

³⁷ Minghua Zhan, Shuai Li, Zhouheng Wu. Can digital finance development improve balanced regional investment allocations in developing countries? — The evidence from China. *Emerging Markets Review*, Volume 56, 2023, 101035.

tomonlama faollashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirda kunda mamlakatimiz mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish investitsiyalarni hududiy taqsimlash parametrlarida yuqori darajadagi noaniqlik sharoitida amalga oshiriladi. Bunda, investitsiya jarayonlarini sezilarli darajada markazsizlashtirish, investitsiya qarorlarini qabul qiluvchi subyektlarning tarkibi va rollarini tubdan o'zgartirish kerak. Xususiy investorlarni mintaqaviy rivojlanishini investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash davlat boshqaruvi e'tiborini markazlashtirilgan manbalardan to'g'ridan-to'g'ri manbalarni mintaqalararo optimal taqsimlashni asoslashga o'zgartirish lozim.

Fikrimizcha, turli mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, investitsiya jarayonlarini farqlash xususiyatlari haqida obyektiv tasavvurga ega bo'lish, uni belgilovchi sabablarni aniqlash, shuningdek, mumkin bo'lgan nazorat parametrlarining tarkibini aniqlash va investitsiya jarayonlariga davlat ta'siri mexanizmlarini asoslash bir qator talablarga javob berishi kerak. Jumladan:

- maqsadli xususiyatga ega bo'lish, ya'ni, birinchi navbatda, mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan boshqarishni takomillashtirish;
- mintaqaviy investitsiya jarayonlarini o'rganishning murakkabligini ta'minlash. Bu ko'plab turli jihatlarni, shu jumladan ularning hozirgi xususiyatlarini belgilaydigan va kelajakda rivojlanishini aniqlashi mumkin bo'lgan jihatlarni hisobga olishi lozim. Ya'ni bu holat tahlil qilish va prognozlash imkoniyatini beradi. Shu bois, hududlarda investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishning maqbul usullarini tanlash;
- mintaqaviy investitsiya jarayonlari bo'yicha tadqiqotlarning tizimli xususiyatini ta'minlash. Ya'ni o'rganilayotgan hodisalarning turli tomonlarini va turli darajalarini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning aniq, iyerarxik tuzilgan tizimiga tayanish. Shu bilan birga mintaqalararo o'rganish, investitsiyalarni

nafaqat sifat, balki oqilona miqdoriy mezonlardan foydalangan holda taqqoslash zarur.

Shunday qilib, hududiy rivojlanishning investitsiyaviy tarkibiy qismining davlat boshqaruvini takomillashtirish, fikrimizcha, maqsadli yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadigan bozor iqtisodiyotida davlatning faol roli haqidagi zamonaviy g‘oyalarga mos keladigan metodologiyani yaratishni nazarda tutadi.

Mintaqaviy investitsiya jarayonlarini o‘rganishning kompleks metodologiyasi doirasida xususiy investorlarning bozor sharoitidagi xatti-harakatlari modellashtirilishi lozim. Shu bilan birga, mamlakatning har bir mintaqasi ichki resurslarni jalb qilish va tashqi, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun boshqa mintaqalar bilan raqobatlashadigan xususiyatlariga qaraladi. Muayyan mintaqaning raqobatbardosh pozitsiyalaridagi eng muhim raqobat ustunliklari yoki aksincha, zaif tomonlari (unga investitsiya qilish istiqbollarini baholash nuqtai nazaridan) ushbu mintaqani investitsiyalashdagi muhim omili hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlaymizki, investitsiya muhiti kapital jalb qilishning muhim omili bo‘lib, u mintaqaning nazariy qoidalari bilan belgilanadigan konseptual apparat va tarkibiy munosabatlardan foydalanishiga asoslanadi³⁸. Ushbu qoidalarga muvofiq, mintaqadagi investitsiya faoliyatining eng muhim jihatlariga, investitsiya sohasining holatiga xos bo‘lgan eng umumiy, ya’ni o‘rganilayotgan hodisani maksimal darajada yoritishni ta’minlaydi.


Mintaqadagi qulay investitsion muhit darajasi cheksiz ko‘p omillarning birgalikdagi ta’siri bilan belgilanadi³⁹. Biroq, tahlil qilish maqsadida, ayniqsa, hududlararo investitsiyalarni taqqoslash uchun, har bir mintaqaning investitsiya muhitiga alohida e’tibor qilamiz. Fikrimizcha, ma’lum miqdoriy ko‘rsatkichlarni integral ko‘rsatkichlar bilan tavsiflashni amalga oshiramiz lozim. Chunki, mintaqaning investitsiya muhitini miqdoriy jihatdan bitta o‘lchov bilan tavsiflab bo‘lmaydi. Bunday urinishlar ushbu murakkab hodisaning biron bir tomonini

³⁸ Елкина О.С. Инвестиционный климат как условие развития региона // Сибирский торговоэкономический журнал. 2016. № 4. С. 33—35.

³⁹ Вологдин Е.В. Оценка инвестиционной привлекательности региона: теория и практика (на примере Алтайского края): монография. Барнаул: АлтГУ, 2017.

noto'g'ri, qonunga xilof ravishda e'tiborsiz qoldirishga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, bizning fikrimizcha, mintaqalar investitsiya muhitini hamda investitsiyalarni jalb etish mexanizmini baholash o'ziga xos murakkab tizim hisoblanadi (1.1.1-rasm).

1.1.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, mintaqaning investitsiya muhiti miqdoriy jihatdan mintaqaning investitsion jozibadorligi va uning tarkibiy qismlarini (mintaqaning investitsiya salohiyati va investitsiya riski) o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanmoqda.



1.1.1-rasm. Mintaqaning investitsiya muhitini o'lchash tizimi⁴⁰

Mintaqa investitsiya faoliyati uning asosiy kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish intensivligi hisobiga rivojlanadi. Mintaqaning investitsion jozibadorligi esa, mintaqadagi investitsiya faolligini belgilovchi turli obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy,

⁴⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tabiiy-geografik va boshqa mintaqaviy xususiyatlar, vositalar, imkoniyatlar va cheklovlarning kombinatsiyasidir⁴¹.

Mintaqaning investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish hamda ko‘lamini oshirishda investitsiya salohiyatini oshirish muhim sanaladi. Investitsiya salohiyati mintaqaning mavjud va zaxiradagi resurslarni o‘z ichiga olsada, ularning faol harakati hamda intensivligiga alohida e‘tibor qaratish lozim⁴². Mintaqaning investitsiya salohiyati - bu hududning asosiy kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish uchun yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan, mintaqada investitsiya faolligini oshirishga yordam beradigan turli obyektiv iqtisodiy va tabiiy-geografik xususiyatlar, vositalar va imkoniyatlarning yig‘indisidir.

Mintaqaviy investitsiya salohiyati - mintaqaning iqtisodiy siyosati bilan belgilanadigan investitsiya faoliyatini ta‘minlash uchun o‘z va jalb qilingan moliyaviy resurslar imkoniyati hisoblanadi.

Mintaqaning investitsiya salohiyatining integral darajasini aniqlash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tarkibi murakkab hisoblanadi. Jumladan, hududning mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, institutsional, infratuzilma, iste‘molchi, innovatsion, tabiiy resurs majmualari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Mintaqaviy investitsiya risklari - bu mintaqaviy xususiyatga ega bo‘lgan (mintaqaviy kelib chiqishi) investitsiya faoliyatiga taalluqli bo‘lmagan omillar ta‘sirida yuzaga keladigan o‘ziga xos bo‘lmagan risklar. Jumladan, V.V.Litvinova izlanishlarida mintaqaning investitsiya riski va investitsiya salohiyatini baholashga e‘tibor qaratilgan. Muallif fikricha, mazkur tushunchalar zahirida mintaqaning investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati yotadi va ular investitsiyalashning integral jihatlarini ifodalaydi⁴³. Shuningdek, B.D.Arslanov, Sh.D.Arslanovlarning izlanishlarida ham investitsiyalarni jalb etish mexanizmi asosini investitsiya

⁴¹ Литвинова В.В. Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона: к вопросу о дефинициях и оценке // Финансы: теория и практика. 2014. № 1. С. 139—152.

⁴² Особенности привлечения инвестиций органами местного самоуправления в Украине на примере города Мариуполя // Теоретичні і практичні аспекти економіки та інтелектуальної власності 2015 Випуск 2(12), Том 1. С.153-161.

⁴³ Литвинова В.В. Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона: к вопросу о дефинициях и оценке // Финансы: теория и практика. 2014. № 1. С. 139—152.

salohiyati hamda investitsion risk tashkil etadi deb hisoblashadi. Mazkur tadqiqotlarda ham mintaqada investitsiyalarni jalb qilishning investitsiya riski hamda salohiyati tadqiq etilgan. Mualliflar jalb etish omiliga risk va salohiyatni ko'rsatishadi⁴⁴. Ushbu risklar ma'lum bir mintaqadagi barcha investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijalariga bir xil darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi, undagi investitsiya faolligini pasaytiradi. Bunday xatarlarga, birinchi navbatda, mintaqadagi ijtimoiy muammolarning jiddiyligi (xususan, ishsizlik darajasi, aholi daromadlarining tabaqalanish darajasi), ekologik vaziyatning keskinligi va boshqalar kiradi. Investitsion risklar o'z navbatida investitsiya muhitini ham belgilaydi. Jumladan, mintaqada investitsiya muhiti muhim bo'lib, u asosida hududlarning investitsiya jalb qilish mexanizmlari hamda ularning maqbul taqsimoti amalga oshadi.

Mintaqa investitsiya muhitining barcha asosiy tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar quyidagicha: mintaqaning investitsion salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa va mintaqada investitsiya faoliyatining notijorat xavfi shunchalik past bo'ladi. Uning investitsion jozibadorligi qanchalik yuqori bo'lsa natijada uning investitsion faolligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, davlat statistik hisobotida "investitsion jozibadorlik", "investitsion faollik", "investitsiya salohiyati" va "investitsion risk" ko'rsatkichlari mavjud emas. Ularning son qiymati mintaqaviy investitsiya jarayonlarining umumlashtiruvchi xususiyatlarini miqdoriy ifodasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Biroq, bunday umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar statistik hisobotlardan tuziladi. Ular o'z navbatida umumlashtiruvchi mintaqaviy xususiyatlarning turli o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, hududlarning investitsiya muhitining ushbu tarkibiy qismlarini - investitsiya jozibadorligi, investitsiya faolligi, investitsiya salohiyati va investitsion riskni har tomonlama miqdoriy baholashda turli xil investitsiyalarni aks ettiruvchi xususiy ko'rsatkichlardan tuzilgan umumiy, integral ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi.

⁴⁴ Арсланов Б.Д., Арсланов Ш.Д. Особенности управления корпоративными отношениями в российских компаниях // Вестник ДГТУ. Технические науки. 2011. №2. URL:[Link](#)..

Mintaqalararo investitsiyalarni taqqoslashni to'g'ri amalga oshirish uchun hududlarning investitsiya muhitining barcha tarkibiy qismlari miqdoriy baholari nisbiy ko'rsatkichlar ko'rinishida taqdim etiladi. Taklif etilayotgan hisob-kitoblar tizimi to'rtta integral ko'rsatkichlardan Ya'ni, investitsiya jozibadorligi, investitsiya faolligi, investitsiya salohiyati va investitsion risk integral ko'rinishiga ega bo'ladi. Ularning integral mintaqaviy qiymatlari 1 (bir) yoki 100 foiz sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, mintaqalarda investitsiyalarni optimal joylashtirish miqdoriy jihatlar bilan birga samaradorlik ko'rsatkichlarini ham o'rganishni talab qiladi. Bunda, samaradorlik nisbiy kattalik ekanligiga alohida e'tibor qaratamiz. Ya'ni, mintaqalarda investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari barqaror o'ziga xoslikka ega hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarimizga bog'lab samaradorlik jihatlarini aniqlaydigan bo'lsak, natijaviy kattaliklarni investitsiya sarfiga nisbatini o'rganamiz. Jumladan, mintaqadagi investitsiya faolligining integral darajasini mintaqaning investitsion jozibadorligi integral darajasiga yoki mintaqaning investitsion salohiyatining integral darajasiga nisbati bilan baholaymiz.

Mintaqadagi investitsiya muhitining qulaylik darajasini talqin qilishda uning ikkita asosiy tarkibiy qismiga e'tibor qaratamiz. Ya'ni, ular o'z ichiga mintaqaning investitsion jozibadorligi va investitsiya faolligi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, mintaqalarda investitsiya jarayonlarining hududiy tabaqalanish xususiyatlarini o'rganish oqibatlarni o'rniga sabablarni tadqiq qilish imkonini beradi. Bu esa, hududlarda ushbu parametrlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishni va yakuniy holatda har bir mintaqaning o'ziga xosligi asosida investitsiyalarni optimal taqsimlash imkonini yaratadi.

1.2. Mintaqalarda investitsiyalar jalb etish mexanizmining xorij tajribasi

Investitsiyalar jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi, ular yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlaydi. Shuningdek, ichki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda, resurslarning faoliyat yuritish mexanizmlarida ijobiy

o'zgarishlar manbai sifatida investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Investitsiyalarni jalb etish darajasi, uni mamlakat va mintaqa miqyosida samarali tarzda amalga oshirish investitsiya siyosatiga bog'liq.

Samarali investitsiya siyosati davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, iqtisodiyot tarkibida sifat o'zgarishlarini amalga oshirish va mamlakat hamda mintaqa barqarorligining asosini tashkil qiladi. Demak, investitsiya jalb etish ko'lamini oshirishda mintaqada mavjud manbalarga hamda o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Mintaqalarda investitsiyalarning barcha shakllari va manbalarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish zarurligini taqozo etmoqda. Mazkur holat ko'plab mamlakatlar tajribasidan o'tgan. Shunga qaramay, eng muhim, ijtimoiy ahamiyatga ega ustuvor investitsiya loyihalarini investitsiyalashda davlatning rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan davlat darajasida ham, uning alohida tarkibiy bo'linmalari (hududlari)da ham investitsiya manbalarining maqbul tuzilishi iqtisodiy va ijtimoiy o'sish va rivojlanish sur'atlarini oshirish imkonini beradi.

Investitsiyalarning asosiy maqsadi faoliyatning barcha sohalarida, shu jumladan ijtimoiy sohalarda mavjud texnologiyalar va uskunalarni yangilashdan iborat. Davlat qulay investitsiya va innovatsion muhitni yaratish, investorlarga faqat zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosidagidek, ular kiritgan mablag'larning barqarorligi, xavfsizligi va huquqiy himoyasini kafolatlash uchun barcha zarur huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni ta'minlashi lozim. Jahon bozorlarida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi qattiq raqobat sharoitida bunday tovarlar sifati va talabi yuqoridir. Shunday ekan, global va rivojlanayotgan tendensiyalarni tushunish, bashorat qilish, ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilash, ichki va tashqi bozorga taklif etilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishni talab etadi. Shu bois mamlakatni innovatsion rivojlantirish va raqamli transformatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlari ham mintaqalar, ham butun mamlakatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

hisoblanadi. Rivojlanishning ushbu sohalari katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi.

Milliy iqtisodiyotning asosiy sohalari va tarmoqlariga investitsiyalarni kengaytirish hisobiga texnika va texnologiyalarni takomillashtirishga erishiladi. Investitsiyalarning ham davlat, ham mintaqaviy miqyosdagi ijobiy dinamikasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqaror rivojlantirish omili hisoblanadi. Bundan tashqari, investitsiyalardagi ijobiy tendensiya xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligi va to'lov qobiliyatining yuqoriligini ko'rsatishi mumkin.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida investitsiya manbalarining tuzilishi ularning ichki xususiyatlari va mamlakat rivojlanishining o'ziga xosligini aks ettiradi. Aksariyat mamlakatlar xususiy investitsiya xarajatlari tarkibida yuqori ulush bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsada, investitsiya resurslari tashkil etilishi va texnikasiga yordam beradigan budjet manbasiga doimo ega bo'ladi. Ammo moliyaviy tizimlarning turlaridan qat'i nazar, barcha investitsiya manbalari qarzga olingan, tashqaridan olingan, o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin. Yuqoridagi barcha manbalardan eng dolzarb va ustuvor bo'lganlari korxonalar foydasidan shakllanadigan, texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiya uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi manbalaridir. Shunday bo'lsada, investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirishda xorij tajribasiga, uning mintaqaviy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratamiz.

Mintaqaviy miqyosda Xitoy Xalq Respublikasida investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 1980-yillarda yirik imtiyozli tuzilmalar – qirg'oqbo'yi hududlarida yaratilgan investitsiya muhitiga ega maxsus iqtisodiy zonalar ishga tushirilgandan boshlangan. Shunday bo'lsada, 1990-yillarning boshiga kelib, Xitoy investitsiya siyosati hududiydan hududiy-tarmoqli yo'nalishga o'zgara boshladi"⁴⁵. Sharqda ishlab chiqarish kuchlarini taqsimlashni institutsional qo'llab-quvvatlash va mamlakatning shimoli-g'arbiy qismida rag'batlantiruvchi investitsiya siyosati ijobiy

⁴⁵ Кокушкина И.В. Региональные аспекты формирования инвестиционного климата и инвестиционной политики Китая // Проблемы современной экономики. 2014. № 2 (50). С. 305–308.

natijalarni keltirib, Xitoy 2010-yilga kelib dunyoning eng yaxshi 5 iqtisodiyoti qatoriga kiritdi.

Xitoy investitsiya jalb etishning institutsional asoslari texnologiyadan kelib chiqqan moliyaviy rivojlanish, raqamli moliya kapitalining mintaqaviy taqsimlanishiga qanday ta'sir qilishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Hukumat investitsiyalarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi va banklardan mablag' olishda ustunlikka ega. Shu bilan birga, milliy banklar va mahalliy tijorat banklari uchun mablag'lar manbalarida sezilarli xilma-xillik mavjud.

Xitoyning investitsiyalarni jalb qilish siyosati boshqa davlatlarning investitsiya siyosatidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ancha qat'iy investitsiya rejimi bilan ajralib turadi. Ya'ni, chet el investitsiyalari cheklangan tarmoqlarda investitsiya siyosatini rivojlantirishning mintaqaviy jihati mavjud. Bunda, mamlakatning shimoli-sharqida, markaziy va g'arbiy Xitoy mintaqalariga ruxsat beriladi. Shuning uchun Xitoyning investitsiya jalb qilish siyosatidagi muhim masala xorijiy investitsiyalar mintaqaviy rivojlanish strategiyasiga qo'shadigan hissasiga e'tibor berilada⁴⁶.

Xitoy doimiy ravishda investitsiya faoliyatini tartibga solish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirmoqda. Shunday qilib, 2019-yilda "Xitoy Xalq Respublikasining xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonuni" qabul qilindi. Yangi qonun xorijiy sarmoyaviy siyosatning shaffofligini oshirish hamda mahalliy va xorijiy korxonalarning yagona qoidalar to'plamiga bo'ysunishini hamda teng sharoitlarda raqobatlashishini ta'minlashga qaratilgan. Qonun uchta asosiy bandni o'z ichiga oladi: dastlabki milliy rejim; xorijiy investorlarning intellektual mulk huquqlarini himoya qilish. Mazkur hujjatlar bilan oldingi qonunlarga nisbatan investorlarni himoya qilish yaxshilandi. Mazkur qonunda "xorijiy investorlarga qishloq xo'jaligi texnologiyalari, transport, energetika tarmoqlarini rivojlantirish, yangi yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarish loyihalariga investitsiya kiritishga

⁴⁶ Shafigullin L.N., Golyashev V.A., Yurkov D.V. Opyt investicionnoj politiki Kitaja i vozmozhnost' ego primeneniya v Rossii [The Experience of China's Investment Policy and the Possibility of its Application in Russia]. Issues of Economics and Law. 2014;12:48–56 (In Russ.).

ruxsat etiladi. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi hali ham milliy iqtisodiyotning strategik va xomashyo bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlari bilan cheklangan⁴⁷.

Shuningdek, Janubiy Koreyada mintaqaviy investitsiyalarni jalb etish siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasi Xitoy amaliyotiga o'xshab, maxsus iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Janubiy Koreyaning mintaqaviy investitsiya siyosati respublikada mavjud bo'lgan barcha davrlarda innovatsion xususiyatga ega bo'lgan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni olib kirishga qodir bo'lgan xorijiy investitsiyalarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ta'kidlash joizki, xorijiy investor mintaqaning eng yirik loyihalariga kapital qo'yganida investitsiyalardan foydalanish mintaqasiga kapital kiritganda maqomi belgilanadi. Mahalliy darajadagi iqtisodiy zonalar esa sanoat majmualari sifatida rivojlantiriladi⁴⁸.

Janubiy Koreya Respublikasi mintaqalarida investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish sohasida investitsiya siyosati faol amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Kichik va o'rta korxonalar hamda yirik xorijiy investitsiya kompaniyalari uchun mo'ljallangan ikki turdagi xorijiy investitsion zonalar (MIZ) mavjud. Ushbu zonalar yer sotib olish, ijara uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlarini taklif qiladi. Shuningdek, u xizmatlar, jumladan turizm, logistika va boshqa biznes xizmatlariga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, mazkur iqtisodiy zonalarda xorijiy investitsiyalar dastlabki uch yil davomida bojxona to'lovlari, qo'shilgan qiymat solig'i va import qilinadigan kapital tovarlarga maxsus aksiz solig'idan ozod qilinadi⁴⁹.

Yaponiya investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati xususiylar sektorining davlat bilan faol o'zaro ta'siridir. Mamlakatning yangi makroiqtisodiy siyosatiga

⁴⁷ Platonova I.N. Xitoy iqtisodiyotida xorijiy kapitalning roli / IN Platonova // Iqtisodiyot ufqlari. - 2018. No 6. - B.88-94; Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.

⁴⁸ Belikova K.M. Investicionnaja politika i strategii privlechenija investicij v Juzhnoj Koree: retrospektiva i sovremennoe sostojanie [Investment Policy and Investment Attraction Strategies in South Korea: A Retrospective and the Current State]. Problems of Economics and Legal Practice. 2018;2:131–136 (In Russ.)

⁴⁹ Belikova K.M. Investicionnaja politika i strategii privlechenija investicij v Juzhnoj Koree: retrospektiva i sovremennoe sostojanie [Investment Policy and Investment Attraction Strategies in South Korea: A Retrospective and the Current State]. Problems of Economics and Legal Practice. 2018;2:131–136 (In Russ.)

muvofig – “Abenomics” – DXSH investitsion infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun strategik vosita sifatida o‘rin olgan. Biznes va davlat hamkorligining eng keng tarqalgan shakli xususiy moliyaviy tashabbus bo‘lib, uning doirasida Yaponiyada umumiy qiymati 23,5 milliard dollarlik 400 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan⁵⁰.

DXShning infratuzilma komponentiga e‘tibor qaratilishi yaqin kelajakda Yaponiya iqtisodiy o‘rinishining asosiy dvigatellaridan biri bo‘lib, keyinchalik ilg‘or yapon texnologiyalarini tashqi bozorlarga olib chiqish, milliy siyosatning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan⁵¹. Mintaqaviy maqsadlarga erishish uchun ixtisoslashgan muassasa - Xususiy moliyaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Yaponiya korporatsiyasi ham yo‘lga qo‘yilgan⁵².

Yaponiya hududlarini sarmoyaviy rivojlantirishga kelsak, 2016-yildan boshlab mamlakat iqtisodiyotini izchil yaxshilash va nominal yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish maqsadida hududlarni jonlantirish siyosati amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Amami va Ogasavara kabi orollarning iqtisodiyotini jonlantirish alohida mintaqaviy rivojlanish strategiyalariga bag‘ishlangan. Mintaqa investitsiya siyosati doirasida innovatsion korxonalar va rivojlanayotgan kompaniyalarni venchur kreditlash va ustuvor viloyat loyihalarini subsidiyalash ko‘rinishida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda⁵³. Yaponiya Tashqi Savdo Tashkiloti (JETRO) o‘z veb-saytida xorijiy investorlar uchun milliy va mahalliy investitsiya imtiyozlarining ingliz tilidagi ro‘yxatini yuritadi. Yaponiya hukumati “uch karra falokat” natijasida vayron bo‘lgan Toxoku (shimoli-sharqiy) mintaqasiga sarmoya kiritishni rag‘batlantirishga

⁵⁰ Кузнецов А.В. Особенности инвестиционной стратегии Японии и перспективы сотрудничества с Россией // Финансы: теория и практика. 2017. Т. 21. № 6. С. 108–117

⁵¹ Япония: консервативный поворот / Рук. проекта Э. Молодякова. М.: АИРО-XXI, 2015; Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.

⁵² Кузнецов А.В. Особенности инвестиционной стратегии Японии и перспективы сотрудничества с Россией // Финансы: теория и практика. 2017. Т. 21. № 6. С. 108–117

⁵³ Невьянцева Л.С. Вестник РУДН. Серия: Государственное и муниципальное управление. 2022. Т. 9. № 1. С. 97; Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.

intiladi. Tabiiy ofatdan jabr ko‘rgan hududlar “Maxsus” dasturiga kiritilgan. “Qayta qurish zonasi” mintaqaning iqtisodiy tiklanishida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam beriladi⁵⁴.

Shu bilan birga, AQSH sarmoyaviy amaliyotida davlat-korporativ sheriklik muhim o‘rinni egallaydi. Amerika mintaqaviy investitsiya siyosati evolyutsiyasi natijasida DXSH mexanizmiga asoslangan investitsiyalarni mahalliyashtirishning turli institutlari shakllangan. Jumladan, tarmoq klasterlari, sanoat va texnologik guruhlar, hamkorlik shartnomalari shular tarkibiga kiradi. Biroq, Yaponiyadan farqli o‘laroq, infratuzilmaga davlat investitsiyalari kerak bo‘lganda amalga oshiriladi va infratuzilmaga investitsiyalar faqat istisno hollardagina umumiy iqtisodiy strategiyaning elementlariga aylanadi⁵⁵.

AQSH investitsiya siyosatida ilmiy-texnikaviy sanoat va ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish mexanizmlariga alohida o‘rin berilgan. AQShda ilmiy-texnika sohasida qabul qilingan hukmronlik strategiyasi shtatlarning rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini alohida ta‘kidlaymiz⁵⁶.

Shuningdek, AQSH iqtisodiyoti raqobatbardoshligining yuqori darajasiga ilmiy faoliyatga investitsiyalarni rag‘batlantirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish siyosati orqali erishildi. Bunda davlat fundamental tadqiqotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarining yarmini moliyalashtirmoqda. Qolgan resurslar esa xususiy korporatsiyalar, universitetlar va xorijiy investorlar tomonidan taqdim etiladi⁵⁷. Umuman olganda, Amerikaning mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barcha bosqichlarida investitsiya siyosatini amalga oshirish amaliyoti alohida shtatlarda investitsiya sharoitlarini maksimal darajada liberallashtirish va davlatning investitsiya jarayoniga minimal aralashuvi bilan tavsiflanadi.

⁵⁴ Невьянцева Л.С. Вестник РУДН. Серия: Государственное и муниципальное управление. 2022. Т. 9. № 1. С. 97; Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.

⁵⁵ Литвиненко В.А. Направления и механизмы государственной инвестиционной политики стабилизации и экономического роста // Аудит и финансовый анализ. 2009. № 2. С. 1–10.

⁵⁶ Гэлбрейт Дж. Новое индустриальное общество. М.: ТРАНЗИТКНИГА, 2004.

⁵⁷ Зюбан Е.В. Сравнительный анализ развития политики инвестиционной привлекательности на региональном уровне в России и за рубежом // Ученые записки российской академии предпринимательства. 2014. № 38. С. 62–71.

Kanadaning investitsion siyosati o‘zining shakllanishining boshidan (1960-yillardan boshlab) hozirgi kungacha aniq taqsimlash tavsifiga ega. Kanada hukumatining asosiy maqsadi mamlakat mintaqalaridagi barcha subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va sarmoyaviy salohiyatining teng darajasiga erishishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun “tenglashtirish to‘lovlari” tizimi joriy qilingan. Maxsus rivojlanish dasturlari doirasida hukumat rivojlanmagan hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy transfertlarni yuboradi, milliy jamg‘armalarni “boy” va “kambag‘al” hududlar o‘rtasida qayta taqsimlaydi.

Shu bilan birga, “tenglashtiruvchi to‘lovlar shaklida olingan mablag‘lardan foydalanishning aniq maqsadlari ko‘rsatilmagan. Hududlar ularni o‘z xohishiga ko‘ra turli ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarga sarflash huquqiga ega⁵⁸. Hukumatlararo transfertlarning ikkinchi turi “federal va viloyat budjetlari o‘rtasidagi vertikal nomutanosiblikni tenglashtirishga qaratilgan. Markaz viloyatlarga sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy ta‘minotga sarflash uchun mo‘ljallangan “shartli” pul o‘tkazmalarini beradi⁵⁹.

Germaniya iqtisodiyotini hozirgi bosqichida, mintaqaviy jihat nuqtai nazaridan, investitsiya siyosatini amalga oshirish ko‘proq rivojlanishda orqada qolayotgan va milliy iqtisodiy makonning qutblanishining kuchayishiga olib keladigan sharqiy federal yerlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

“Ushbu hududlar (masalan, Brandenburg, Meklenburg-Vorpommern, Saksoniya, Saksoniya-Anhalt, Tyuringiya va Berlining ayrim tumanlari) investitsiya siyosati doirasida davlat moliyaviy yordamini oluvchilar hisoblanadi. Sharqiy hududlarda kapital joylashtirgan investorlar avtomatik ravishda “Investitionszulage” (“Investition premium”) dasturi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalarni oladilar, uning maqsadi Sharqiy Germaniyada investitsiya

⁵⁸ Ирхин Ю.В. Канадский опыт государственной региональной политики: сравнительный анализ // Социально-гуманитарные знания. 2008. № 6. С. 225–240.

⁵⁹ 11. Бифов А.А. Канадский федерализм: генезис и правовые особенности // Право и управление. XXI век. 2012. № 1(22). С. 126–132.

jarayonlarini rag'batlantirishdir. Qoida tariqasida, bunday subsidiyalar soliqlardan butunlay ozod qilinadi⁶⁰.

Germaniya mintaqaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda ham mahalliy, ham xorijiy investorlarga imtiyozli kreditlar taqdim etuvchi moliya-kredit institutlari muhim o'rin tutadi. Eng yirik federal moliya-kredit institutlaridan biri - Iqtisodiyotni tiklash uchun kredit instituti (KfW) - Germaniya milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida 1948 yilda tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda KfW Germaniya va Yevropa iqtisodiyotini rivojlantirish banki bo'lib, uning vazifasi iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish bo'yicha umummilliy dasturlarni uzoq muddatli kreditlash va taqdim etilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilinadi⁶¹.

Avstriyaning investitsiya siyosati Germaniyaning investitsiya siyosatiga o'xshaydi. Rivojlanmagan hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarga investitsion yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Federal yerlarni investitsion qo'llab-quvvatlash, qoida tariqasida, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish dasturlari amalga oshiriladi. Yuqori soliq yukiga qaramay, Avstriyada xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni oxirgi yillarda ortib bormoqda. Germaniyada bo'lgani kabi milliy investitsiya jarayonida ham banklarning o'rnida katta. Bundan tashqari, maxsus investitsiya fondlari Avstriyaning investitsiya siyosatida muhim o'rin tutadi. Avstriyadagi muhim investitsiya fondlari quyidagilardir: Iqtisodiy rivojlanish fondi (ERP); Iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirish jamg'armasi (BURGES) - bu tashkilot kichik va o'rta biznesga yo'naltirilgan; Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantirish jamg'armasi (ITF) va boshqalar⁶².

⁶⁰ Невьянцева Л.С. Вестник РУДН. Серия: Государственное и муниципальное управление. 2022. Т. 9. № 1. С. 98.

⁶¹ Дадахонова С.М. Хорижий мамлакатларда инвестиция фаолиятини тартибга солиш йўллари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a9.

⁶² OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf; Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.

Umuman olganda, Fransiya mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati o'sish qutblari konsepsiyasiga e'tibor qaratishdan iborat. Unga ko'ra davlatning sa'y-harakatlari mintaqaviy poytaxtlarni o'sish markazlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, investitsiya siyosatini amalga oshirish doirasida hududlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy vositalari sanoat korxonalarini shaharlardan tashqarida joylashtirishga ko'maklashishga qaratilgan subsidiyalar berish hisoblanadi. Boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, Fransiya mintaqaviy investitsiya siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida raqobatbardoshlik asosida yaratilgan klaster tuzilmalari muvaffaqiyatli hisoblanadi⁶³.

Mamlakatda investitsiya jarayonlarini boshqarishning hozirgi bosqichida Milliy investitsiya dasturi doirasida fransuz tadbirkorligining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida (nano va biotexnologiyalar) innovatsiyalar bo'yicha to'plangan tajribadan foydalanish bo'yicha vazifalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy va milliy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha soliqlarni qaytarishning yangi shartlari qabul qilingan va bir qator mahalliy soliqlar bekor qilingan.

Italiya investitsion ustuvorliklari milliy markazlarga o'tayotgan Fransiya farqli o'laroq, investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy qoloqligi bilan ajralib turadigan janubiy qismini moliyalashtirish bilan bog'liq. Italiya investitsiya siyosati sanoat sektori uchun faol moliyaviy subsidiyalarga qaratilgan⁶⁴.

Ispaniyaning mintaqaviy rivojlanishining xususiyatlari shimoliy hududlar janubiy hududlarga qaraganda yuqori rivojlanish darajasi bilan ajralib turadigan Italiyanikiga o'xshaydi. Investitsion siyosatni amalga oshirish doirasida Ispaniya Yevropa tuzilmaviy jamg'armasi va Birlashish jamg'armasining moliyaviy

⁶³ Дадахонова С.М. Хорижий мамлакатларда инвестиция фаолиятини тартибга солиш йўллари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a9.

⁶⁴ OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf; Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.

resurslaridan, shuningdek, hududiy kompensatsiya fondlaridan foydalanishda nisbatan faolroqdir. Hozirgi vaqtda Ispaniyaning investitsiya siyosati mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan. Ispaniyaning investitsiya siyosatini o'ziga xos jihati dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan ikki tomonlama soliqqa tortishdan qochish to'g'risida Bitim imzolagan⁶⁵.

Daniyaning mintaqaviy investitsion siyosati ko'proq xorijiy investitsiyalarni kengaytirishga qaratilgan. Bu iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligi bilan bog'liq. Hududlarni sarmoyaviy qo'llab-quvvatlash "Blok yordami" dasturi doirasida amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan klasterlar juda mashhur. Daniyada maxsus iqtisodiy zonalar mavjud emas. Avtonom soliq qonunchiligiga ega bo'lgan Grenlandiya va Farer orollarida alohida faoliyat rejimlariga ega shunga o'xshash hududlar faol ravishda rivojlantirilmoqda⁶⁶.

Shvetsiya faqat bir turdagi iqtisodiy zonalar - erkin savdo zonalarini yaratishni nazarda tutadi. Hozirda mamlakatda ikkita shunday zona mavjud bo'lib, ular Stokgolm porti va Arlanda aeroportidir. Shvetsiya investitsiya siyosati innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan xorijiy investorlar, kichik va o'rta firmalar uchun turli rag'batlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'ygan. Shu bilan birga, turli boshqaruv tuzilmalari orqali mintaqaviy sarmoyaviy hamkorlik mexanizmi ham ilgari surilmoqda⁶⁷.

Yuqoridagilarni, shuningdek, O'zbekistonda mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishning hozirgi holatini hisobga olib, turli mamlakatlar tajribasi asosida investitsiyalarni jalb etish mexanizmini rivojlantirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz.

⁶⁵ OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf; Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.

⁶⁶ OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf; Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.

⁶⁷ OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf; Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.

1. Kichik va o'rta biznes faoliyati bilan bog'liq holda investitsiyalarni rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish, hududlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ushbu toifadagi investorlar manfaatlari bilan muvofiqlashtirish. Shuningdek, rag'batlantirish va imtiyozli siyosat doirasida markaz va hududlarda nafaqat yetakchi, balki "o'rta sinf" investorlar tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash bo'yicha turli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur (AQSH, Germaniya, Avstriya amaliyoti).

2. Moliya va bank tizimi vositalarini hududiy investitsiya jarayonlariga jalb qilish. Rivojlangan mamlakatlarning (Germaniya va Avstriya) ijobiy tajribasiga e'tibor qaratgan holda, banklar va moliya institutlarining sarmoyaviy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish kerak. Investitsiya siyosatini amalga oshirish doirasida sa'y-harakatlarni bank sektori bilan aloqalar o'rnatish va investitsiya loyihalarini, ayniqsa, davlat ishtirokidagi yirik banklar bilan birgalikda moliyalashtirishga yo'naltirish zarur.

3. Davlat budjetidan mintaqaviy darajaga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun subsidiyalar berish tartiblarini yanada takomillashtirish. Bunda Kanadaning hukumatlararo transfertlarini gorizontal va vertikal yo'l bilan ta'minlash tajribasidan foydalanish zarur. Investitsion siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida hududlar o'z xohishiga ko'ra sarflashlari mumkin bo'lgan subsidiyalarni "tenglashtirish" mexanizmidan foydalanish lozim.

4. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi (Yaponiya tajribasi) orqali investitsiya loyihalarini (klasterlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va boshqalar) amalga oshirishni ta'minlovchi institutsional shakllarni takomillashtirish (AQSH, Fransiya tajribasi) kerak.

5. Mintaqa subyektlari o'rtasida hududlararo investitsiya aloqalarini yo'naltirish va o'rnatish (Xitoy tajribasi). Bunda investitsiya almashinuvi va muvofiqlashtirilgan investitsiya strategiyalari hududlar va mahalliy korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi o'sishi va mahsulotlar sifati ortishi ta'minlanadi.

6. Davlat investitsiya siyosatini ishlab chiqishda Fransiyada amalda bo'lgan o'sish qutblari strategiyasiga e'tibor qaratgan holda qoloq hududlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlarni rivojlantirish uchun investitsiya siyosatini faollashtirish orqali "rivojlanish qutbi"ni aniqlash va qulay shart-sharoitlar yaratish zarur (Italiya va Ispaniya tajribasi).

7. Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar (shu jumladan Yevropa mamlakatlari) tajribasiga e'tibor qaratgan holda sarmoyalarni mahalliyashtiradigan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim.

8. Tarmoqlararo va hududlararo munosabatlarni hisobga olgan holda, umuman olganda, strategik investitsiyalarni rejalashtirish tizimini takomillashtirish kerak.

Umumiy holda, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini mamlakat hududlariga qo'llash hisobiga mintaqalarning investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari bo'yicha mustaqillik berish, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning izchilligini oshirish, optimallashtirish zarur. Natijada, mintaqalarga jalb etilayotgan investitsiyalar ko'lami ortadi, ishlab chiqarish hajmi va sifati o'sadi. Umumiy qilib aytilganda, mintaqalarning barqaror rivojlanish davomiyligi ta'minlanadi.

1.3. Mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishning optimal tartibga solishning metologik asoslari

Mintaqalarni barqaror o'sishini, soha va tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Bu esa, investitsiyalarni faol darjada jalb etish hamda ular ko'lamini oshirishni talab qiladi. Shunday bo'lsada, investitsiyalar ko'lamini oshirishgina emas, ulardan samarali hamda oqilona foydalanishga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Bunda, investitsiyalarni jalb qilish bilan birga soha va tarmoqlarda optimal taqsimlash ham muhim sanaladi. Investitsiyalarni mintaqalarda jalb etishni optimal tartibga solish

mexanizmlarini takomillashtirishda ilmiy-uslubiy jihatlarini tizimli tadqiq qilish lozim.

Jumladan, mintaqalarda investitsiyalarni jalb etish masalasini tadqiq qilishda soha va tarmoqlar kesimida nomutanosib taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratamiz. Bu esa, mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishni takomillashtirish masalasini muhimlik darajasini belgilab beradi. Odatda, investitsiyalarning asosiy ulushini tashkil qiluvchi markazlashmagan investitsiyalar yuqori daromadli sohalarga yo'naltirilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa soha va tarmoqlar kesimida sanoat va xizmatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar qishloq xo'jaligiga nisbatan ustun hisoblanadi. O'z navbatida, sanotat sohasining tarmoqlarida esa, xorijiy investitsiyalarning asosiy qismini tabiiy resurslarni qazib olish va dastlabki qayta ishlashga yo'naltirilganlik darajasi ham katta ulushga ega. Demak, investitsiyalarni manbalar kesimida markazlashmagan investitsiyalarni jalb etish hamda sohalar kesimida taqsimlanishini tartibga solishni takomillashtirishimiz lozim. Bunda masalaning iqtisodiy-statistik jihatlariga, iqtisodiy-matematik yondashuvlarga hamda istiqobol ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratamiz.

Odatda, mintaqalarga investitsiyalarni jalb qilishni baholashda, uning omillarini hisobga olib reyting va integral usullarda baholash keng tarqalagan. Jumladan, investitsiyalarni jalb qilishni mintaqaviy darajasini baholashda quyidagi 12 ta omilni hisobga olib baholash ilgari surilgan. Ular, iqtisodiy, ekologik, infratuzilma, ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy, investitsiya, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, innovatsion, jinoyatchilik, resurs-xomashyolar hisoblanadi. Mazkur baholashda integral usullardan foydalanilgan. Shuningdek, hududlar yuqori, o'rtachadan yuqori, o'rtacha, o'rtachadan past, minimal tarzda mintaqalarga ajratiladi⁶⁸. Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotlar asosida katta ma'lumotlar bazasi hamda statistik ko'rsatkichlar talab etiladi. Bu esa, mazkur yondashuvdan foydalanishning murakkablashtirib yuboradi. Shuningdek, qayd etilgan 12 ta

⁶⁸ Траченко М.Б., Джиоев В.А. Экспресс-анализ инвестиционной привлекательности регионов // Финансы и кредит. — 2018. — Т. 24, № 9. — С. 2151 — 2165. <https://doi.org/10.24891/ fc. 24. 9.2151>.

omilning hududlararo solishtirish uchun doim ham ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Shu bois, mazkur yondashuv hududlararo tadqiqotlarda foydalanish uchun qo'shimcha va o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Xususan, hamma hududlar uchun olish mumkin bo'lgan statistikani hisobga olib, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, infratuzilma, innovatsiya hamda mehnat kabi mezonlarga muvofiq amalga oshirishni taklif qilamiz.

O'z navbatida, L.S.Valinurova va O.B.Kazakovalar tomonidan mintaqalarning investitsiyalar jalb etish jihatlarini baholashda yalpi hududiy mahsulot, budjet taqchilligi, ishchi kuchi ish haqi, soliqlar darajasi, import hajmi kabi ko'rsatkichlardan foydalanilgan⁶⁹. Shunday bo'lsada, mazkur ko'rsatkichlar investitsiyalar jalb qilishni tartibga solish va uni takomillashtirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Shuningdek, O.V.Kobozev tadqiqotlarida ekspert va statistik usullardan keng foydalanish asosida mintaqalarning investitsiya jalb qilish holati baholangan. Uning fikricha, mazkur izlanishlarda investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir qiluvchi omillar muhim sanaladi⁷⁰. Fikrimizcha, mintaqalarda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari ekspert va statistik usulnigina tahlil qilish bilan to'liq ochilmaydi. Balki, bunda mazkur kattaliklarni o'zgarish sabablarini ham tadqiq qilishimiz zarur.

T.V.Kramin va V.A.Leonovlarning tadqiqotlarida mintqalarda investitsiyalar ko'lamini oshirishga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilgan. Shunday bo'lsada, mualliflar investitsiya salohiyatini iqtisodiy-statistik usullar bilan baholashni ilgari surgan⁷¹. Fikrimizcha, iqtisodiy-statistik usullar hududlarda investitsiya jalb etish holatini aniqlashda qo'l keladi. Lekin, uning jalb etish darjasi va uni optimal tartibga solishda yuqorida ta'kidlaganimizdek omilli tahlil o'tkazish lozim. Shunday

⁶⁹ Валинурова Л.С., Казакова О.Б. Оценка инвестиционной привлекательности регионов Приволжского федерального округа: факторы и условия привлечения инвестиций // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. 2013. № 4. С. 81—95.

⁷⁰ Кобозев О.В. Экспертный и статистический методы оценки инвестиционной привлекательности региона // Российское предпринимательство. 2011. Т. 12. № 2. С. 151—155.

⁷¹ Крамин Т.В., Леонов В.А. Развитие методики управления инвестиционной привлекательностью российских регионов // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. 2012. № 1. С. 40—47.

bo'lsada, omillarni ta'sirini tadqiq qilishda ko'rsatkichlar uchun muvofiq bo'lgan manbalarni baholashimiz zarur.

Shuningdek, mintaqalarda investitsiyalarni jalb qilish darjasini baholashda «Ekspert RA» va «RIA Reyting» kabi reyting guruhlarining tadqiqotlari ham mavjud bo'lib, ular asosiy e'tiborni ekspert usuliga qaratadi. Jumladan, «Ekspert RA»ning tadqiqotlarida mintaqalarning investitsiya salohiyati va riskini integral tavsifdagi baholash amalga oshirilgan.

Integral natijalarni aniqlashda birinchi navbatda ishlab chiqarish, infratuzilma, innovatsiya, iste'mol, tabiiy resurs, mehnat, institutsional, moliyaviy, turistik salohiyatni baholaganlar. Ikkinchi yo'nalishda iqtisodiy, jinoyatchilik, ijtimoiy, ekologik, moliyaviy, boshqaruv mezonlari orqali investitsiya riskini baholagan⁷².

$$I_{ИП} = 0,2 \cdot K_{БУ} + 0,6 \cdot K_{ИК} - 0,2 \cdot K_{ИР} \quad (1.1)$$

Bunda: $I_{ИП}$ – mintaqaning investitsion jozibadorligi;

$K_{БУ}$ – bazavoy sharoit koeffitsiyenti;

$K_{ИК}$ – investitsiya muhiti koeffitsiyenti;

$K_{ИР}$ – investitsion risk koeffitsiyenti.

Bazovoy sharoit koeffitsiyenti mintaqaning geografik, tabiiy-resurs, iqlim, transport infratuzilmasi salohiyati mezonlarini o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mintaqaning investitsiya muhiti esa, institutsional muhit, infratuzilma, mehnat, moliyaviy, iste'mol, innovatsiya, ishlab chiqarish, intellektual salohiyat mezonlaridan tashkil topadi.

Investitsion riskni aniqlashda iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, boshqaruv, ekologik, siyosiy, jinoyatchilik risklari baholanadi.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, mazkur tadqiqotlarda 40 dan ortiq ko'rsatkichlar qo'llanilgan. Ushbu yondashuvlar natijasida olingan tadqiqotlar mintaqalarda investitsiyalar jalb etish holatini ochib berish va uni tartibga solish

⁷² Траченко М.Б., Джигоев В.А. Экспресс-анализ инвестиционной привлекательности регионов // Финансы и кредит. — 2018. — Т. 24, № 9. — С. 2151 — 2165. <https://doi.org/10.24891/ fc. 24. 9.2151>.

bo'yicha qarorlarni qabul qilishda foydalanish mumkin bo'lsada, katta statistik baza bilan ishlashni talab qiladi.

Aksariyat hollarda mintaqalarda mazkur ko'rsatkichlar yoki ularning tarkibini tavsiflovchi ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Shu bois, ushbu usul va yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lsada, undan foydalanish darajasi murakkab hisoblanadi.

Bir guruh tadqiqotchilar izlanishlarida ham ekspert usullaridan foydalanish ilgari surilgan bo'lib, ular ham reyting agentliklarining tadqiqot yo'nalishlaridan foydalanishni ilgari suradilar⁷³. Shu bilan birga, boshqa bir tadqiqotda ham investitsion jozibadorlikni baholashda reyting usullaridan foydalanilgan⁷⁴. Fikrimizcha, aksariyat hollarda mintaqalarning investitsiya jalb etish darajasini, ulardagi investitsiya jozibadorligini baholashda reyting usullari keng foydalanilmoqda. Mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishni tartibga solish va uni optimallashtirish uchun esa ushbu usul yetarli emas. Chunki, ular asosida yakuniy jamlanma koeffitsiyentga erishish asosida mintaqaning investitsion jozibadorligini ifodalashga erishamiz. Mazkur ko'rsatkich tarkibidagi qaysi mezonning ta'sirchanligi yuqori ekanligini baholash uchun esa albatta omilli tadqiqotlarni olib borishimiz lozim.

A.L.Berekchiyanning tadqiqotlarida Rossiyaning Rostov oblastining investitsiya muhiti va jozibadorligini tadqiq qilish orqali investitsiya jalb etish imkoniyatining takomillashtirish yo'llari tadqiq qilingan. Muallif asosiy e'tiborini boshqaruv faoliyati tahliliga qaratgan bo'lib, uning fikricha investitsiyalarni jalb etishda davlat va mahalliy hokimlik organlarining yaratgan shart-sharoitlari muhim o'rin tutadi. Muallif fikricha, Rostov oblastiga xorijiy investitsiyalar jalb etish ko'lamini oshirish uchun federal va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish, Rostov oblastining investitsiyaviy qonunchiligini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi hujjatlashtirishni qisqartirish zarur. Shuningdek, muallif

⁷³ Григорьева К.Д., Захаркина М.В., Полянская Н.В. Иностранные инвестиции как важнейший фактор при оценке инвестиционного климата в Самарской области // Региональное развитие: электронный научнопрактический журнал. 2016. № 6(18).

⁷⁴ Лашко С.И., Сапрыкина В.Ю. Инвестиционная привлекательность региона (на примере Краснодарского края) // Научный вестник Южного института менеджмента. 2018. №2. С. 68-73. [https:// doi.org/10.31775/2305-3100-2018-2-68-73](https://doi.org/10.31775/2305-3100-2018-2-68-73).

umumiy tarzda mintaqaning investitsiya faoliyatini rivojlantirishda davlatning qo‘llab-quvvatlashi asosiy bo‘g‘in degan xulosaga kelgan⁷⁵. Mazkur izlanishda asosiy e‘tibor boshqarish ko‘rinishida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, investitsiya uchun qulay muhit yaratishga ustuvorlik berilgan.

Bir guruh mualliflar tadqiqotida investitsion jozibadorlikni baholashda AVS-matritsa usulidan foydalanilgan⁷⁶. Bunda mualliflar investitsiya muhiti va investitsion risklarni baholashga e‘tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisodiyotni to‘rt darajaga bo‘lib, ya‘ni korxona-tarmoq-mintaqa-milliy iqtisodiyot tarzida tadqiq qilingan. Shuningdek, omillar guruhida esa ma‘muriy-huquqiy, iqtisodiy, resurs-texnologik, ijtimoiy-ekologik manbalar ko‘rib o‘tilgan. Mualliflar investitsion risklarni aniqlashda SARM modelidan foydalangan.

$$r = r_f + \beta(r_m - r_f) + r_{\Pi} + r_o + r_p + r_H, \quad (1.2)$$

Bunda: r_f - risksiz foiz stavkasi;

r_m – bozordagi o‘rtacha daromadlilik;

r_{Π} – korxonaning investitsiya riskini ifodalovchi diskont meyori;

r_o – tarmoqning investitsiya riskini ifodalovchi diskont meyori;

r_p – mintaqaning investitsiya riskini ifodalovchi diskont meyori;

r_H – mamlakatdagi investitsiya riskini ifodalovchi diskont meyori.

Shu bilan birga, mualliflar tadqiqotlarida ko‘rsatkichlar va ular qiymatini baholashda ekspert usulidan ham keng foydalanilgan. Shuningdek, investitsiya muhiti va investsion riskni baholashda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish talab etiladi⁷⁷. Jumladan:

1) investitsion muhit va investitsion risklarni tavsiflovchi omillarni tarkibiy tuzilishini to‘liq ochib berish;

⁷⁵ Берекчиян А.Л. Инвестиционная привлекательность Ростовской области: динамика, опыт, пути совершенствования // Economics. 2018. С. 103-107. <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnaya-privlekatelnost-rostovskoy-oblasti-dinamika-opyt-puti-sovershenstvovaniya>.

⁷⁶ Александров Г.А., Вякина И.В., Скворцова Г.Г.. Инвестиционный климат и инвестиционные риски: методология анализа взаимосвязи и оценки // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014, №22(259). С.12-22.

⁷⁷ Александров Г.А., Вякина И.В., Скворцова Г.Г. Инвестиционный климат и инвестиционные риски: методология анализа взаимосвязи и оценки // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014, №22(259). С.12-22.

- 2) omillarning barchasini mazmun va mohiyatini to‘liq ochib berish. Bunda, mazkur omillarning tarkibiga kiruvchi omillarni ham e’tiborga olish;
- 3) omillarni 0 va 1 oralig‘ida ekspert usuli asosida baholash;
- 4) omillarning tarkibiy tuzilishini jamlash asosida yalpi manbaning qiymatini aniqlash;
- 5) barcha baholash ko‘rsatkichlarini jamlash. Ularning vertikal qiymatlarini yalpi darajasini aniqlash;
- 6) diskont meyorining integral qiymatini baholash;
- 7) investitsiya muhiti va riskini ballar asosida yakuniy qiymatlarini hisob-kitob qilish.

Yuqoridagi usulda mualliflar bir nechta yondashuvlarni birgalikda qo‘llashmoqda. Fikrimizcha, integral usuldan foydalanilgan, matritsa usuli keng qo‘llanilmoqda hamda ekspert usulini ham baholashda samarali ishlatganlar. Demak, mintaqalar darajasida investitsiya muhiti va riskini aniqlash, umumiy holda investitsiyalar jalb qilish imkoniyatini baholashda keng qo‘llaniladigan yondashuvlar sifatida integral hamda ekspert usulini qo‘llash maqsadga muvofiq ekan.

I.N.Vilkov tadqiqotlarida ham Rossiya Federatsiyasining mintaqalar investitsiya jozibadorligi ekspert usulida baholangan⁷⁸. Muallif fikricha, “Ekspert RA”ning natijalariga muvofiq investorlar tomonidan kapital kiritish qarorini qabul qilishga asos hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, reyting usulini kamchiliklari sifatida investitsion jozibadorlikning omilli tahlilini ochib berish imkoniyatining cheklanganligi hamda resurslarni hisobga olinmaganligi hisoblanadi. Shuningdek, boshqa bir tadqiqotda ham mualliflar reyting usulidan foydalanganlar⁷⁹. Shunday bo‘lsada, mualliflar mintaqaning investitsiya jalb etish darajasini reyting usulida baholash davomida statistik, ekspert va so‘rovnoma natijalari asosidagi

⁷⁸ Вилков И.Н. К вопросу о рейтингах инвестиционной привлекательности регионов // Вестник Пермского университета. Сер. «Экономика» = Perm University Herald. Economy. 2016. № 1(28). С. 90–97.

⁷⁹ Михалёв И.В., Левченко Т.П. Методические аспекты оценки инвестиционной привлекательности // Интернетжурнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 8, №3 (2016).

ko'rsatkichlardan foydalangan. Mualliflar tomonidan mintaqaning iqtisodiy o'sish sur'ati hamda tarmoqlarining rivojlanishi ham tadqiq qilingan.

Bir guruh mualliflar mintaqaning investitsion jozibadorligini aniqlash uchun investitsiya salohiyati hamda investitsion risklarni baholashni ilgari surgan. Shunday bo'lsada, muallif mazkur tadqiqotlarida bir qator reyting agentliklarining tahlil usullarini yoritib o'tgan. Shuningdek, mintaqalarda investitsiya jalb etishni boshqarishda investitsion faoliyat ko'rsatkichlarini ham o'zaro nisbatini tahlil qilgan. Jumladan, sof investitsiyalarni amortizatsiyaga, yalpi investitsiyani sof investitsiyaga nisbatini baholagan. Birinchi guruh natijalarining 1 dan yuqori bo'lishi investitsiya salohiyatini yuqoriligidan, iqtisodiyotni rivojlantirishda imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Ikkinchi ko'rsatkichlar guruhi nisbati esa, investitsiya muhitini ifodalab, muallif fikricha, uning natijasi investorning kapital kiritishni aniqlashda hududlarni tanlash imkonini beradi. Mazkur kattalikning o'sib borishi iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan modernizatsiyalash imkonini cheklaydi⁸⁰. Fikrimizcha, mazkur yondashuvlar nisbatan qulay va kam axborot talab qilsada, mintaqaning investitsiya jalb etish holatini baholashga hamda investorning to'liq qaror qabul qilishiga yetarli emas.

A.T.Aliyev, N.M.Kosmachyovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda mintaqaning investitsiya jozibadorligi, kapital jalb qilish imkoniyatini baholash usullari keltirib o'tilgan⁸¹. Bunda, mualliflar bir qator mamlakatlar tajribasiga to'xtalib o'tishgan. Jumladan, Rossiyaning mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarida asosiy baholash jarayoni reyting agentliklari tomonidan amalga oshirilishi ilgari surilgan. Shuningdek, Chexiya davlati tomonida qo'llaniladigan usulni ilgari surib, uning matematik ifodasini keltirib o'tganlar.

⁸⁰ Алиев А. Т., Космачёва Н. М. Методологические основы оценки инвестиционной привлекательности в системе управления экономикой региона // Проблемы экономики и юридической практики. 2018, №5. С. 17-21.

⁸¹ Траченко М.Б., Джюев В.А. Оценка инвестиционной привлекательности регионов: какая методика отвечает интересам инвестора? // Государственное управление. Электронный вестник Выпуск № 76. Октябрь 2019. С. 92-108. DOI: 10.24411/2070-1381-2019-10005.

$$I_x = 0,2 / y_1 * UN_x + 0,05 / y_2 * UNL_x + 0,15 / y_3 * INC_x + 0,1 / y_4 * NRL_x + 0,1 / y_5 * NRLD_x + 0,1 / y_6 * GDRR_x + 0,15 / y_7 * RFC_x + 0,15 / y_8 * FDI_x \quad (1.3)$$

Bunda: I_x — x -mintaqaning investitsiya jozibadorligi indeksi; UN_x — x -mintaqadagi ishsizlik darajasi; UNL_x — x -mintaqaning uzoq muddatli (5 oydan ko‘p bo‘lgan) ishsizlik darajasining jamidagi ulushi;

$INCB_x$ — x -mintaqada tadbirkorlik sektoridagi soatbay ish haqi;

NRL_x — x -mintaqada har 1000 kishiga ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik subyektlari soni; $NRLD_x$ — x -mintaqada har 1000 kishiga ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik subyektlarining o‘zgarish soni;

$GDRR_x$ — x -mintaqadagi aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan yalpi hududiy mahsulot hajmi;

RFC_x — x -mintaqada aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan yalpi asosiy kapital;

FDI_x — x -mintaqadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar;

y_1 – y_8 — statistik ma’lumotlar asosida hisoblangan standart chetlanishlar indeksi.

Mualliflar yuqoridagi usullarni umumlashtirar ekan, mintaqalarni investitsiya jozibadorligini baholashda o‘z usulini taklif qilgan. Ularning fikricha, ekspert usuli bilan aniqlangan kattaliklar har doim subyektiv yondashuv asosida shakllanadi. Shu bois, statistikada mavjud bo‘lgan ko‘rsatkichlar bilan cheklanish hamda ular asosida baholash ishlarini amalga oshirish lozim.

Bir guruh tadqiqotchilar mintaqaning investitsiya jozibadorligini baholashda reyting agentliklari yondashuvlarini inkor etmasada, ular tadqiqotlarida ekonometrik usullardan foydalanganlar⁸². Mualliflar tadqiqotlari asosida investitsiya hajmi va uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar ochib berilgan. Shuningdek, boshqa bir muallif tadqiqotlarida ham reyting agentliklari tomonidan ilgari surilgan usullarni inkor etmagani holda, ekonometrik usullar ilgari surilgan. Mazkur usulda

⁸² Александров Г.А., Скворцова Г.Г., Вязина И.В. Повышение качества методов оценки инвестиционного климата региона // Российское предпринимательство. – 2017. – Том 18. – № 22. – С. 3473-3482. doi: 10.18334/rp.18.22.38495.

yuqoridagilardan farqli o'laroq, investitsiya jozibadorligi bilan birga innovatsion faollikni ham baholash mumkinligi ilgari suriladi⁸³.

$$\ln y_i = a_0 + \sum a_i \ln x_{ij}, i=1, \quad (1.4)$$

Bunda: y – endogen ko'rsatkichlar;

y₁ – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga nisbati bo'lib, mintaqaning investitsiya jozibadorligini tavsiflash uchun foydalanilgan;

y₂ – yalpi hududiy mahsulotdagi ilmiy tadqiqot, tashkiliy konstruksiya ishlari (ITTKI)ga sarflangan mablag'larning ulushi, mintaqaning innovatsion faolligini tavsiflaydi;

x – ekzogen kattaliklar;

j – klasterlardagi mintqa indeksi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida xulosa qilsak, mintaqalarga investitsiya jalb etish va ularning investitsiya jozibadorligini baholashda uch xil usul keng tarqalganligini ta'kidlaymiz. Ular, integral usul orqali reytingini aniqlash, ekspert usulida baholash hamda ekonometrik usullar orqali omilli tahlil o'tkazish. Biz ham Surxondaryo viloyati hududlarining investitsiya jalb qilish darajasini baholashda yuqoridagi uch xil usuldan foydalanishni taklif etamiz. Shunday bo'lsada, integral usullarni qo'llashda mahalliy statistik ma'lumotlarni hisobga olgan holda, to'rtta ko'rsatkichlar guruhini baholash lozim, deb hisoblaymiz.

1.3.1-jadval

Mintaqaning investitsiya jalb etish salohiyatini baholash bo'yicha mualliflik metodikasi⁸⁴

Baholash usuli va yondashuvi	Baholashning ekonometrik ifodasi	Izoh
---------------------------------	-------------------------------------	------

⁸³ НИКОНОВА М.А. Проблемы несоответствия инвестиционной привлекательности и инновационной активности регионов России // Региональная экономика: теория и практика. 2016, №8. С.130–148.

⁸⁴ Muallif ishlanmasi.

Integral usul	$\frac{X_{real}^i - X_{min}^i}{X_{max}^i - X_{min}^i}$	X_{real}^i – mintaqaning i-hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, ishlab chiqarish salohiyatlarning haqiqiy qiymati; X_{min}^i – mintaqaning i-hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, ishlab chiqarish salohiyatlarning eng kichik qiymati; X_{max}^i – mintaqaning i-hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, ishlab chiqarish salohiyatlarning eng yuqori qiymati;
Ekspert usuli	$0,27 * IQTS_t^i + 0,18 * IJTS_t^i + 0,3 * MOLST_t^i + 0,25 * IshCHiqS_t^i.$	$IQTS_t^i$ – i-hududning tadqiqot davridagi iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichi; $IJTS_t^i$ – i-hududning tadqiqot davridagi ijtimoiy salohiyat ko'rsatkichi; $MOLST_t^i$ – i-hududning tadqiqot davridagi moliyaviy salohiyat ko'rsatkichi; $IshCHiqS_t^i$ – i-hududning tadqiqot davridagi ishlab chiqarish salohiyat ko'rsatkichi;
Korrelyatsion-regression usul	$a_1 * IQTS_t^i + a_2 * IJTS_t^i + a_3 * MOLST_t^i + a_4 * IshCHiqS_t^i.$	a_1, a_2, a_3, a_4 - hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, ishlab chiqarish omillarining mintaqaning investitsiya jozibadorligiga ta'sirchanlik koeffitsiyentlari, regression tahlil asosida aniqlanadi.

Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, xomashyo-ishlab chiqarish salohiyatlarini baholash orqali mintaqaning investitsiyalar jalb etish imkoniyatini aniqlaymiz. Bunda, iqtisodiy salohiyat zahirida yalpi hududiy mahsulot, soha va tarmoqlarning o'sish sur'atini hamda aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotlarni ko'rib o'tamiz. Ijtimoiy ko'rsatkichlar zahirida esa ish bilan bandlik, ishsizlik, o'rtacha ish haqi kabi ko'rsatkichlarni baholaymiz.

Moliyaviy ko'rsatkichlar ostida investitsiyalar darajasi, ularning manbalarini tahlil qilamiz. Xomashyo-ishlab chiqarish salohiyatini aniqlash uchun soha va tarmoqlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hissasini baholaymiz. Shu bilan birga, mintaqaning investitsiya jozibadorligini aniqlashda ekspert usulini ham qo'llaymiz. Bunda yuqoridagi to'rtta ko'rsatkichlar guruhiga quyidagicha koeffitsiyent berishni ilgari suramiz. Jumladan, iqtisodiy salohiyatga 27 foiz, ijtimoiy salohiyatga 18 foiz, moliyaviy salohiyatga 30 foiz, ishlab chiqarish salohiyatiga 25 foiz ulush berish asosida baholaymiz.

Shuningdek, ekonometrik tadqiqotlarimiz orqali investitsiyalarni endogen hamda soha va tarmoqlar, yalpi hududiy mahsulot, ish bilan bandlik, eksport va importning o'sish sur'atlarini ekzogen kattaliklar sifatida kiritamiz (1.3.1-jadval).

Umumiy holda, yuqoridagi usullar orqali, Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb qilishni optimal tartibga solish uchun muhim omil va manbalarni aniqlash asosida taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlari omil hamda manbalar hisobiga erishiladi. Mazkur manbalar ichida investitsiya muhim sanaladi. Shunday bo'lsada, uni mintaqa iqtisodiyotiga jalb qilish ko'lamini oshirish zarur. Bunda, investitsiyalarni mintaqa soha va tarmoqlari kesimida mutanosib taqsimlash jarayonlarini optimal tartibga solish lozim. Demak, mintaqa iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish mexanizmlarni takomillashtirish hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunda, "investitsion jozibadorlik", "investitsion faollik", "investitsiya salohiyat" va "investitsion risk" kabi mezonlarini baholash asosida mintaqaning o'ziga xos xususiyati aniqlanadi. Natijalar asosida investitsiya jalb etish mexanizmini optimal tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Mintaqalarda investitsiyalarni jalb etish va uni optimal tartibga solishni takomillashtirishda xorijiy tajribalar muhim sanaladi. Ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim: hududlarni rivojlantirishning soha va tarmoqlari bo'yicha ustuvor yo'nalishlariga muvofiq investorlar uchun imtiyozlar berish (AQSH, Germaniya, Avstriya amaliyoti); mintaqalarda yirik investitsiya loyihalarini banklar va davlat ishtirokida amalga oshirish tizimini joriy qilish (Germaniya va Avstriya amaliyoti); mintaqa hududlariga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan erkin foydalanish huquqini beruvchi subsidiyalar ajratish; davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida klaster, markaz, texnopark kabi innovatsion investitsiya infratuzilmalarini amalga

oshirish bo'yicha institutsional tizimni takomillashtirish (AQSH, Fransiya, Yaponiya tajribasi); mintqalarda hududlararo investitsion loyihalarni yo'lga qo'yish (Xitoy tajribasi); mintqa investitsiya siyosatini o'sish nuqtalarini hisobga olib optimal tartibga solish (Fransiya, Italiya, Ispaniya tajribasi); mintqa va uning hududlarida iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini tashkil etish. Umumiy holda, xorijiy tajribalarni qo'llash natijasida mintaqada jalb etilgan investitsiyalar ko'lamini oshirish, uni soha va hududlar kesimida optimal tartibga solishga erishiladi.

3. Mintaqalarda investitsiyalarni jalb qilishni optimal tartibga solishning uslubiy jihatlarini takomillashtirishda integral, ekspert hamda ekonometrik usullardan foydalanish maqsadli hisoblanadi. Bunda, Surxondaryo viloyatining o'ziga xos xususiyatini hisobga olib integral usulni qo'llashda shartli minimum va maksimum qiymatlardan foydalanamiz. Shu bilan birga, viloyat va uning hududlari bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarimizda ekspert usuli uchun iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy va ishlab chiqarish mezonlarini tanlab olamiz hamda ularga mos ravishda 27, 18, 30, 25 foizli ulushlar beramiz. Ekonometrik tadqiqotlarimizda ham yuqoridagi to'rtta mezonni investitsiyalar ko'lamiga ta'sirini tadqiq etamiz. Olingan natijalar asosida Surxondaryo viloyati va uning hududlarida investitsiyalarni jalb etish hamda ularni optimal tartibga solishga erishiladi.

II BOB. SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING OPTIMAL TARTIGA SOLISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

2.1. Mintaqa iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jalb etilgan investitsiyalarning iqtisodiy-statistik tahlili

Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ijobiy natijalarga ega boʻlmoqda. Shuningdek, uning soha va tarmoqlari ham oʻsish jarayonini aks ettirmoqda. Jumladan, YaHMning oʻsish surʼati 2010-2022-yillarda oʻrtacha 6,7 foizga teng boʻlgan. Shunday boʻlsada, mazkur koʻrsatkich tebranuvchi tendensiyaning ifodalanoqda. Oʻsish surʼati 2010-yildagi 10,9 foizdan 2017 yildagi 3,4 foizgacha pastlagan. Keyingi yillarda esa, tebranib borgan va oʻrtacha koʻrsatkichdan past qiymatlari aniqlangan. 2021-yil esa bundan mustasno boʻlib, oʻrtacha koʻrsatkichdan yuqori 7,9 foizga teng (2.1.1-jadval).

Yuqoridagilar qatori viloyatning soha hamda tarmoqlarini ham iqtisodiy-statistik tahlilini amalga oshiramiz. Qishloq xoʻjaligi tarmogʻi 2010-2022-yillarda oʻrtacha 4,8 foizga oʻsgan. Shunday boʻlsada, qishloq xoʻjaligining oʻsish surʼati tadqiqot davrida notekis oʻzgarib borgan. Hatto, 2018-yilda oʻtgan yilga nisbatan 2,7 foizga qisqarish kuzatilgan. Shu bilan birga, oxirgi yillarda qishloq xoʻjaligining oʻsish surʼati oʻrtacha koʻrsatkichdan past holatga ega (2.1.1-jadval).

Qishloq xoʻjaligi tarmogʻi kabi qolgan sohalar ham umumiy iqtisodiyot kabi oʻzgarish tendensiyalariga ega. Jumladan, sanoatning oʻrtacha oʻsish surʼati 6,4 foiz, qurilishning ushbu koʻrsatkichi 17,6 foiz, xizmatlar sohasi esa 7,2 foizga teng. Shuningdek, mazkur koʻrsatkichlar ham oxirgi yillardagi tegishli soha va tarmoqlarning oʻsish surʼati qiymatlaridan yuqori holat qayd etilmoqda.

Umumiy holda mintaqa iqtisodiyoti va uning tarmoqlarida ijobiy oʻsish surʼatlari aniqlandi. Shuni alohida taʼkidlaymizki, ijobiy oʻsish bilan mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishiga toʻliq baho berish imkoniyati mavjud emas. Buning uchun iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga, undagi ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlashga eʼtibor qaratamiz.

2.1.1-jadval

Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot va sohalarning o'sish sur'atlari⁸⁵

Ko'rsatkich nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
1. YaHM, jami	110,9	110,9	108,5	107,8	107,8	107,3	105,6	103,4	104,5	103,7	104,4	107,9	104,0	106,7
<i>shu jumladan:</i>														
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110,6	110,7	108,5	107,7	107,7	107,2	105,5	103,4	104,2	103,6	104,2	107,9	104,0	106,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	121,0	116,5	110,8	111,7	113,1	112,3	109,4	103,5	116,1	104,4	109,5	107,9	104,3	110,8
2. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110,6	110,7	108,5	107,7	107,7	107,2	105,5	103,4	104,2	103,6	104,2	107,9	104,0	106,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	105,4	108,7	108,3	106,5	106,3	106,1	104,4	104,7	97,3	103,1	105,4	104,1	102,6	104,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	125,3	115,2	109,5	113,5	109,6	112,6	106,6	102,1	117,6	114,3	108,0	111,5	103,1	111,5
Sanoat	110,3	105,0	106,1	104,8	111,0	107,5	106,5	97,9	106,0	107,1	106,7	109,7	104,4	106,4
Qurilish	143,5	129,0	113,9	126,7	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	109,0	112,9	102,0	117,6
Xizmatlar	112,5	111,7	108,4	107,8	109,0	106,8	106,5	102,1	109,9	100,4	100,9	111,6	106,3	107,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	122,3	118,4	112,2	116,2	116,2	112,7	117,1	102,2	126,1	90,6	98,8	111,1	109,5	111,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	126,3	116,7	113,5	110,1	110,2	109,8	107,6	106,1	103,9	105,2	100,7	117,2	115,9	111,0
boshqa xizmat tarmoqlari	106,8	109,0	106,3	105,2	106,7	104,3	103,2	101,1	105,1	103,8	101,7	110,7	103,4	105,2

⁸⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Fikrimizcha, ustuvor sohaga qarab, mintaqaning kelgusi rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqamiz.

Surxondaryo viloyatining YaHM ko'rsatkichining tarkibiy tuzilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Xususan, 2010-2022 yillardagi tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati ulushi o'rtacha 97,4 foizga teng. Mazkur ko'rsatkichni yillar kesimida baholaganimizda ham o'rtacha qiymatlarga yaqin holatni aniqladik. Shuningdek, mahsulotlarga sof soliqlar ulushi o'rtacha 2,6 foizga teng. Qishloq xo'jaligining yalpi tarmoqlardagi ulushi esa tadqiqot davrida o'rtacha 49,4 foizga teng bo'lmoqda. Shu bilan birga, uning tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi 2010-yildagi 46,3 foizdan tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2022-yilda 47,7 foizga teng bo'lgan. Sanoat va qurilish tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushlarining o'rtacha ko'rsatkichi mos ravishda 6,6 foiz va 6,3 foizlarga teng. Shunday bo'lsada, ularning tegishli ko'rsatkichlari 2010-yilga nisbatan 2022 yilda o'suvchi holatga ega bo'lmoqda. Tegishli ko'rsatkichlar sanoatda 2010 yildagi 6,7 foizdan 2022 yilda 6,9 foizga, qurilishda esa mazkur davrda 5,0 foizdan 8,3 foizga o'sgan. Xizmatlar sohasining tegishli ko'rsatkichlari 2010-yildagi 41,9 foizdan qisqarib borib, 2022 yilda 37 foiz bo'lgan hamda o'rtacha 37,2 foizni tashkil qilgan (2.1.2-jadval).

Demak, yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi agrar iqtisodiyot turini aks ettirmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi xizmatlardan 1,3 marta, sanoatga nisbatan 7,6 marta, qurilishga nisbatan 7,9 marta yuqori.

Bu esa, mintaqada mavjud xom ashyo resurslarini hisobga olib, sanoatning qazib olish va qayta ishlash, oziq-ovqat hamda to'qimachilik sohalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishni talab etmoqda. Mazkur tarmoqlarni rivojlantirishda ayniqsa, investitsiya omilini soha va tarmoqlar kesimida jalb qilish hamda taqsimlashni optimal tartibga solish zarur. Ya'ni, ushbu yo'nalishdagi tarmoqlar uchun yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qatori davlat budjeti mablag'larini ham kengaytirishimiz zarur. Davlat budjeti mablag'lari infratuzilmani rivojlantirish uchun maqsadli manba hisoblanadi.

2.1.2-jadval

Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulotdagi soha va tarmoqlarning ulushi⁸⁶,

jamiga nisbatan foizda

Ko'rsatkich nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
1. YaHM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>														
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,9	97,7	97,7	98,0	97,8	97,6	97,4	97,2	96,0	97,2	97,7	97,4	97,4
Mahsulotlarga sof solliqlar	3,3	2,1	2,3	2,3	2,0	2,2	2,4	2,6	2,8	4,0	2,8	2,3	2,6	2,6
2. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,9	97,7	97,7	98,0	97,8	97,6	97,4	97,2	96,0	97,2	97,7	97,4	97,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	46,3	55,2	53,7	49,3	49,3	49,4	49,0	52,4	50,8	49,9	48,5	47,6	47,7	49,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11,7	9,7	10,2	11,7	12,4	12,3	12,9	11,9	13,6	14,5	15,6	16,0	15,2	12,9
sanoat	6,7	5,5	6,1	6,7	6,9	6,7	7,1	6,1	6,6	6,5	7,0	7,3	6,9	6,6
qurilish	5,0	4,2	4,1	4,9	5,5	5,6	5,8	5,8	6,9	8,0	8,6	8,7	8,3	6,3
Xizmatlar	41,9	35,1	36,1	39,1	38,4	38,3	38,0	35,7	35,7	35,6	35,9	36,4	37,1	37,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	5,4	5,7	6,5	6,8	6,8	8,5	8,5	9,7	8,3	8,2	8,3	8,8	7,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,1	6,0	6,6	7,4	7,0	7,6	5,7	5,6	4,6	4,4	4,2	4,4	4,6	5,8
boshqa xizmat tarmoqlari	28,5	23,7	23,8	25,2	24,5	23,9	23,8	21,7	21,4	23,0	23,5	23,7	23,7	23,9

⁸⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagilar natijasida sanoat tarmog‘i kengayadi hamda xizmatlar sohasi ko‘lami o‘sadi. Bir so‘z bilan aytganimizda, iqtisodiyotda samaradorligi nisbatan yuqori soha va tarmoqlar ulushi ortadi. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni aniqlashda tarmoqlarning viloyat tuman va shaharlaridagi holatini, ularning mintaqa iqtisodiyotidagi ulushini baholaymiz. Olingan natijalar orqali mintaqaning tuman va shaharlar salohiyatidan foydalanish ko‘lami va samaradorligini oshiramiz.

Mintaqaning shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jamidagi ulushi notekis taqsimlangan. Jumladan, ushbu ko‘rsatkichni hisob-kitob qilganimizda Jarqo‘rg‘on (18,1 foiz), Denov (12,4 foiz), Sho‘rchi (10,3 foiz) tumanlari hamda Termiz (16,3 foiz) shahriga eng yuqori ko‘rsatkichlar to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Oltinsoy (2,0 foiz), Boysun (2,1 foiz), Bandixon (0,9 foiz) tumanlarida aniqladik (2.1.3-jadval). Shunday bo‘lsada, mintaqa hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning eng yuqori va past ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq 20 barobarga yetmoqda. Bu esa, hududda disproporsiyaning yuqoriligini ifodalaydi. Odatda, mintaqaning real sektor tarmog‘ining o‘zaro farqlanishi investitsiyalar jalb etish ko‘lamiga, uning jozibadorligi va salohiyatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Shunday ekan, nisbatan past ishlab chiqarish ulushiga ega tumanlarda to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatini kengaytirishimiz lozim. Chunki, aynan shu tumanlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish ko‘lami yuqori. Shunday bo‘lsada, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash darajasi yetishtirilgan hosilga nisbatan pastligicha qolmoqda. Ayrim turdjagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi 50 foizga ham yetmaydi⁸⁷.

Shu o‘rinda, mintaqa tuman va shaharlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning to‘liq baholash uchun aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan ko‘rsatkichlarni ham tadqiq etamiz.

⁸⁷ Viloyat hisobotlari asosida muallif tadqiqotlari.

2.1.3-jadval

Surxondaryo viloyatida yaratilgan sanoat mahsulotlaridagi shahar va tumanlar ulushi, jamiga nisbatan foizda⁸⁸

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	Oʻrtacha
Surxondaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100,0
Oltinsoy	1,8	1,4	1,7	1,6	1,6	1,4	3,3	2,4	1,8	1,5	2,3	2,8	2,4	2,0
Angor	5,1	4,7	4,7	4,6	5,0	4,7	4,4	2,9	3,0	2,2	1,7	2,9	2,1	3,7
Bandixon											0,1	0,9	1,8	0,9
Boysun	2,5	2,2	2,4	2,5	2,5	2,5	2,2	2,2	1,8	1,6	1,6	1,5	1,6	2,1
Muzrabod	6,0	5,3	4,9	4,5	4,3	3,9	3,4	2,9	2,2	1,9	3,4	3,9	3,7	3,9
Denov	12,6	13,7	12,6	12,6	12,4	13,8	14,8	16,0	13,3	11,0	15,8	6,5	5,6	12,4
Jarqoʻrgʻon	17,5	18,5	18,7	19,2	18,0	18,7	17,4	19,6	20,6	20,5	17,5	14,7	14,2	18,1
Qumqoʻrgʻon	5,9	5,4	5,5	5,5	5,8	7,5	6,7	5,7	6,3	5,3	6,6	7,6	8,7	6,3
Qiziriq	5,4	4,9	4,9	4,9	4,7	4,5	3,5	3,1	3,6	1,8	2,9	3,5	2,9	3,9
Sariosiyo	5,7	5,3	5,4	5,7	6,6	6,7	6,1	6,3	7,7	12,5	5,0	10,8	10,7	7,3
Termiz	2,2	2,4	2,8	2,7	3,3	3,1	3,1	3,5	3,4	2,5	2,2	4,2	5,1	3,1
Uzun	3,6	3,7	3,7	3,7	4,1	4,0	3,8	3,5	3,7	2,2	1,8	4,3	4,4	3,6
Sherobod	8,6	7,8	7,1	7,0	7,0	6,0	4,4	4,7	4,8	8,1	7,9	8,5	8,0	6,9
Shoʻrchi	10,9	10,4	11,7	11,1	11,3	9,9	10,3	9,2	10,9	8,5	8,7	9,3	11,2	10,3
Termiz sh.	12,2	14,3	13,9	14,3	13,5	13,2	16,5	18,2	16,9	20,3	22,4	18,5	17,7	16,3

⁸⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida toʻldirilgan.

Bunda, viloyatni o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan o'zgarishlarni qaraymiz. Viloyatdagi nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sherobod (201,3 foiz), Termiz (188,9 foiz), Jarqo'rg'on (140,8 foiz), Sho'rchi (139,7 foiz), Sariosiyo (113,7 foiz) tumanlari hamda Termiz (183,1 foiz) shahriga to'g'ri kelgan. Mintaqaning qolgan tumanlarida esa, o'rtacha viloyat ko'rsatkichiga nisbatan past holat aniqlandi. Shuningdek, eng past ko'rsatkichlar Oltinsoy (30 foiz), Boysun (29,5 foiz), Bandixon (32,6 foiz) tumanlariga to'g'ri kelgan (2.1.4-jadval).

Mintaqa hududlaridagi disproporsiya darajasi esa 6,8 barobar bo'lgan. Bu ko'rsatkich avvalgi hisob-kitoblarga nisbatan 2,5 marta past bo'lsada, yuqori salbiy holat hisoblanadi. Shu bois, past ko'rsatkichlar to'g'ri kelgan hududlarga investitsiya jalb etish ko'lamini oshirish zarur. Buning uchun, mazkur tumanlarga davlat budjeti hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni oshirish talab qilinadi.

Yuqoridagilar bilan birga, mintaqaning sanoat tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligi tarmog'ini ham alohida tadqiq qilamiz. Hisob-kitoblarimiz davomida viloyatda yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi tuman va shaharlarning ulushini aniqlaymiz.

Amalga oshirgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha yuqori hissa Denov (15,4 foiz), Qumqo'rg'on (10,1 foiz), Sherobod (9,5 foiz) tumanlariga, past ko'rsatkichlar esa Bandixon (3,1 foiz) va Angor (5,9 foiz) tumanlariga to'g'ri kelgan (2.1.5-jadval). Shu o'rinda Termiz shahridagi ko'rsatkich ham o'ta past bo'lib 0,1 foizga teng bo'lsada, hududning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmaganligini e'tiborga olib qiyosiy tahlilda aks ettirmadik. Shunday bo'lsada, viloyatning agrar rivojlanish turiga mansubligi bois, tumanlarning viloyatdagi hissasi keskin farqlanishiga ega emas. Jumladan, eng yuqori va past ko'rsatkichlar farqi 3-5 barobarga teng.

Bu esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mintaqada sanoat ishlab chiqarishni oshirishda qishloq xo'jaligini qayta ishlashga, xususan oziq-ovqat hamda to'qimachilik sanoatiga e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligining imkoniyatlari ham yuqori bo'lib, respublikaning boshqa mintaqalariga nisbatan o'rtacha xarorati yuqori hamda quyoshli kunlari ko'p viloyat.

2.1.4-jadval

**Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida aholi jon boshiga yaratilgan sanoat mahsulotlarining mintaq
oʻrtacha koʻrsatkichiga nisbatan dinamikasi, foizda⁸⁹**

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	Oʻrtach a
Surxondaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Oltinsoy	26,9	21,7	25,2	24,5	24,1	20,8	48,8	36,4	27,3	22,4	35,0	41,6	35,8	30,0
Angor	102,8	93,2	93,9	91,8	98,4	93,7	87,3	57,5	59,3	43,0	34,0	58,6	41,9	73,5
Bandixon											4,7	31,6	61,5	32,6
Boysun	53,6	48,2	52,2	54,2	53,9	54,2	48,2	48,5	39,4	37,5	36,2	34,5	35,7	29,5
Muzrabod	112,2	100,1	91,1	83,9	80,7	72,6	63,6	53,0	41,1	34,5	63,8	72,9	68,7	92,9
Denov	83,2	91,0	84,4	84,2	83,0	92,4	98,5	106,5	91,2	75,5	107,8	44,4	38,4	76,4
Jarqoʻrgʻon	212,7	221,3	223,8	230,5	215,7	224,4	210,1	235,7	248,6	247,3	211,7	178,1	171,2	140,8
Qumqoʻrgʻon	68,8	61,7	62,1	62,1	65,5	85,4	76,4	64,1	67,6	60,3	73,9	86,0	98,3	86,4
Qiziriq	84,2	77,4	77,3	76,4	72,6	70,3	54,1	46,8	54,3	40,9	67,3	80,9	66,7	113,7
Sariosiyo	72,5	68,3	69,1	73,0	84,1	85,6	78,4	80,3	97,8	157,3	62,9	136,4	134,6	43,3
Termiz	52,2	58,1	67,5	65,5	79,7	74,6	76,1	84,3	82,0	85,6	73,3	143,3	173,8	188,9
Uzun	53,3	54,7	55,6	55,2	61,0	59,9	56,7	52,5	55,9	33,5	27,4	65,6	67,0	82,1
Sherobod	118,0	105,9	96,6	95,5	94,7	81,2	59,2	63,6	64,9	110,3	107,1	115,4	109,3	201,3
Shoʻrchi	138,7	133,1	149,7	141,8	144,6	126,1	131,5	116,5	137,9	107,8	110,1	116,8	140,9	139,7
Termiz sh.	196,2	232,0	229,1	240,2	229,7	227,2	284,4	317,3	298,1	296,0	328,8	269,1	255,6	183,1

⁸⁹ Muallif hisob-kitoblari asosida toʻldirilgan.

Bu esa, sohaning investitsiya jozibadorligini yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa, mazkur mintaqada qishloq xo'jaligining investitsiya jozibadorligini oshirish uchun agrar infratuzilmani rivojlantirish lozim. Bunda, davlat-xususiy sherikchilik asosida agrologistikani tashkil etish, saqlash bilan bog'liq infratuzilma obyektlarini barpo etish zarur. Bu esa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molga yetkazishdagi uzulishlarni bartaraf etishga, sanoat uchun barqaror xom ashyoni ta'minlanishiga olib keladi. Mazkur tadbirlar natijasida tuman va shaharlarning investitsiyalarni jalb etish salohiyati ortadi hamda taqsimotni optimal tartibga solish imkoniyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilar o'z navbatida mintaqada xizmatlar sohasini rivojlanishiga olib keladi. Bu esa, sohaning joriy vaqtdagi ko'rsatkichlarini tahlil qilishni talab etmoqda. Jumladan, viloyatdagi aholi jon boshiga xizmatlar hajmini 1 yoki 100 foiz deb belgilaymiz.

Shuningdek, tumanlarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish uchun viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan baholaymiz. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan yuqori holat Termiz (571,0 foiz) shahriga va Denov (137,5 foiz) tumaniga to'g'ri kelgan. Shuningdek, qolgan tumanlardagi holat viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past holatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, Oltinsoy (52,7 foiz) va Uzun (52,1 foiz) tumanlariga eng past ko'rsatkichlar to'g'ri kelganligini aniqladik (2.1.6-jadval). Mazkur mintaqada tuman va shaharlar ichida eng yuqori va past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq 10,8 barobarga teng. fikrimizcha, asosiy yuqori ulush viloyat markazidagi shaharga tegishliligi mintaqadagi infratuzilma obyektlarining konsentratsiya darajasi bilan bog'liq. Mintaqaning xizmatlar hajmi mavjud salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, turizm salohiyatining yuqoriligini e'tiborga olsak, mazkur hududda xizmatlar hajmi pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi tuman va shaharlarning markazga yaqinligi hamda aholi zichligiga mutanosiblikni ifodalamoqda. Shuningdek, mazkur ko'rsatkich investitsiyalarga ham kuchli ta'sir etadi. Jumladan, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi investitsiya darajasiga ham ta'sir qilmoqda.

2.1.5-jadval

Surxondaryo viloyatida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi shahar va tumanlarning ulushi, jamiga nisbatan foizda⁹⁰

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O‘rtacha
Surxondaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Termiz sh.	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,3	0,3	0,1
<i>tumanlar:</i>														
Oltinsoy	7,6	7,3	7,6	7,3	8,0	7,7	7,7	7,3	5,0	5,8	4,8	4,8	4,6	6,6
Angor	5,9	6,2	6,2	5,9	5,9	6,1	6,0	6,0	6,2	5,5	5,5	5,5	5,8	5,9
Bandixon											3,1	3,2	3,2	3,1
Baysun	4,3	4,2	4,5	4,7	4,8	4,9	4,9	4,6	5,2	5,2	4,7	4,4	4,2	4,7
Muzrabot	6,0	5,7	5,9	6,3	6,2	5,8	6,4	7,2	6,1	6,9	7,5	7,2	7,4	6,5
Denov	14,7	15,4	15,4	15,0	14,9	15,0	14,8	16,6	16,7	15,6	15,4	15,6	15,7	15,4
Jarqo‘rg‘on	8,9	8,5	8,3	8,5	8,5	8,4	8,6	8,1	8,9	8,8	9,4	9,5	9,2	8,7
Qumqo‘rg‘on	9,9	9,3	9,7	10,3	10,2	10,0	9,9	9,6	10,2	10,8	10,6	10,7	10,3	10,1
Qiziriq	9,6	9,2	9,1	8,7	8,5	8,0	8,1	8,2	6,7	6,8	4,3	4,6	4,2	7,4
Sariosiyo	6,1	6,4	6,1	6,3	6,3	6,6	6,0	6,1	7,3	6,8	6,8	6,7	6,8	6,5
Termiz	4,5	4,2	4,2	4,5	4,4	4,5	4,8	4,6	4,7	5,3	5,5	5,3	5,2	4,7
Uzun	8,5	8,7	8,2	8,1	8,4	8,5	8,2	6,9	6,8	5,4	5,5	5,3	5,2	7,2
Sherobod	7,7	8,6	8,5	8,6	8,4	8,9	9,1	8,8	9,7	11,1	10,8	11,0	12,0	9,5

⁹⁰ Muallif hisob-kitoblari asosida to‘ldirilgan.

2.1.6-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida aholi jon boshiga yaratilgan xizmatlarining mintaqa o'rtacha

ko'rsatkichiga nisbatan dinamikasi, foizda⁹¹

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
Surxondaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Termiz sh.	581,2	594,9	485,3	501,4	712,1	703,5	692,7	718,2	713,6	470,1	421,1	419,6	409,4	571,0
Oltinsoy	52,1	47,6	55,9	53,6	45,4	48,2	57,1	64,2	43,2	48,9	57,3	52,1	58,9	52,7
Angor	62,0	60,0	66,4	66,4	54,4	58,3	64,2	68,3	55,4	83,0	81,8	75,5	85,6	67,8
Bandixon											0,7	0,7	0,5	0,6
Boysun	59,0	56,2	64,0	64,4	54,6	56,8	55,3	17,0	48,5	59,6	79,2	72,4	109,1	61,2
Muzrabot	52,6	52,7	59,9	59,2	44,9	46,6	45,4	37,1	68,7	53,1	71,8	73,9	83,5	57,6
Denov	124,7	120,0	136,1	134,4	118,8	115,2	112,2	197,9	316,1	126,0	99,6	99,8	86,3	137,5
Jarqo'rg'on	58,2	58,3	62,6	64,8	52,3	57,1	57,0	70,5	27,6	63,7	72,2	65,7	70,4	60,0
Qumqo'rg'on	55,1	51,6	60,1	59,4	47,9	48,3	49,2	76,5	39,2	63,6	68,3	100,1	68,7	60,6
Qiziriq	57,0	55,9	68,4	62,2	48,8	48,7	49,4	38,2	46,1	85,3	83,2	77,7	89,4	62,3
Sariosiyo	54,3	54,2	61,7	61,8	52,2	52,3	54,1	50,7	55,1	64,1	68,2	67,2	75,3	59,3
Termiz	64,0	70,8	80,3	82,1	66,3	61,0	68,6	85,3	66,5	122,9	145,8	135,3	151,5	92,4
Uzun	50,3	49,4	56,5	56,9	45,3	47,4	47,2	45,5	41,9	54,8	63,2	56,5	62,9	52,1
Sherobod	63,6	61,1	69,7	69,2	53,9	59,2	58,2	58,6	64,5	64,2	69,0	66,6	72,7	63,9

⁹¹ Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

Ya'ni, investitsiyaning viloyat tuman va shaharlari kesimida taqsimlanishida xizmatlar hajmiga mutanosiblik mavjud. Demak, investitsiyalar ko'lamini oshirish hamda ularni hududlarga jalb etishni tartibga solishda xizmatlarni ham kengaytirish zarur.

Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida investitsiyalarining taqsimlanishini baholaganimizda notekis taqsimotni aniqladik. Mazkur ko'rsatkichni aholi jon boshiga to'g'ri kelgan investitsiyalar hajmining viloyatdagi ko'rsatkichiga nisbatan shahar va tumanlarni o'zgarish dinamikasini baholadik.

Olingan natijalarni ifodalashicha, o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlar Termiz shahri (213,5 foiz), Boysun (334,4 foiz), Termiz (197,6 foiz), Sariosiyo (149 foiz) tumanlariga to'g'ri kelgan (2.1.7-jadval). O'rtachadan past tumanlar sifatida Bandixon (42 foiz), Denov (47,6 foiz), Uzun (45,5 foiz) tumanlarni ko'rsatamiz. Bu esa, viloyat hududlarini investitsiya salohiyatiga alohida e'tibor qaratishimizni talab etadi. Jumladan, davlat tomonidan mazkur hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga investitsiya kiritishimiz zarur. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni ham jalb etishni optimal tartibga solish zarur. Buning uchun esa, mintaqaning iqtisodiyot rivojlanishiga investitsiya hamda sohalarning ta'sirini baholaymiz.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda korrelyatsion-regression tahlilni ham olib bordik. Mintaqa iqtisodiyotida yaratilgan YaHM bilan xizmatlar (0,802), qishloq xo'jaligi (0,617), sanoat (0,481), qurilish (0,574), mehnat resurslari (0,728) ijobiy korrelyatsiya koeffitsiyentlariga ega bo'lgan (2.1.8-jadval). Shuningdek, xizmatlar sohasini tarkibiy tarmoqlari ham ijobiy bog'liqlikka ega bo'lmoqda. 2.1.8-jadvaldagi korrelyatsion koeffitsiyentlar asosida xulosa qilsak, mintaqa iqtisodiyoti real sektor tarmoqlariga nisbatan kuchsiz bog'liqlikni ifoda etmoqda. Xizmatlar sohasi va uning tarmoqlariga esa yuqori bog'liqlik to'g'ri kelgan. Demak, mintaqada iqtisodiy salohiyatni oshirish, uning investitsiya jozibadorligini rivojlantirishda sanoat, qurilish kabi tarmoqlarni ham kengaytirishimiz talab etiladi. Shu bois, ularning iqtisodiyotga omilli ta'sirini ham alohida baholaymiz.

2.1.7-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida aholi jon boshiga investitsiyalarning mintaqa o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan dinamikasi, foizda⁹²

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
Surxondaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Termiz sh.	113,5	162,6	168,2	245,4	219,9	240,7	212,0	348,9	288,6	158,5	177,9	195,3	243,9	213,5
Oltinsoy	73,4	69,2	66,9	74,7	72,9	70,4	64,3	51,5	50,7	32,8	51,8	42,7	36,8	58,3
Angor	57,2	60,1	58,6	79,3	86,1	83,0	89,1	74,3	68,1	30,2	40,5	71,7	93,1	68,6
Bandixon										12,6	23,5	56,1	76,0	42,0
Boysun	316,6	186,1	183,8	190,0	204,2	203,7	202,4	163,5	161,8	1036,0	743,2	318,8	437,5	334,4
Denov	37,2	39,8	43,8	47,4	50,3	49,1	49,6	39,5	37,5	32,5	43,9	74,0	74,6	47,6
Jarqurg'on	85,4	85,6	86,8	116,9	115,0	113,2	112,9	90,3	103,6	66,8	72,2	50,1	67,2	89,7
Qiziriq	53,8	93,9	91,8	104,1	99,5	95,1	94,3	69,0	82,3	39,8	40,3	67,2	53,3	75,7
Qumqurgon	75,3	69,6	72,0	77,7	76,9	77,2	75,4	74,0	44,8	23,9	38,6	51,7	44,0	61,6
Muzrabot	57,3	61,7	64,2	79,2	77,8	75,6	74,4	56,6	55,1	52,0	61,4	85,9	54,3	65,8
Sariosiyo	195,4	144,8	139,9	155,7	149,6	147,6	149,9	129,6	145,3	114,8	97,4	228,0	139,0	149,0
Termiz	118,9	128,0	136,2	188,6	207,3	213,7	243,3	186,3	165,3	199,2	291,6	241,5	249,5	197,6
Uzun	46,8	43,3	43,9	58,5	59,3	58,4	61,0	44,5	29,9	27,4	38,2	44,0	36,2	45,5
Sherobod	51,3	60,3	59,2	70,1	77,2	76,7	80,7	185,2	268,8	46,4	87,9	84,5	67,7	93,5

⁹² Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

2.1.8-jadval

Surxondaryo viloyatida yaratilgan YaHM va unga ta'sir qiluvchi omillarning korrelyatsion bog'liqligi⁹³

<i>Ko'rsatkich nomi</i>	<i>Y</i>	<i>X 2</i>	<i>X 3</i>	<i>X 4</i>	<i>X 5</i>	<i>X 6</i>	<i>X 7</i>	<i>X 8</i>	<i>X 9</i>	<i>X 10</i>	<i>X 11</i>	<i>X 12</i>	<i>X 13</i>
Y	1												
X 2	0,999	1											
X 3	0,752	0,727	1										
X 4	0,617	0,633	0,133	1									
X 5	0,601	0,580	0,809	-0,062	1								
X 6	0,481	0,475	0,492	0,059	0,544	1							
X 7	0,574	0,553	0,774	-0,022	0,949	0,265	1						
X 8	0,802	0,797	0,727	0,114	0,548	0,454	0,500	1					
X 9	0,582	0,567	0,772	-0,071	0,451	0,273	0,451	0,863	1				
X 10	0,756	0,763	0,440	0,338	0,437	0,348	0,419	0,740	0,449	1			
X 11	0,766	0,771	0,477	0,241	0,497	0,562	0,391	0,828	0,472	0,649	1		
X 12	0,728	0,732	0,539	0,517	0,445	0,097	0,524	0,547	0,499	0,503	0,433	1	
X 13	-0,373	-0,377	-0,133	-0,541	0,124	0,423	0,244	-0,143	-0,013	-0,385	-0,139	0,118	1
Izoh:													
Omil nomi	YaHMning o'sish sur'ati	Tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatining o'sish sur'ati	Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sish sur'ati	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sish sur'ati	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) ning o'sish sur'ati	Sanoat ning o'sish sur'ati	Qurilishning o'sish sur'ati	Xizmatlarning o'sish sur'ati	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati	Tashish va saqlash, axborot va aloqaning o'sish sur'ati	Boshqa xizmat tarmoqlarining o'sish sur'ati	Mehnat resurslarining o'sish sur'ati	Investitsiyaning o'sish sur'ati
Belgisi	Y	X 2	X 3	X 4	X 5	X 6	X 7	X 8	X 9	X 10	X 11	X 12	X 13

⁹³ Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

2.1.8-jadvalga ko‘ra, jumladan, iqtisodiyot rivojlanishiga tarmoqlar ta‘sirini omilli baholashda regression tenglama tuzamiz:

$$YaHM_t = a_1 QX_t + a_2 SAN_t + a_3 QUR_t + a_4 XIZ_t + \varepsilon_t \quad (2.1)$$

Bunda: $YaHM_t$ – mintaqada yaratilgan $YaHM$ ning o‘shish sur‘ati; QX_t – mintaqadagi qishloq xo‘jaligining o‘shish sur‘ati; SAN_t – mintaqadagi sanoatning o‘shish sur‘ati; QUR_t – mintaqadagi qurilishning o‘shish sur‘ati; XIZ_t – xizmatlarning o‘shish sur‘ati; $a_1, a_2, a_3, a_4, \varepsilon_t$ – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tarmoqlarning barchasi ijobiy ta‘sirga egaligini aniqladik. Shunday bo‘lsada, qishloq xo‘jaligi (0,504) hamda xizmatlar (0,351) yuqori ta‘sirchanlik koeffitsiyentiga, sanoat (0,103) va qurilish (0,062) nisbatan kuchsiz ta‘sirchanlikka ega bo‘lgan (2.1.1-ilova):

$$YaHM_t = 0,504 * QX_t + 0,103 * SAN_t + 0,062 * QUR_t + 0,351 * XIZ_t - 1,943 \quad (2.2)$$

Soha va tarmoqlar intensivlik ta‘sirchanligini baholaymiz. Buning uchun olingan regressiya koeffitsiyentlarining yig‘indisini aniqlaymiz va uning qiymati 1,02 ga teng. Bu esa, iqtisodiyotda sohalar ta‘sirchanligi 1 dan yuqori bo‘lsada, nisbatan samaradorligi past tarmoqlarning hissasi yuqoriligini ifodalamoqda. Shu bois, mintaqada sanoat ulushini oshirishga, qishloq xo‘jaligi sohasini kapitallashuv darajasini oshirishga e‘tibor qaratishni talab qiladi. Ya‘ni, innovatsion iqtisodiyot rivojlanishini baholashimiz lozim. Mazkur jarayon ishchi kuchining qobiliyati va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq.

Shu bois, mintaqqa iqtisodiyotiga mehnat va investitsiya omili ta‘sirini ham alohida baholaymiz:

$$YaHM_t = b_1 MEH_t + b_2 INV_t + \gamma_t \quad (2.3)$$

Bunda: MEH_t – mintaqadagi mehnat resurslarining o‘shish sur‘ati;

INV_t – mintaqadagi investitsiyalarning o‘shish sur‘ati;

b_1, b_2, γ_t – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz orqali quyidagi regressiya tenglamasini hosil qildik (2.1.2-ilova):

$$YaHM_t = 1,773 * MEH_t - 0,048 * INV_t - 68,2 \quad (2.4)$$

Olingan regressiya koeffitsiyentlarini ifodalashicha, mehnat resurslarining 1 foizga o'sishi YaHMning 1,77 foizga oshirmoqda. Investitsiyalar esa, YaHM o'sishi bilan kuchsiz teskari bog'liqlikka ega bo'lmoqda. Bu esa, investitsiyalarni iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ta'minlash uchun tarmoqlar hamda hududlar kesimida jalb qilishni hamda taqsimlashni tartibga solishni talab qiladi. Demak, ekonometrik tadqiqotlarimiz asosida olingan regressiya koeffitsiyentlarining umumiy ta'sirchanlik darajasi 1,725 birlik bo'lib, mehnat omilining intensivligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotda kapital intensivlik o'zgarishi nisbatan sekin yuz berayotgan bo'lsada, ishchi kuchining iqtisodiy o'sishga ta'siri yuqori bo'lmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi va xizmatlarning ta'siri yuqori ekanligini tadqiqotlarimiz orqali aniqladik. Shunday bo'lsada, mazkur tarmoqlar sanoat va qurilishga nisbatan samaradorligi pastligicha qolmoqda. Bu esa, iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi va xizmatlarning ulushi 80 foizdan ortiqligini e'tiborga olsak, mintaqada umumiy samaradorlik pastligini ifodalaydi. Ayniqsa, samaradorlik darajasi investitsiyalar ko'lamiga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalarni soha va tarmoqlar kesimida taqsimlanishini tahlil qilganimizda yuqori salmoqqa sanoat hamda xizmatlar ega bo'lmoqda. Bu esa, iqtisodiyotda eng katta ulushga ega qishloq xo'jaligida investitsiyalar yetarlicha yo'naltirilmaganligini ifodalaydi. Huddu shu yo'nalishdagi muammolar hududlar kesimida ham mavjud. Shu bois, mintaqada investitsiyalarni tarmoq va hududlar kesimida jalb etishni optimal tartibga solishni talab etmoqda. Bunda quyidagi chora-tadbirlarni mintaqaning xususiyatlarini hisobga olib taklif qilamiz:

qishloq xo'jaligi tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish;

sanoatning qazib olish tarmoqlari kabi qayta ishlash va oziq-ovqat hamda to'qimachilik tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'lamini oshirish;

xizmatlar sohasining samaradorligi yuqori tarmoqlariga investitsiya jalb qilish;

hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini yetakchiligini e'tiborga olib, agrologistika va infratuzilmani davlat-xususiy sherikchilik asosida rivojlantirish;

hududlar kesimida investitsiya jalb qilishda tabiiy resurslarga boy tumanlar qatori boshqa tumanlarga ham hududlararo loyihalar uchun investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim.

Umumiy holda, mintaqada investitsiya jozibadorligi hamda salohiyati ortadi hamda investitsiyalarni jalb etish ko'lami kengayadi. Bunda, investitsiyalarning soha va tarmoqlar hamda mintaqaning shahar va tumanlari kesimida taqsimlashning optimal bozor mexanizmlari shakllanadi.

2.2. Mintaqada jalb etilgan investitsiyalar manbalarini klaster usulida guruhlash va tartibga solish tahlili

Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar yildan-yilga o'sib bormoqda. Shunday bo'lsada, shahar va tumanlar kesimida bir-biridan keskin farqlanish mavjud. Shuningdek, yillar kesimida notekis o'zgarishlarga ega bo'lmoqda. Mazkur ko'rsatkichlarni iqtisodiy-statistik tahlil qilish orqali mintaqaning barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqamiz.

Jumladan, viloyatga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2010-2022 yillardagi real hajmining o'rtacha o'sish sur'ati 113,6 foizga teng bo'lgan. Shuningdek, 2010, 2014, 2020 va 2022 yillarda salbiy o'sish kuzatilgan. Mazkur holatning birinchi sababi, mintaqada qazib olish sanoatining rivojlanishi hisobiga ushbu yo'nalishda kiritilgan investitsiyalar hajmining avvalgi yillarga nisbatan keskin o'sishi hisobiga manbalaridagi notekis o'zgarish hisobiga yuz bergan. Ya'ni, xorijiy investitsiyalarning ulushi 2019 yilda 2018 yildagi 21,4 foizdan keskin 66,3 foizga o'sgan bo'lsa, 2020 yilda 60,1 foizgacha pasaygan. Huddi shunday holat bank va aholi mablag'lari manbasida ham kuzatilgan bo'lib, uning ulushi 2019 yildagi 11,1 foizdan 2020 yilda 7,6 foizga pasaygan. Shu bilan birga, mazkur davrda koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri ham yuz bergan. Shuni alohida ta'kidlaymizki, investitsiyalarning o'sish sur'ati 2016 yildagi 107,6 foizdan 2017 yilga kelib keskin o'sib 148,4 foizni ifodalagan hamda 2018-2019 yillarda yuqori o'sish kuzatilgan.

Yuqoridagilar qatori mintaqaning shahar va tumanlarida ham 2010-2022 yillarda oʻrtacha ijobiy oʻsish kuzatilgan. Jumladan, eng yuqori oʻrtacha oʻsish surʼatlari Bandixon va Boysun (161,7 foiz) tumanlarida aniqlandi. Nisbatan past oʻrtacha oʻsish surʼatlari Oltinsoy (106,8 foiz), Qumqoʻrgʻon (107,8 foiz), Uzun (108,6 foiz), Qiziriq (109,4 foiz) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda. Past koʻrsatkichlar toʻgʻri kelgan tumanlardagi holatni omilli tadqiq etganimizda ikki jihatni aniqladik. Birinchidan, ushbu tumanlar asosan qishloq xoʻjaligi sohasiga ixtisoslashgan. Jumladan, sanoat va xizmatlar sohasining ulushi oʻta past qiymatlarga ega. Ikkinchi sabab esa, infratuzilmaning rivojlanmaganligi hisoblanadi. Shu bois, mazkur hududlarda davlat xorijiy sherikchilik asosida infratuzilmani, ayniqsa, agrologistika tizimini rivojlantirish lozim.

Shuningdek, investitsiyalar koʻlamini, ularning taqsimotini optimallashtirish hamda rivojlantirish uchun tumanlar kesimidagi hissalarini ham alohida baholaymiz. Jumladan, viloyatdagi investitsiyalar koʻlamini 100 foiz deb olsak, unga shahar va tumanlarning qoʻshgan hissasi notekis oʻzgarib borgan. Yuqori koʻrsatkichlar Boysun (15 foiz), Sariosiyo (11,7 foiz) tumanlariga hamda Termiz (13,2 foiz) shahriga toʻgʻri kelgan. Nisbatan, past ulushlar esa Angor (3,5 foiz), Muzrabot (3,5 foiz), Uzun (3,0 foiz), Shoʻrchi (3,3 foiz) tumanlarida aniqladik (2.2.1-jadval).

Mazkur holat omilli tahlil qilinganda yuqori bogʻliqlik infratuzilma ekanligini aniqladik. Shuningdek, ushbu hududlar viloyat markazidan uzoqligi hamda nisbatan rivojlanish darajasi past tumanlar hisoblanadi. Avvalgi paragrafda koʻrib oʻtganimizdek, aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan sanoat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari boʻyicha mazkur tumanlar oʻrtacha viloyat koʻrsatkichidan ortda qolmoqda. Demak, tumanlar kesimida investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

tumanlar xususiyatiga mos va mavjud xom ashyoni qayta ishlovchi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish;

agroinfratuzilma obyektlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga davlat investitsiyalarini kengaytirish;

ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;

hududlarni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish.

2.2.1-jadval

Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalardagi shahar va tumanlarning hissasi, foizda⁹⁴

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	7,2	10,0	10,2	14,6	12,9	14,0	12,3	20,0	16,4	10,9	12,1	13,4	16,9	13,2
Oltinsoy	4,9	4,6	4,4	5,0	4,9	4,7	4,3	3,4	3,4	2,2	3,5	2,9	2,5	3,9
Angor	2,9	3,0	3,0	4,0	4,3	4,2	4,5	3,7	3,4	1,5	2,0	3,6	4,7	3,5
Bandixon										0,4	0,7	1,6	2,2	1,2
Boysun	14,7	8,5	8,4	8,7	9,4	9,4	9,3	7,5	7,4	45,6	32,6	13,9	19,0	15,0
Denov	5,7	6,0	6,6	7,1	7,5	7,4	7,4	5,9	5,5	4,8	6,4	10,8	10,9	7,1
Jarqurg'on	7,1	7,2	7,3	9,7	9,6	9,4	9,4	7,5	8,6	5,5	6,0	4,1	5,6	7,5
Qiziriq	3,5	6,0	5,9	6,7	6,4	6,2	6,1	4,5	5,4	1,7	1,8	2,9	2,3	4,6
Qumqurg'on	6,6	6,1	6,3	6,9	6,8	6,8	6,7	6,5	4,1	2,1	3,4	4,6	3,9	5,5
Muzrabot	3,1	3,3	3,4	4,3	4,2	4,1	4,0	3,1	3,0	2,8	3,3	4,6	2,9	3,5
Sariosiyo	15,6	11,2	10,9	12,1	11,7	11,5	11,7	10,1	11,4	9,1	7,7	18,1	11,0	11,7
Termiz	5,0	5,3	5,6	7,8	8,5	8,8	10,0	7,7	6,8	5,8	8,6	7,1	7,3	7,2
Uzun	3,2	2,9	2,9	3,9	4,0	3,9	4,1	3,0	2,0	1,8	2,5	2,9	2,4	3,0
Sherobod	3,8	4,4	4,4	5,2	5,7	5,6	5,9	13,6	19,8	3,4	6,5	6,2	5,0	6,9
Sho'rchi	3,3	3,2	3,1	4,0	4,1	4,0	3,8	3,3	2,8	1,9	2,9	3,2	3,5	3,3

⁹⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

Shu bilan birga, mintaqa hududlarida investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishda manbalari va ularning o'ziga xos xususiyatlariga ham to'xtalamiz. Bunda, dastlab mintaqaga jalb etilgan investitsiyalar manbalaridagi eng yuqori ulushga ega korxona mablag'lari hissasini baholaymiz. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Termiz shahri (31,3 foiz), Bandixon (39,0 foiz), Termiz (40,4 foiz), Sherobod (39,8 foiz) tumanlaridan boshqa hududlarda 50 foiz va undan yuqori holat aniqlandi. Yuqori ulush kuzatilgan hududlarda boshqa manbalarni jalb etish mexanizmining yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi (2.2.2-jadval). Demak, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qolgan manbalarini ham baholaymiz.

Shuningdek, mintaqa hududlarining investitsiya salohiyatini oshirishda davlat budjeti mablag'lari muhim o'rin tutadi. Mazkur manba investitsiya ko'lamini ikki yo'nalishda o'sishiga hamda jalb qilishni optimal tartibga solishda dolzarb rol o'ynaydi.

Jumladan, birinchi yo'nalish bo'yicha investitsiya mintaqada kapital hajmiga hissa qo'shadi va uning ko'lamini oshiradi. Bu ayniqsa, investitsiya jalb etish nisbatan ortda qolgan hududlar uchun zarurdir. Ikkinchi yo'nalishda, davlat investitsiyasi xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun rag'batlantirish vazifasiga ega hisoblanadi. Chunki, tahlillar natijasini ko'rsatishicha, davlat budjetidan yo'naltirilgan investitsiyalar xorijiy investitsiya hamda bank va aholi mablag'lari ko'lami bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lgan. Shu bilan birga, davlat budjeti investitsiyalarining yuqori davrida mintaqadagi infratuzilmaning ham mutanosib rivojlanishi ta'minlangan. Shunday bo'lsada, mazkur manbaning samaradorlik ta'siri iqtisodiyotda miqdoriy ta'siriga nisbatan ortda qoladi. Buning asosiy sababi, davlat doim ham samaradorligi yuqori yoki iqtisodiy nafliligiga muvofiq investitsiya faoliyatini amalga oshirmaydi. Aksincha, ijtimoiy nafga ham e'tibor qaratadi. Jumladan, tumanlarda amalga oshirilayotgan "obod mahalla", "obod qishloq" dasturlari, "ayollar daftari", "temir daftar", "yoshlar daftari" kabilarga yo'naltirilgan mablag'lar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, aholiga munosib hayot tarzini tashkil qilish uchun ajratilayotgan subsidiyalarni ham sanab o'tishimiz mumkin.

2.2.2-jadval

Surxondaryo viloyati hududlariga kiritilgan investitsiya manbalaridagi korxona mablagʻlari ulushi, foizda⁹⁵

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	34,0	37,1	30,3	20,5	30,9	28,0	19,2	35,5	33,0	29,9	27,7	33,5	46,8	31,3
Oltinsoy	57,9	48,2	51,1	61,2	85,3	75,7	72,3	76,9	34,7	23,8	54,5	33,9	42,4	55,2
Angor	61,2	62,6	58,3	65,3	61,0	70,6	67,5	62,2	36,9	36,8	39,2	26,4	24,5	51,7
Bandixon	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	53,0	37,5	26,6	39,0
Boysun	25,4	57,3	42,7	29,6	36,4	39,9	28,3	47,9	31,5	2,0	4,7	11,0	8,1	28,1
Denov	64,4	67,1	73,4	75,0	74,7	73,3	73,4	68,8	42,5	35,3	42,6	30,6	34,2	58,1
Jarqurgʻon	66,6	66,4	64,9	72,3	76,7	75,9	66,9	51,3	33,2	18,3	58,4	45,9	47,1	57,2
Qiziriq	58,8	62,5	51,3	65,5	67,8	71,2	77,7	76,9	50,7	31,1	29,1	23,2	26,6	53,3
Qumqurgʻon	71,3	73,6	76,7	67,5	80,4	77,5	78,3	65,0	48,1	30,6	26,0	22,3	34,1	57,8
Muzrabot	61,5	51,3	45,7	47,9	70,9	77,5	72,1	62,0	36,4	25,1	33,4	29,5	48,5	50,9
Sariosiyo	27,4	82,3	83,3	79,2	78,3	81,1	80,6	57,1	20,0	26,1	20,5	33,0	21,1	53,1
Termiz	45,0	50,4	52,6	29,5	51,0	45,9	43,8	54,0	40,1	19,7	28,0	30,7	34,6	40,4
Uzun	69,2	65,1	66,0	57,4	74,3	69,7	81,0	66,4	65,9	33,5	30,6	32,0	35,9	57,5
Sherobod	42,9	54,4	48,0	44,1	47,8	53,4	51,0	19,6	29,2	25,4	21,9	35,2	44,3	39,8
Shoʻrchi	49,6	59,7	63,4	57,8	72,5	62,5	74,0	64,6	59,6	37,3	26,7	39,2	40,6	54,4

⁹⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida toʻldirilgan.

Mazkur manbaning viloyat hududlari bo'yicha yuqori ulushi Termiz shahri (16,4 foiz), Oltinsoy (12 foiz), Bandixon (26,8 foiz) tumanlariga to'g'ri kelgan (2.2.3-jadval). Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Boysun (2,0 foiz), Denov (5,4 foiz), Sariosiyo (2,8 foiz) tumanlariga mos kelgan.

Yuqori ulushga ega hududlarni joriy vaqtda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining qabul qilinganligi bilan asoslaymiz. Davlat budjeti investitsiyalari past ulushga ega tumanlarda real hajmi o'suvchi holatga ega bo'lsada, qisqarish sababi - investitsiyaning qolgan manbalarining yuqori ulushlari bilan asoslaymiz. Ya'ni, mazkur tumanlar tabiiy resurslarga boy hududlar hisoblanib, ushbu mintaqalarga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya hamda tijorat banklari mablag'lari hissasi yuqoridir.

Shu bois, mintaqaga jalb etilgan investitsiyalarning manbalaridagi xorijiy manblarni tadqiq etamiz. Jumladan, xorijiy investitsiyalarning yuqori ulushi Boysun (53,2 foiz), Termiz (27,7 foiz), Sherobod (24,7 foiz) tumanlariga va Termiz (24,2 foiz) shahriga to'g'ri kelmoqda. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Oltinsoy (12,7 foiz), Uzun (12,3 foiz), Denov (13 foiz) tumanlariga tegishli ekanligini aniqladik. Shunday bo'lsada, oxirgi yillarda shahar va tumanlarda xorijiy mablag'larning investitsiyalardagi ulushi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan (2.2.4-jadval). Ya'ni, 2019-2022 yillar davomida eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumaniga tegishli bo'lgan va 20 foizni tashkil qilgan.

Demak, tuman va shaharlardagi investitsion faollik o'smoqda. Shunday bo'lsada, hanuz disproporsiya yuqoriligicha qolmoqda. Ya'ni, eng yuqori va past ko'rsatkichga ega hududlar o'rtasidagi farqlanish 4 barobar hamda undan ham yuqori qiymatlarga ega hisoblanadi. Bu esa, investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishni takomillashtirishning muhimligini ifodalaydi. Buning uchun, Surxondaryo viloyatida xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qilish zarur. Xorijiy tajribalarda yuqori samara bergan usul va yo'l erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish hamda kengaytirishdan iborat.

2.2.3-jadval

Surxondaryo viloyati hududlariga kiritilgan investitsiya manbalaridagi davlat budjeti mablagʻlari ulushi, foizda⁹⁶

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	28,7	23,5	9,2	7,0	12,9	7,8	37,3	19,7	9,4	10,5	16,7	16,5	13,7	16,4
Oltinsoy	28,7	18,2	9,5	4,8	5,7	5,9	5,8	11,0	2,8	15,4	9,0	15,8	22,8	12,0
Angor	13,7	11,6	5,9	4,2	4,7	1,4	2,3	3,1	1,8	14,0	27,9	11,9	5,8	8,3
Bandixon	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	10,4	39,4	30,5	26,8
Boysun	0,7	2,9	0,4	4,6	2,2	2,3	2,6	0,7	2,3	1,0	1,5	2,4	1,9	2,0
Denov	19,3	9,1	1,3	2,2	0,8	1,5	3,1	7,6	2,6	11,5	10,6	14,0	28,1	8,6
Jarqurgʻon	7,6	9,2	3,9	1,1	3,6	3,8	3,9	1,7	2,6	5,8	8,1	11,9	6,8	5,4
Qiziriq	19,5	8,2	1,4	3,2	2,6	2,6	3,1	5,4	1,4	12,3	19,4	17,1	16,4	8,7
Qumqurgʻon	14,2	7,2	2,3	3,7	3,1	3,6	4,2	2,9	5,3	17,5	12,6	8,7	15,4	7,7
Muzrabot	19,9	4,4	1,7	7,7	5,1	4,6	5,5	14,4	3,0	6,1	7,9	11,0	12,5	8,0
Sariosiyo	0,5	2,3	0,8	1,7	4,0	2,0	2,3	2,3	0,7	2,1	5,8	3,2	8,9	2,8
Termiz	4,8	25,2	14,3	2,3	2,9	2,4	3,1	2,3	3,3	10,0	4,9	10,1	9,5	7,3
Uzun	15,7	7,0	1,0	1,6	1,7	2,1	2,1	4,5	1,2	10,7	7,6	19,1	22,3	7,4
Sherobod	15,7	15,1	1,4	3,0	0,6	0,7	1,3	1,9	0,7	7,8	6,8	17,5	12,5	6,5
Shoʻrchi	15,3	5,4	4,2	8,9	3,0	4,0	4,2	9,5	2,3	13,4	13,0	12,6	10,7	8,2

⁹⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida toʻldirilgan.

2.2.4-jadval

Surxondaryo viloyati hududlariga kiritilgan investitsiya manbalaridagi xorijiy mablag‘lar ulushi, foizda⁹⁷

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	27,8	29,6	27,0	38,3	15,1	12,5	8,1	12,8	18,0	26,0	40,8	33,2	25,3	24,2
Oltinsoy	11,3	10,6	1,9	0,7	0,0	0,1	0,0	0,0	3,3	49,5	28,5	29,8	30,0	12,7
Angor	9,2	8,6	19,1	5,4	19,9	17,0	10,1	15,1	15,6	25,5	19,8	41,7	59,4	20,5
Bandixon	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	26,3	9,8	34,4	23,5
Boysun	28,1	7,6	30,1	39,1	51,1	46,9	38,8	40,2	47,9	95,3	93,4	83,6	89,2	53,2
Denov	6,2	1,4	1,0	0,9	3,6	3,1	0,4	2,7	2,8	34,0	40,9	42,0	30,3	13,0
Jarqurg‘on	7,0	17,5	11,7	1,6	3,9	3,3	3,8	23,9	24,5	54,2	20,8	27,2	28,7	17,5
Qiziriq	6,3	14,8	14,6	6,3	0,0	0,1	0,0	0,0	0,7	40,5	33,2	51,5	38,4	15,9
Qumqurg‘on	2,5	5,2	3,5	2,1	3,6	3,0	5,9	22,0	22,2	28,5	41,9	55,5	42,8	18,4
Muzrabot	3,7	21,0	15,2	8,3	2,8	0,1	0,0	0,0	37,6	62,7	43,5	50,8	33,7	21,5
Sariosiyo	0,1	0,6	7,2	0,9	0,0	0,1	0,0	0,0	41,9	49,5	68,2	34,0	19,4	17,1
Termiz	11,5	5,3	15,7	29,4	20,3	14,4	27,7	18,6	36,8	46,7	40,5	52,5	40,2	27,7
Uzun	1,5	0,9	0,0	1,4	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	46,7	52,4	33,8	23,5	12,3
Sherobod	1,8	0,4	11,2	7,9	31,7	26,3	19,3	4,1	13,1	60,7	67,0	38,5	39,1	24,7
Sho‘rchi	10,5	6,6	9,7	2,4	0,0	0,1	0,0	0,0	0,3	31,3	49,6	40,1	44,0	15,0

⁹⁷ Muallif hisob-kitoblari asosida to‘ldirilgan.

Shu bilan birga, xorijiy kapital kabi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tarkibida banklar va aholi mablag'lari ham muhim manba hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichning yuqori darajasi Termiz shahri (19,4 foiz) hamda Termiz tumaniga (17,1 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, past holat Boysun tumaniga (6,6 foiz) tegishli (2.2.5-jadval). Mazkur holatda yuqori ko'rsatkichlarni ifodalashda ikki jihatni ko'rsatib o'tamiz. Jumladan, mazkur hududlarda aholi daromadlari hamda ularga to'g'ri kelgan ishlab chiqarish ko'lami boshqa tumanlarga qaraganda yuqori hisoblanadi. Ikkinchi muhim jihat esa, mazkur tuman va shaharlarda mavjud infratuzilma obyektlari, xususan tijorat banklari soni qolgan tumanlarga qaraganda yuqoridir. Demak, investitsiyalarni jalb etish hamda hududlar darajasida optimal taqsimlashda ulardagi investitsiya salohiyati hamda jozibadorligini oshirish muhim sanalar ekan.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida xulosa qilsak mintaqa hududlarida mavjud infratuzilma, aholi daromadlari hamda tabiiy resurslar farqlanishi o'z navbatida investitsiyalarning ham notekis taqsimlanishiga sabab bo'lgan. Bu esa, hududlarni investitsiya salohiyatini oshirishga, ularning jozibadorligini rivojlantirishga e'tibor qaratishni talab etmoqda. Bunda, viloyatning chegara hududlardagi joylashganligi, siyosiy omillar ta'siri yuqoriligiga ham e'tibor berishimiz lozim. Mazkur masalalarni ijobiy hal etish uchun erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish zarur. Ayniqsa, xalqaro tajribalarga muvofiqlikda yaratilgan imtiyozlarni maksimal darajada berilishi lozim. Chunki, Yevropa, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarda erkin iqtisodiy zonalar asosan chegara hududlarda hamda mamlakatning chekka viloyatlarida tashkil etiladi. Bu tajriba Surxondaryo viloyati uchun mos keladi.

Mintaqada investitsiyalar va ularning manbalari bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarni baholaymiz. Amalga oshirilgan tahlillarimizni ifodalashicha, investitsiyalarning hududlardagi ulushi bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarning ijobiy jihatlari Bandixon (0,075), Boysun (0,129), Sherobod (0,120) tumanlaridan tashqari shahar va tumanlarga mos kelgan (2.2.6-jadval).

2.2.5-jadval

Surxondaryo viloyati hududlariga kiritilgan investitsiya manbalaridagi tijorat banklari va aholi mablagʻlari ulushi, foizda⁹⁸

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	5,5	7,6	11,9	19,1	32,7	31,7	27,1	15,6	30,7	31,6	13,7	12,9	12,6	19,4
Oltinsoy	1,9	20,8	27,4	18,8	6,9	10,4	9,9	9,9	15,4	8,4	7,1	18,6	4,8	12,3
Angor	12,0	12,6	12,4	15,8	7,7	6,8	12,4	13,6	40,1	20,7	8,9	15,9	9,3	14,5
Bandixon	x	X	x	x	x	x	x	x	x	x	7,8	11,6	8,2	9,2
Boysun	3,3	14,2	7,9	18,3	5,2	4,4	3,3	9,6	14,4	1,4	0,3	2,5	0,5	6,6
Denov	9,9	16,3	18,1	16,1	14,2	13,9	12,1	9,1	46,9	18,1	4,3	7,0	4,8	14,7
Jarqurgʻon	17,7	4,7	10,1	13,0	10,3	10,7	23,2	20,7	33,6	20,7	12,1	11,7	14,4	15,6
Qiziriq	11,0	8,8	28,6	16,7	16,5	15,8	8,9	12,7	33,3	12,1	17,3	7,5	18,4	16,0
Qumqurgʻon	8,0	8,9	5,7	12,5	9,9	8,5	7,6	8,9	18,8	19,3	17,1	11,0	6,8	11,0
Muzrabot	14,9	14,7	26,9	30,5	12,5	10,7	14,6	12,3	13,9	4,9	11,9	4,9	5,3	13,7
Sariosiyo	31,5	11,7	5,5	15,3	15,6	11,3	10,9	5,9	34,4	20,5	4,2	3,1	10,4	13,9
Termiz	19,0	15,8	14,8	14,6	10,5	29,1	21,7	21,7	10,6	22,3	25,6	5,8	10,6	17,1
Uzun	12,0	17,0	13,8	31,4	14,0	19,7	9,9	24,7	25,3	6,2	6,6	12,8	18,0	16,3
Sherobod	14,2	24,5	22,4	17,6	11,8	10,4	7,7	17,2	33,0	4,7	1,6	3,0	3,9	13,2
Shoʻrchi	23,3	23,4	8,8	19,6	9,8	22,8	14,7	20,4	29,6	15,3	10,2	6,6	4,6	16,1

⁹⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida toʻldirilgan.

**Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida klasterli yondashuv asosida
aniqlangan tarkibiy siljishlar⁹⁹**

Hududlar nomi	Investitsiyaning hududlardagi ulushi bo'yicha	Korxona o'z mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Tijorat banklari va aholi mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Xorijiy mablag'larning investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Davlat budjeti mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha
Termiz sh.	0,018	0,021	0,042	0,034	0,109
Oltinsoy	0,009	0,026	0,112	0,162	0,087
Angor	0,017	0,012	0,111	0,100	0,131
Bandixon	0,075	0,031	0,025	0,179	0,094
Boysun	0,129	0,069	0,221	0,027	0,192
Denov	0,015	0,009	0,183	0,071	0,159
Jarqurg'on	0,010	0,016	0,055	0,116	0,059
Qiziriq	0,025	0,014	0,118	0,104	0,081
Qumqurg'on	0,010	0,009	0,034	0,043	0,098
Muzrabot	0,010	0,014	0,065	0,075	0,162
Sariosiyo	0,027	0,035	0,171	0,094	0,192
Termiz	0,008	0,022	0,072	0,033	0,188
Uzun	0,009	0,013	0,094	0,116	0,133
Sherobod	0,120	0,019	0,119	0,086	0,125
Sho'rchi	0,006	0,010	0,079	0,087	0,098

Ya'ni, investitsiyalarning hududlardagi ulushi bir-biriga yaqin holatni ifodalagan. Shuningdek, korxona o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarni tadqiq qilganimizda o'zaro muvofiqlikni aniqladik.

Tijorat banklari va aholi mablag'lari bo'yicha olib borilgan tahlillarimiz hududlarning keskin farqlanishini ifoda etmoqda. Shuningdek, davlat budjeti mablag'lari farqlanishi Jarqo'rg'on tumanidan (0,059) boshqa hududlarning barchasida kuzitilgan. Shu bilan birga, ularning investitsiyalarni mintaqada jalb etishga ta'sirchanligini baholaymiz.

Jumladan, investitsiyaning hududlardagi ulushiga korxona o'z mablag'larining ta'siri yuqori bo'lib, tijorat banklari va aholi mablag'lari (0,40) hamda davlat budjeti (0,23) manbalari kuchsiz ijobiy ta'sirga ega.

⁹⁹ Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

2.1.7-jadval

**Surxondaryo viloyatida investitsiyalarning taqsimlanishiga ta'sir
qiluvchi omillarning korrelyatsion bog'liqligi¹⁰⁰**

<i>Ko'rsatkich</i>	<i>Y</i>	<i>X 1</i>	<i>X 2</i>	<i>X 3</i>	<i>X 4</i>
<i>Y</i>	1				
<i>X 1</i>	0,689712	1			
<i>X 2</i>	0,404781	0,519779	1		
<i>X 3</i>	-0,07025	-0,14112	-0,20321	1	
<i>X 4</i>	0,234401	0,451681	0,582309	-0,5209	1
<i>Izoh:</i>					
<i>Omil nomi</i>	Investitsiyaning hududlardagi ulushi bo'yicha	Korxona o'z mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Tijorat banklari va aholi mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Xorijiy mablag'larning investitsiyadagi ulushi bo'yicha	Davlat budjeti mablag'larining investitsiyadagi ulushi bo'yicha
<i>Belgisi</i>	Y	X 1	X 2	X 3	X 4

Shuningdek, korxona o'z mablag'lari bilan tijorat banklari hamda aholi mablag'lari (0,52) hamda davlat budjeti (0,45) o'rtasida ham ijobiy bog'lanishni aniqladik. Shuningdek, tijorat banklari va aholi mablag'lari hamda davlat budjeti o'rtasida ham ijobiy bog'lanishni mavjud (0,58). Xorijiy kapital bilan qolgan manbalar o'rtasida teskari kuchsiz bog'liqlik aniqlandi (2.2.7-jadval). Demak, davlat budjeti mablag'lari asosan mahalliy investitsiyalar ko'lamiga yuqori bog'liqlikni ifodalamoqda. Shuningdek, viloyatda investitsiyalarni jalb qilishda ustuvor manba korxona o'z mablag'lariga tegishli. Bu esa, viloyatning kichik biznes va tadbirkorlik salohiyati mavjudligini, uni rivojlantirishga e'tibor qilishni talab etadi. Jumladan, tadbirkorlikni dastlab mehnattalab sohalarga, xususan, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatiga e'tibor qilish zarur. bu tarmoqlarning kengayishi hisobiga qishloq xo'jaligining kapital bilan ta'minlanishi o'sadi hamda sanoatning kapitaltalab tarmoqlari rivojlanadi.

Shuningdek, yuqoridagilar asosida amalga oshirilgan korrelyatsion bog'liqlik orqali regressiya tahlilini ham amalga oshiramiz. Olingan natijalarni ifodalashicha quyidagi tenglikni ishlab chiqdik (2.2.1-ilova):

¹⁰⁰ Muallif hisob-kitoblari asosida to'ldirilgan.

$$InvHudTaqsim_t = 1,85 * HudKorUlush_t + 0,10 * HudTijBank_t - 0,03 * HudXorUlush_t - 0,17 * DavBudjUlush_t + 0,008 \quad (2.5)$$

(R2=70, F=2,45, PF=0,10)

Bunda: $InvHudTaqsim_t$ – viloyat tuman va shaharlariga kiritilgan investitsiyalarning jamidagi ulushi.

$HudKorUlush_t$ – hududlarga kiritilgan investitsiyalardagi korxona mablag‘larining ulushi.

$HudTijBank_t$ – hududlarga kiritilgan investitsiyalardagi tijorat banklari mablag‘larining ulushi.

$HudXorUlush_t$ – hududlarga kiritilgan investitsiyalardagi xorijiy mablag‘larning ulushi.

$DavBudjUlush_t$ – hududlarga kiritilgan investitsiyalardagi davlat budjeti mablag‘larining ulushi.

Demak, korxona mablag‘larining investitsiyalardagi ulushining 1 foizga o‘zgarishi hududlardagi investitsiya jalb etish ko‘lamini 1,85 foizga, tijorat banklari va aholi mablag‘larining 1 foizga o‘zgarishi esa 0,10 foizga mutanosib o‘rishini ta’minlamoqda.

Olingan natijalarni ifodalashicha, mintaqada to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ko‘lamining ta’siri ham miqdor, ham samaradorlik bo‘yicha ijobiy bo‘lmoqda. Ya’ni, korxona va aholi mablag‘lari tadbirkorlik kapitalining asosini tashkil etadi. Shunday bo‘lsada, davlat budjetining salbiy ta’siri kiritilgan mablag‘larning uzoq muddatliligi hamda ijtimoiy ahamiyatidandir. Ya’ni, davlat budjeti asosan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga yo‘naltirilgan. Shunday bo‘lsada, uning bilvosita ta’siri yuqori ijobiy hisoblanadi.

Demak, viloyat va uning hududlarida investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishda asosiy e’tiborni korxona hamda aholi va tijorat banklari manbalariga qaratishimiz lozim. Jumladan, ular ko‘lamini oshirish talab qilinadi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushini ham kengaytirishimiz, bunda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarga yo‘naltirishimiz lozim.

2.3. Mintaqada jalb etilgan investitsiyalarni tarmoqlarga ta’sirini ekonometrik va statistik tahlili

Mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tadqiq qilishda eng keng tarqalgan usullardan biri hududlarni statistik guruhlash hisoblanadi. Jumladan, rivojlanish xususiyatlariga qarab mintaqa hududlarini guruhlariga ajratamiz hamda ustuvor jihatlari asosida boshqa tumanlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqamiz. Bunda hududlarning tajribasi, rivojlanishidagi muhim omil hamda manbalarni aniqlash asosida boshqa mintqalar uchun ham tatbiq qilish imkoniyati mavjud. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni Surxondaryo viloyati shahar va tumanlariga investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishni takomillashtirishda ham qo'llashimiz maqsadlidir. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarimizni amalga oshirishda dastlab mintaqa hududlarini guruhlariga taqimlash oraliq'ini aniqlaymiz. Buning uchun Sterjes formulasidan foydalanamiz¹⁰¹. Ya'ni, uning quyidagi ko'rinshidagi metodikasini qo'llaymiz:

$$n=1+3,322*\lg N \quad (2.6)$$

Bunda: n – mintaqaga tegishli ko'rsatkichlarni oraliq intervallarga ajratish bo'yicha guruhlar soni;

N – kuzatishlar soni. Bunda, Surxondaryo viloyati uchun 15 bo'lib, 1 ta shahar va 14 ta tumanlar mavjudligini anglatadi.

Demak, yuqoridagi (2.1) formula asosida mintaqaga tegishli guruhlar sonini aniqlaymiz.

$$n=1+3,322*\lg 15=1+3,322*1,1760914=4,907\approx 5 \quad (2.7)$$

Shuni ta'kidlaymizki, mintaqaga tegishli iqtisodiy-statistik tahlillarimizda hududlarni tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha 5 ta guruhga ajratamiz. Faqat mazkur guruhlash jarayonida ko'rsatkichlar qiymatlariga qarab oraliq intervallarni alohida-alohida hisob-kitob qilamiz. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanamiz:

$$h = \frac{X_{max}-X_{min}}{n} \quad (2.8)$$

Bunda: h – mintaqaga tegishli ko'rsatkich uchun guruhlar orasidagi oraliq interval qiymati;

¹⁰¹ Дуплякин В.М. Особенности идентификации нормального закона распределения // Вестник Самарского университета. 2020, 11(3). С. 176-183. DOI: 10.18287/2542-0461-2020-11-3-176-183; <https://klikunov-nd.livejournal.com/485677.html>.

X_{max} – mintaqa hududlaridagi eng katta ko'rsatkich;

X_{min} – mintaqa hududlaridagi eng kichik ko'rsatkich.

Yuqoridagilar asosida Surxondaryo viloyatida ishsizlik, korxonalar faollik darajasi, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi bo'yicha shahar va tumanlarni statistik guruhlariga ajratamiz. Ular asosida investitsiyalarning ta'sirini baholaymiz. Jumladan, joriy vaqtda mintaqa hududlariga jalb etilayotgan investitsiyalarning tarmoq va hududlar bo'yicha ta'sirchanligini aniqlaymiz. Bu esa, investitsiyalarni soha va tarmoqlar darajasida jalb qilish mexanizmlarini tartibga solish bo'yicha tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi.

Dastlab, viloyatda ishsizlikning shahar va tumanlardagi holati bo'yicha 5 ta guruhga ajratamiz. Buning uchun tegishli ko'rsatkichning 2010-2022 yillardagi rivojlanish tendensiyalarining statistik tavsiflaymiz (2.3.1-jadval). Bunda, EXEL dasturidan foydalanib, hisob-kitoblarimizni amalga oshiramiz.

$$h = \frac{10,50 - 9,267}{5} = 0,247$$

Olingan natijalarga muvofiq viloyat hududlarini 5 ta guruhga ajratamiz. Bunda, oraliq intervallar qiymati 0,247 ga teng. Ya'ni, mintaqada ishsizlik darajasi 9-10 foiz oralig'ida tebranmoqda. Shunday bo'lsada, shahar va tumanlar kesimida notekis tebranib bormoqda.

2.3.1-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining ishsizlik darajasiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰²

Hududlardagi ishsizlik darajasining statistik tavsifi		Hududlardagi ishsizlik darajasining sifat mezonlari	Hududlardagi ishsizlik darajasining oraliq ko'rsatkichlari		Ishsizlik darajasi oraliqlari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Ishsizlik darajasi oraliqlari bo'yicha hududlar nomi
			$\geq$	$<$	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	10,2	A'lo	9,267	9,514	1	6,7	Termiz shahri
Standart xatolik	0,073751						
Mediana	10,26667	Yaxshi	9,514	9,761	0	0,0	-
Standart chetlanish	0,285635						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	0,081587	O'rta	9,761	10,008	0	0,0	-

¹⁰² Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Ekssess	8,986916						
Asimmetriklik	-2,69646	Qoniqarli	10,008	10,255	6	40,0	Angor, Denov, Jarqo‘rg‘on, Qiziriq, Termiz, Sherobod
Interval	1,233333						
Ko‘rsatkichlar minimumi	9,266667						
Ko‘rsatkichlar maksimumi	10,5	Qoniqarsiz	10,255	10,500	8	53,3	Bandixon, Boysun, Qumqo‘rg‘on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sho‘rchi
Ko‘rsatkichlar jami summasi	153						
Kuzatishlar soni	15						
Umumiy taqsimot qiymatlari					15	100	

Surxondaryo viloyatida shahar va tumanlarni ishsizlik darajasi bo'yicha guruhlariga ajratganimizda salbiy tendensiyalar aniqladik. Jumladan, hududlarning yarmidan ortig'i, Ya'ni 8 tasi yoki 53,3 foizi qoniqarsiz guruh oralig'ida joylashgan. Jumladan, Bandixon, Boysun, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sho'rchi tumanlari qoniqarsiz oraliq ko'rsatkichi (10,255-10,500) bo'yicha guruhlandi. Shuningdek, 40 foiz hududi esa qoniqarli guruh oralig'ida (10,008-10,255) bo'lib, ular Angor, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Termiz, Sherobod tumanlarini o'z ichiga olgan. Birgina, Termiz shahri ijobiy guruh oralig'ida hisoblanadi. Demak, ishsizlik darajasi bo'yicha mintaqaning umumiy holati, ekonometrik-statistik tadqiqotlarimiz asosida olingan natijalari bo'yicha salbiy tendensiyalarga egaligini ko'rsatmoqda. Bu esa, mintaqada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni, ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqishni talab etmoqda. Albatta, mazkur chora-tadbirlar ostida investitsiyalar ko'lamini oshirish, uni hududlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari asosida jalb qilishni optimal tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday bo'lsada, ishsizlikni kamaytirish, uning ijobiy darajasini ta'minlashda korxonalarning faollik darajasi asosiy omil hisoblanadi. Jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar, amalda mavjudlarining barqaror faoliyati qo'shimcha ish o'rinlari demakdir. Shu bois, viloyat shahar va tumanlaridagi korxonalarning umumiy sonidagi faol bo'lganlar ulushini alohida tadqiq qilamiz. O'z navbatida, mazkur ko'rsatkichlarni ham yuqoridagi uslubiyot bo'yicha 5 ta

guruhga ajratamiz. Dastlab statistik guruhlash uchun oraliq interval qiymatlarini hisob-kitob qilamiz.

$$h = \frac{92,41 - 84,83}{5} = 1,516$$

Ekonometrik tadqiqotlarimiz asosida olingan natijalarni ifodalashicha, oraliq interval 1,516 foizga teng. Mazkur ko'rsatkich asosida viloyat hududlarini statistik guruhlaganimizda katta ulush ijobiy holatni aks ettirmoqda. Jumladan, a'lo va yaxshi guruhlardagi tumanlar mintaqaning 60 foizini ifodalamoqda. Ularga, Boysun, Denov, Sho'rchi, Angor, Muzrabod, Sariosiyo, Termiz, Sherobod tumanlari va Termiz shahri kiradi. O'rta guruh oralig'iga Oltinsoy va Bandixon tumanlari, qoniqarli guruhga Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Uzun, qoniqarsiz guruhga Qiziriq tumanlari tegishli bo'lgan (2.3.2-jadval). Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, korxonalar faollik darajasi bo'yicha mintaqada ijobiy o'zgarish tendensiyalariga ega.

2.3.2-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlaridagi korxonalarning faollik darajasiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰³

Hududlarda korxonalar faollik darajasining statistik tavsifi		Hududlardagi korxonalar faollik darajasining sifat mezonlari	Hududlardagi korxonalar faollik darajasi oraliq ko'rsatkichlari		Korxonalar faollik darajasi intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Korxona faollik darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi
			$\geq$	$<$	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	89,4926	Qoniqarsiz	84,831	86,347	1	6.67	Qiziriq
Standart xatolik	0,554894						
Mediana	89,90077	Qoniqarli	86,347	87,863	3	20.0	Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Uzun
Standart chetlanish	2,149095						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	4,61861	O'rta	87,863	89,379	2	13.33	Oltinsoy, Bandixon
Ekssess	0,042869						
Asimmetriklik	-0,85157	Yaxshi	89,379	90,895	5	33.33	Angor, Muzrabot, Sariosiyo, Termiz, Sherobod
Interval	7,580631						
Ko'rsatkichlar minimumi	84,83101						
Ko'rsatkichlar maksimumi	92,41164	A'lo	90,895	92,411	4	26.67	

¹⁰³ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Кўрсаткичлар жами суммаси	1342,389						Boysun, Denov, Sho'rchi, Termiz sh.
Kuzatishlar soni	15						
<i>Umumiy taqsimot qiymatlari</i>					15	100	

Shunday bo'lsada, korxonalar faollik darajasini o'zi mintaqa rivojlanishi va unga kiritilgan investitsiyalar ta'sirini to'liq baholash uchun yetarli emas. Bunda, korxonalar asosida yaratilgan mahsulotlar va ularning o'zgarishi hamda tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishini ham baholaymiz. Buning uchun sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasida yaratilgan mahsulotlarning jami yalpi mahsulotdagi hisssasi bo'yicha ekonometrik va statistik tahlilni amalga oshiramiz.

Dastlab sanoat sohasining viloyat hududlaridagi rivojlanish darajasi bo'yicha ekonometrik tahlil qilamiz. Sanoatning hududiy rivojlanishi, uning yalpi tarmoq mahsulotidagi ulushi bo'yicha statistik tavsifini hisob-kitob qildik. Olingan natijalar asosida, statistik guruhlash bo'yicha oraliq interval qiymatlarini aniqladik va u 4,395 ga teng.

$$h = \frac{27,17 - 5,20}{5} = 4,395$$

Shunday bo'lsada, eng quyi va yuqori qiymatlar o'rtasidagi farq 5 barobarga teng. Shuningdek, a'lo va yaxshi guruhga Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi tumanlari, Termiz shahri to'g'ri kelgan.

2.3.3-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida yaratilgan sanoatning yalpi mahsulotdagi ulushiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰⁴

Hududlardagi yalpi mahsulotdagi sanoat ulushining statistik tavsifi		Hududlardagi yalpi mahsulotdagi sanoat ulushining sifat mezonlari	Hududlardagi yalpi mahsulotdagi sanoat ulushining oraliq ko'rsatkichlari		Yalpi mahsulotdagi sanoat hissasining intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Yalpi mahsulotdagi sanoat ulushi intervallari bo'yicha hududlar nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	12,3195	Qoniqarsiz	5,200	9,594	5	33.33	Oltinsoy, Bandixon, Boysun, Qiziriq, Uzun
Standart xatolik	1,618197						
Mediana	10,52998	Qoniqarli	9,594	13,989	7	46.67	

¹⁰⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Standart chetlanish	6,26725						Angor, Muzrabod, Denov, Qumqoʻrgʻon, Sariosiyo, Termiz, Sherobod
Koʻrsatkichlar dispersiyasi	39,27842	Oʻrta	13,989	18,384	0		-
Ekssess	1,343935						
Asimmetriklik	1,363781	Yaxshi	18,384	22,779	1	6.67	Termiz Sh.
Interval	21,97389						
Koʻrsatkichlar minimumi	5,199708						
Koʻrsatkichlar maksimumi	27,1736	Aʻlo	22,779	27,174	2	13.33	Jarqoʻrgʻon, Shoʻrchi
Koʻrsatkichlar jami summasi	184,7925						
Kuzatishlar soni	15						
Umumiy taqsimot qiymatlari					15	100	

Shu bilan birga, qoniqarsiz guruhdan Oltinsoy, Bandixon, Boysun, Qiziriq, Uzun tumanlari joy olgan. Qoniqarli guruhga esa Angor, Muzrabod, Denov, Qo'ng'iro't, Sariosiyo, Termiz, Sherobod tumanlari to'g'ri kelgan. Demak, viloyatning 20 foiz hududida sanoatning ishlab chiqarish ko'lami ijobiy guruhga mos, lekin 80 foizida esa, aksincha salbiy qiymatlar aks etmoqda (2.3.3-jadval). Fikrimizcha, hududlarda asosiy e'tibor tadbirkorlikni kengaytirish, xususan oziq-ovqat, to'qimachilik korxonalari ko'lamini kengaytrishimiz zarur. Shu bilan birga, sanoatni rivojlantirish bo'yicha hududiy dastur ishlab chiqish va joriy qilish lozim. Bunda, xom ashyo resurslariga muvofiq sanoat korxonalari uchun iqtisodiy zonalarini tashkil etish lozim. Ayniqsa, xorijiy tadbirkorlarni keng jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, sanoatning asosiy xom ashyo bazasi qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'lib, uni qayta ishlash darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan past hisoblanadi. Shunday bo'lsada, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar yalpi mahsulotidagi ulushi bir-biriga yaqin ko'rsatkichlarga ega. Mazkur ko'rsatkichlar asosida qishloq xo'jaligini hududlardagi rivojlanish tendensiyalari, ularning jami mahsulotdagi ulushi bo'yicha guruhlashda oraliq interval qiymatlarini baholaganimizda 4,526 ga teng bo'ldi.

$$h = \frac{73,42 - 50,79}{5} = 4,526$$

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha, viloyat tumanlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha ulushi 57 foizdan yuqori. Ular guruhida Oltinsoy, Muzrabod, Qumqo‘rg‘on, Qiziriq, Uzun, Angor, Bandixon, Sherobod tumanlari joy olmoqda (2.3.4-jadval). Qoniqarsiz guruh umumiy hissasi 21,43 foiz bo‘lib, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Sho‘rchi tumanlarini o‘z ichiga olgan. Qoniqarli va o‘rta statistik guruhda Denov, Boysun, Termiz tumanlari joylashgan.

Fikrimizcha, Surxondaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish salohiyati o‘ziga xos ijobiy xususiyatlarga ega. Jumladan, mintaqada quyoshli kunlar boshqa respublika hududlariga nisbatan ko‘p, dorivor o‘simliklar yetishtirish uchun tog‘li va tog‘ oldi hududlari mavjud, yerlarning unumdorligi ham respublikada o‘rtacha bo‘lib, samaradorlik yuqori bog‘dorchilik hamda polizchilikka ixtisoslashtirish mumkin.

2.3.4-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida yaratilgan qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotdagi ulushiga ko‘ra statistik va ekonometrik tahlil bo‘yicha guruhlanishi¹⁰⁵

Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining statistik tavsifi		Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining sifat mezonlari	Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining oraliq ko‘rsatkichlari		Yalpi mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi hissasining intervallari bo‘yicha hududlar soni va ulushi		Yalpi mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushi intervallari bo‘yicha hududlar nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O‘rtacha qiymatlar	64,07838	Qoniqarsiz	50,789	55,315	3	21.43	Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Sho‘rchi
Standart xatolik	1,935443						
Mediana	66,97459	Qoniqarli	55,315	59,841	1	7.14	Denov
Standart chetlanish	7,241766						
Ko‘rsatkichlar dispersiyasi	52,44318	O‘rta	59,841	64,366	2	14.28	Boysun, Termiz
Ekssess	-0,88463						
Asimmetriklik	-0,67415	Yaxshi	64,366	68,892	3	21.43	Angor, Bandixon, Sherobod
Interval	22,62932						
Ko‘rsatkichlar minimumi	50,78881	A‘lo	68,892	73,418	5	35.71	Oltinsoy, Muzrabod, Qo‘mqorg‘on, Qiziriq, Uzun
Ko‘rsatkichlar maksimumi	73,41814						
Ko‘rsatkichlar jami summasi	897,0973						
Kuzatishlar soni	14						

¹⁰⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

<i>Umumiy taqsimot qiymatlari</i>	<i>14</i>	<i>100</i>	
-----------------------------------	-----------	------------	--

Shunday bo'lsada, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun agroinfratuzilmani kengaytirishimiz, takomillashtirishimiz zarur. Bu esa, mintaqada hududlarini servis tizimini, xizmat ko'rsatish holatini joriy holatini tadqiq qilishni talab etadi.

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarini xizmatlar sohasida mahsulotlarining yalpi hudud mahsulotidagi ulushi asosida statistik tavsifini aniqladik. Olingan natijalarini ifodalashicha mintaqada hududlarning nomutanosibliigi yuqori bo'lib, eng yuqori va past hudud o'rtasidagi farq 5,3 ga teng. Jumladan, hududlarini statistik guruhlariga ajratish uchun hisoblagan oraliq interval qiymati 9,955 foizga teng.

$$h = \frac{61,396 - 11,622}{5} = 9,955$$

2.3.5-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida yaratilgan xizmatlar sohasining yalpi mahsulotdagi ulushiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰⁶

Hududlardagi yalpi mahsulotdagi xizmatlar sohasi ulushining statistik tavsifi		Hududlardagi yalpi mahsulotdagi xizmatlar sohasi ulushining sifat mezonlari	Hududlardagi yalpi mahsulotdagi xizmatlar sohasi ulushining oraliq ko'rsatkichlari		Yalpi mahsulotdagi xizmatlar sohasi hissasining intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Yalpi mahsulotdagi xizmatlar sohasi ulushi intervallari bo'yicha hududlar nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	18,22332	Qoniqarsiz	11,622	21,577	13	86,67	Oltinsoy, Angor, Bandixon, Boysun, Muzrabod, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi
Standart xatolik	3,188379						
Mediana	14,28233	Qoniqarli	21,577	31,532	1	6,67	Denov
Standart chetlanish	12,34854						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	152,4864	O'rta	31,532	41,486	0		-
Eksess	12,68318						
Asimmetriklik	3,482585	Yaxshi	41,486	51,441	0		-
Interval	49,77342						
Ko'rsatkichlar minimumi	11,62241	A'lo	51,441	61,396	1	6,67	Termiz sh.
Ko'rsatkichlar maksimumi	61,39584						
Ko'rsatkichlar jami summasi	273,3498						
Kuzatishlar soni	15						

¹⁰⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

<i>Umumiy taqsimot qiymatlari</i>	<i>15</i>	<i>100</i>	
-----------------------------------	-----------	------------	--

Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida eng yuqori ulush, Ya'ni 86,67 foizi qoniqarsiz guruhga to'g'ri kelgan (2.3.5-jadval). Mazkur guruhdan Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi tumanlari joy olgan. Qoniqarli guruhda Denov, a'lo guruhda esa Termiz shahri joylashgan. Fikrimizcha, mintaqada xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalari qoniqarsiz holatga tegishli bo'lmoqda. Sohani rivojlantirish, bunda qo'shni respublika talab ehtiyojlarini ham hisobga olish, turizm salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Natijada, xizmatlar ko'lami kengayib, yaratilgan yalpi hududiy mahsulotdagi ulush ortadi.

Shuningdek, mintaqada qurilish sohasining rivojlanish darajasi statistik guruhlariga ajratildi. Hududlardagi mazkur sohaning yalpi mahsulotdagi hissasiga muvofiq statistik tavsifini baholadik. Bunda eng yuqori va kichik ko'rsatkichga ega tumanlardagi disproporsiya 4 barobarga teng. Mazkur ko'rsatkichlardan foydalanib guruh oralig'i qiymatlarini hisob-kitob qildik va u 3,248 foizga teng.

$$h = \frac{21,81 - 5,57}{5} = 3,248$$

Mazkur kattalik asosida mintaqada hududlarini 5 ta guruhga ajratdik. Olingan natijalar bo'yicha ijobiy guruhga kirgan hududlar ulushi 20 foizga teng (2.3.6-jadval).

2.3.6-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida yaratilgan qurilish sohasining yalpi mahsulotdagi ulushiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰⁷

Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qurilish sohasi ulushining statistik tavsifi		Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qurilish sohasi ulushining sifat mezonlari	Hududlardagi yalpi mahsulotdagi qurilish sohasi ulushining oraliq ko'rsatkichlari		Yalpi mahsulotdagi qurilish sohasi hissasining intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Yalpi mahsulotdagi qurilish sohasi ulushi intervallari bo'yicha hududlar nomi
			$\geq$	$<$	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	9,617877	Qoniqarsiz	5,573	8,821	11	73.33	

¹⁰⁷ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Standart xatolik	1,360549						Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqoʻrgʻon, Qumqoʻrgʻon, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Shoʻrchi
Mediana	7,120624	Qoniqarli	8,821	12,069	0		-
Standart chetlanish	5,269383						
Koʻrsatkichlar dispersiyasi	27,7664	Oʻrta	12,069	15,316	1	6.67	Termiz
Ekssess	0,994483						
Asimmetriklik	1,473097	Yaxshi	15,316	18,564	1	6.67	Boysun
Interval	16,23831						
Koʻrsatkichlar minimumi	5,573445						
Koʻrsatkichlar maksimumi	21,81175	Aʻlo	18,564	21,812	2	13.33	Termiz sh., Sariosiyo
Koʻrsatkichlar jami summasi	144,2681						
Kuzatishlar soni	15						
Umumiy taqsimot qiymatlari					15	100	

Shu bilan birga, ijobiy guruh Termiz shahri, Sariosiyo, Boysun tumanlarini o'z ichiga olgan. Termiz tumani o'rta statistik guruh oralig'ida joylashgan. Shunday bo'lsada, 73,33 foiz tumanlar qoniqarsiz guruhda joylashgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Sho'rchi tumanlari.

Demak, viloyatning tumanlari bo'yicha tarmoq va sohalar statistik guruhlanganda salbiy oraliqqa tegishli hududlar ulushi yuqori ekanligini aniqladik. Jumladan, sanoatda ushbu ko'rsatkich 33,33 foiz, xizmatlarda 86,67 foiz, qurilishda 73,33 foiz, shuningdek, ishsizlik bo'yicha o'rganish natijalari bo'yicha qoniqarsiz guruh ulushi 53,3 foizga teng. Bu esa, hudud va tarmoqlarni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini oshirishning omilli tahlil qilishni talab etadi. Mazkur holatda investitsiya omilini alohida baholashimiz lozim. Chunki, soha va tarmoqlarning rivojlanishini hududiy xususiyatlari investitsiyalarni jalb etishni tartibga solishni, ularning taqsimlanishini optimallashtirishni talab etmoqda.

Ya'ni, investitsiya bo'yicha statistik va ekonometrik tadqiqotlarimizni ikki guruhda amalga oshiramiz. Birinchi yo'nalishda mintaqaga jami jalb etilgan investitsiyalardagi hududlarni ulushini o'rganamiz. Buning natijasida investitsiyani hududiy xususiyatlari bo'yicha optimal taqsimlash va tartibga solish imkoniga ega bo'lamiz. Ikkinchi yo'nalishda esa, investitsiya meyor bo'yicha tadqiqot olib

boramiz. Bu esa, soha va tarmoqlar bo'yicha investitsiya jalb etishni optimal tartibga solish hamda taqsimlash imkonini beradi.

Birinchi yo'nalishda amalga oshirgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha oraliq interval qiymati 2,76 foizga teng.

$$h = \frac{15,0 - 1,2}{5} = 2,76$$

Ushbu qiymat asosida mintaqqa shahar va tumanlarini 5 ta guruh bo'yicha taqsimlaganimizda 40,0 foiz hududlar qoniqarsiz guruhga tegishli bo'lib, ular Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Uzun va Sho'rchi tumanlaridir (2.3.7-jadval).

2.3.7-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining jami viloyat investitsiyalaridagi ulushiga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰⁸

Hududlarning jami viloyat investitsiyalaridagi ulushining statistik tavsifi		Hududlarning jami viloyat investitsiyasidagi ulushining sifat mezonlari	Hududlarning jami viloyat investitsiyasidagi ulushining oraliq ko'rsatkichlari		Jami viloyat investitsiyalar ulushi intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Investitsiya ulushi intervallari bo'yicha hududlar nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	6,473333	Qoniqarsiz	1,2	3,96	6	40.0	Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Uzun, Sho'rchi
Standart xatolik	1,037693						
Mediana	5,5	Qoniqarli	3,96	6,72	2	13.33	Qiziriq, Qumqo'rg'on
Standart chetlanish	4,018967						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	16,1521	O'rta	6,72	9,48	4	26.67	Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod
Ekssess	0,154247						
Asimmetriklilik	0,979207	Yaxshi	9,48	12,24	1	6.67	Sariosiyo
Interval	13,8						
Ko'rsatkichlar minimumi	1,2	A'lo	12,24	15	2	13.33	Termiz sh., Boysun
Ko'rsatkichlar maksimumi	15						
Ko'rsatkichlar jami summasi	97,1						
Kuzatishlar soni	15						
Umumiy taqsimot qiymatlari					15	100	

¹⁰⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Qoniqarli guruhdan Qiziriq va Qumqo'rg'on tumanlari, o'rta guruhdan Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod tumanlari, ijobiy guruhdan Termiz shahri, Boysun, Sariosiyo tumanlari joy olgan. Ikkinchi yo'nalishda, ya'ni investitsiya meyori bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimizda guruhlariga ajratish qiymatini ekonometrik hisob-kitoblar asosida baholaganimizda 14,988 foizga teng bo'ldi.

$$h = \frac{84,348 - 9,360}{5} = 14,998$$

Unga asoslanib olib borgan tadqiqotlarimiz bo'yicha 80 foiz hududlar qoniqarsiz guruhga tegishli. Shuningdek, 13,33 foiz qismi esa qoniqarli guruhda, 6,67 foizi a'lo guruhda joylashgan (2.3.8-jadval). Yoki, 1 ta tuman (Boysun) a'lo guruhda, 2 ta tuman (Sariosiyo va Termiz) qoniqarli guruhda va viloyatning qolgan 12 ta hududi qoniqarsiz guruhda joylashgan.

2.3.8-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining investitsiya meyoriga ko'ra statistik va ekonometrik tahlil bo'yicha guruhlanishi¹⁰⁹

Hududlardagi investitsiya meyorining statistik tavsifi		Hududlardagi investitsiya meyorining sifat mezonlari	Hududlardagi investitsiya meyorining oraliq ko'rsatkichlari		Investitsiya meyori intervallari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Investitsiya meyori intervallari bo'yicha hududlar nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	20,49839	Qoniqarsiz	9,360	24,358	1	6.67	Termiz sh., Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqo'rg'on, Qo'mqorg'on, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Sho'rchi
Standart xatolik	4,871101						
Mediana	14,47731	Qoniqarli	24,358	39,355	2	13.33	Sariosiyo, Termiz
Standart chetlanish	18,86569						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	355,9144	O'rta	39,355	54,353	0		-
Ekssess	10,71751						
Asimmetriklilik	3,14155	Yaxshi	54,353	69,350	0		-
Interval	74,98793						
Ko'rsatkichlar minimumi	9,359952	A'lo	69,350	84,348	1	6.67	Boysun
Ko'rsatkichlar maksimumi	84,34788						
Ko'rsatkichlar jami summasi	307,4758						
Kuzatishlar soni	15						
Umumiy taqsimot qiymatlari					15	100	

¹⁰⁹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Amalga oshirgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha, jami viloyatga kiritilgan investitsiyalardagi hududlarning ulushi asosidagi natijalar shahar va tumanlarning iqtisodiy faolligiga kuchli ta'sir qilmoqda. Jumladan, ishsizlik darajasi va korxonalar faolligiga nisbatan yuqori ta'sirini aniqladik. Shuningdek, xizmatlar hamda qurilish sohasiga ham kuchli bog'liqlikni ifodalagan.

2.3.9-жадвал

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining iqtisodiy-ijtimoiy faolligiga investitsiyalarning hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimlanish ta'siri¹¹⁰

Hududlardagi ishsizlik darajasining sifat mezonlari	Ishsizlik darajasi oraliqlari bo'yicha hududlar nomi X1	Korxona faollik darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi X2	Sanoat darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi X3	Qishloq xo'jaligi darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi X4	Xizmatlar darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi X5	Qurilish darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi X6	Investitsiya darajasi intervallari bo'yicha hududlar nomi Y1	Investitsiya meyorlari intervallari bo'yicha hududlar nomi Y2
A'lo	Termiz sh.	Boysun, Denov, Sho'rchi, Termiz sh.	Jarqo'rg'on, Sho'rchi	Oltinsoy, Muzrabod, Qo'mqorg'on, Qiziriq, Uzun	Termiz sh.	Termiz sh., Sariosiyo	Termiz sh., Boysun	Boysun
Yaxshi		Angor, Muzrabot, Sariosiyo, Termiz, Sherobod	Termiz Sh.	Angor, Bandixon, Sherobod		Boysun	Sariosiyo	
O'rta		Oltinsoy, Bandixon		Boysun, Termiz		Termiz	Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod	
Qoniqarli	Angor, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Termiz, Sherobod	Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Uzun	Angor, Muzrabod, Denov, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Termiz, Sherobod	Denov	Denov		Qiziriq, Qumqo'rg'on	Sariosiyo, Termiz
Qoniqarsiz	Bandixon, Boysun, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sho'rchi	Qiziriq	Oltinsoy, Bandixon, Boysun, Qiziriq, Uzun	Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Sho'rchi	Oltinsoy, Angor, Bandixon, Boysun, Muzrabod, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi	Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Sho'rchi	Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Uzun, Sho'rchi	Termiz sh., Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqo'rg'on, Qo'mqorg'on, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Sho'rchi
Investitsiya darajasiga mosligi	$(X1:Y1)=9$ ++++++	$(X2:Y1)=3$ +++	$(X3:Y1)=4$ ++++	$(X4:Y1)=2$ ++	$(X5:Y1)=7$ ++++++	$(X6:Y1)=9$ ++++++	$(Y1:Y2)$ +++++	
Investitsiya meyoriga	$(X1:Y2)=7$ ++++++	$(X2:Y2)=2$ ++	$(X3:Y2)=6$ +++++	$(X4:Y2)=2$ ++	$(X5:Y2)=10$ ++++++	$(X6:Y2)=11$ ++++++		$(Y1:Y2)$ +++++

¹¹⁰ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Shunday bo'lsada, investitsiya meyor bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari bo'yicha hududdagi sanoat, xizmat ko'rsatish va qurilish tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari o'zgarishi mutanosiblikka ega bo'lmoqda (2.3.9-jadval).

Demak, Surxondaryo viloyatida investitsiya dasturini ishlab chiqishda hududiy faollik darajasini oshirish uchun jalb etilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimotini optimallashtirishga, tarmoqlarning rivojlantirish yo'nalishida esa investitsiya meyorini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llashga e'tibor qaratishimiz lozim. Jumladan, birinchi yo'nalishda, davlat investitsiyalari ko'lamini infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish, iqtisodiy zonalarini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Ikkinchi yo'nalishda esa, tadbirkorlik salohiyatini oshirishga, bunda aholi va tijorat banklari mablag'larini iqtisodiyotni real sektoriga yo'naltirishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Umumiy holda, birinchi yo'nalishda investitsiyalarning hududlar kesimida optimallashtirishga, ikkinchi yo'nalishda esa tarmoqlar kesimida jalb etilgan investitsiyalarni optimal taqsimlashga erishiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot tarkibi iqtisodiy-statistik tahlil etilganda, o'rtacha tadqiqot davrida qishloq xo'jaligining ulushi 49,4 foiz, sanoatning ulushi 6,6 foiz, qurilishning ulushi 6,3 foiz, xizmatlar sohasining ulushi 37,2 foizni tashkil qilgan. Shunga muvofiq, tarmoqlarning o'sish sur'atini mintaq o'sish darajasiga ta'siri ekonometrik tadqiq etilganda esa, qishloq xo'jaligi (0,504) va xizmatlar (0,351) yuqori, sanoat (0,103) va qurilish (0,062) nisbatan kuchsiz ta'sirga ega bo'lgan. Demak, viloyat rivojlanishi agrar xususiyatga ega bo'lmoqda. Bu esa, mintaqada oziq-ovqat hamda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga e'tibor qaratishni, investitsiyalar jalb etishni tartibga solishda mazkur sohalarga yo'naltirilgan darajasini oshirishga e'tibor qaratishni talab etadi.

2. Mintaqaga kiritilgan investitsiyalarning manbalari 2010-2022 yillar bo'yicha tadqiq etilganda, undagi o'rtacha korxona mablag'lari 48,8 foizni, davlat budjeti 7,9 foizni, aholi mablag'lari va tijorat banklari 12,7 foizni, xorijiy

investitsiyalar 28,1 foizni tashkil etgan. Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalarning manbalari bo'yicha ta'sirchanligida korxona o'z mablag'lari ustuvorlikka ega bo'lmoqda. Jumladan, korrelyatsion-regression tahlil natijalarini ifodalashicha, korxona mablag'larining investitsiyalardagi ulushining 1 foizga o'zgarishi hududlarda kapital jalb etish ko'lamini 1,85 foizga, tijorat banklari va aholi mablag'larining 1 foizga o'zgarishi esa 0,10 foizga mutanosib o'sishini ta'minlamoqda. Demak, mintaqada investitsiyalarni jalb etish va taqsimlashni samarali tartibga solishda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, xususan soliq yukini pasaytirishga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, mintaqada tadbirkorlik salohiyatini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni takomillashtirish va bunda soliqlar yukini yengillashtirishga hamda eksport ko'lamini oshirishga alohida e'tibor berish lozim.

3. Surxondaryo viloyatining tumanlari bo'yicha tarmoq va sohalar statistik guruhlanganda sanoatda 33,33 foiz, xizmatlarda 86,67 foiz, qurilishda 73,33 foiz hududlar qoniqarsiz oraliqda ekanligi aniqlandi. Natijalar omilli tahlil qilinganda, tarmoqlarning rivojlanishi investitsiya meyoriga, hududlar iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati investitsiyalarning hududiy taqsimotiga mutanosibligi ochib berildi. Shu bois, Surxondaryo viloyatida investitsiya dasturini ishlab chiqishda, mavjud kapitalni taqsimlash va ular ko'lamini oshirishda soha hamda tarmoqlarni rivojlantirish uchun ularning investitsiya meyorini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

III.BOB. MINTAQAGA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Mintaqaga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish yo‘llari

Mamlakat va uning mintaqalari rivojlanishida investitsiya muhim omil hisoblanadi. Jumladan, investitsiyalar iqtisodiyotga ikki yo‘nalishda ta’sir etadi. Ya’ni, akseleratsion va multiplikatsion tarzda iqtisodiy rivojlanishni belgilaydi. Shuningdek, iqtisodiyot rivojlanishi ham investitsiya faoliyatini, uning ko‘lamini belgilab beradi. Jumladan, investitsiyani o‘sishi iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, yalpi mahsulot o‘shishiga hamda iqtisodiy salohiyat oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish natijasida subyektlar daromadi o‘sib, foydasining ortishi bilan investitsiyalar ko‘lami ham ortadi. Ya’ni, foyda investorni faoliyatga undovchi asosiy mezon hisoblanadi. Demak, investitsiyaning iqtisodiyotga ta’sirini baholash, uning usullarini takomillashtirish muhim masala ekan. Buning natijasida inayestitsiyalarni jalb etish ko‘lamini kengaytirishga, samaradorligini oshirishga va eng asosiysi, optimal tartibga solishga ega bo‘lamiz.

Investitsiya samaradorligi to‘g‘risida gap ketganda birinchi navbatda mamlakat va uning mintaqalaridagi yalpi mahsulotning o‘zgarishi hamda hajmini tadqiq etish zarur. Jumladan, dastlab Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulotdagi shahar va tumanlarning hissasini tadqiq qilamiz. Chunki, mazkur ko‘rsatkich yuqorida qayd etganimizdek, investitsiya samaradorligini ifodalovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Bunda, viloyatda yaratilgan YaHMDagi shahar va tumanlarning yalpi mahsulotlari, ularning qo‘shgan ulushini baholadik.

Olingan natijalarni ifodalashicha, 2010-2022 yillarda o‘rtacha hududlarning qo‘shgan hissasi 6,8 foizga teng bo‘lgan.

3.1.1-jadval

Surxondaryo viloyatida jami yaratilgan yalpi hududiy mahsulotdagi shahar va tumanlarning ulushi, foizda¹¹¹

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	10,8	9,5	8,9	9,9	12,2	12,4	14,0	13,5	13,9	12,4	12,5	13,1	12,7	12,0
Oltinsoy	5,5	5,6	5,8	5,4	5,7	5,5	5,7	5,4	3,9	4,2	3,8	4,0	3,8	5,0
Angor	5,0	5,3	5,4	5,1	5,0	5,1	5,0	4,9	4,9	4,6	4,4	4,8	4,9	4,9
Bandixon											2,2	2,4	2,6	2,4
Boysun	3,9	3,9	4,1	4,3	4,2	4,2	4,1	4,0	4,2	4,3	4,0	4,0	3,9	4,1
Muzrabot	5,3	5,0	5,1	5,1	4,9	4,6	4,8	5,3	4,9	5,1	6,0	5,8	5,9	5,2
Denov	14,7	15,1	15,4	15,3	14,7	14,8	14,8	15,8	15,4	14,6	14,1	13,4	12,8	14,7
Jarqo'rg'on	9,6	9,2	9,1	9,3	8,9	9,0	8,8	8,7	9,0	9,2	9,5	9,3	8,8	9,1
Qumqo'rg'on	7,8	7,7	8,0	8,0	8,0	8,1	7,8	7,6	7,7	8,1	8,2	9,2	8,3	8,0
Qiziriq	7,2	7,5	7,4	6,9	6,5	6,2	6,0	6,2	5,4	5,0	3,7	4,1	3,8	5,8
Sariosiyo	6,2	6,6	6,5	6,9	6,8	7,1	6,3	6,4	8,0	9,0	7,6	8,2	7,7	7,2
Termiz	3,7	3,8	3,9	4,1	4,0	4,0	4,2	4,3	4,2	4,6	5,3	5,1	5,1	4,3
Uzun	6,4	6,8	6,5	6,3	6,3	6,4	6,1	5,4	5,2	4,3	4,5	4,7	4,6	5,6
Sherobod	7,1	7,6	7,4	7,3	6,9	7,1	6,9	7,0	7,5	8,7	8,5	8,7	9,1	7,7
Sho'rchi	6,5	6,4	6,5	6,2	5,9	5,6	5,6	5,6	6,0	5,7	5,8	6,0	6,2	6,0

¹¹¹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

Olingan natijalarni ifodalashicha, 2010-2022 yillarda oʻrtacha hududlarning qoʻshgan hissasi 6,8 foizga teng boʻlgan. Shunday boʻlsada, oʻrtachadan yuqori holatlar Termiz shahri (12 foiz), Denov (14,7 foiz), Jarqoʻrgʻon (9,1 foiz), Qumqoʻrgʻon (8 foiz), Sherobod (7,7 foiz), Sariosiyo (7,2 foiz) tumanlariga toʻgʻri kelgan (3.1.1-jadval). Shuni alohida taʼkidlaymizki, Termiz shahri va Denov tumani viloyatdagi YaHMning $\frac{1}{4}$ qismini yaratmoqda.

Bu esa, mintaqada aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan daromad boʻyicha yuqori disproporsiya mavjudligini ifodalaydi. Shu bois, hududlarda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish zarur. Bunda, ularning investitsiya salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish-xomashyo salohiyatiga mos tadbirkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyish zarur. Ayniqsa, mazkur mintaqada Qashqadaryo viloyatidagi mavjud tabiiy resurslarni qayta ishlash boʻyicha qoʻshma loyihalarni yoʻlga qoʻyish zarur. Shu bilan birga, Afgʻoniston davlatiga oziq-ovqat va isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish lozim.

Mintaqaning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning muhim omili bu investitsiya meyorlari hisoblanadi. Odatda xalqaro tajribalarni ifodalashicha, iqtisodiyotda barqaror oʻsishni taʼminlash uchun ushbu koʻrsatkichni minimal darajasini 30 foiz va undan yuqori boʻlishi lozim. Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda quyidagi usuldan foydalanildi:

$$InvMey_i^t = \frac{I_i^t * X_i^t}{\sum_{j=1}^n Y_{ij}^t} * 100\% \quad (3.1.1)$$

Bunda: $InvMey_i^t$ – viloyat i-hududining t-davrdagi investitsiya meyorlari, foizda; I_i^t – viloyatga t-davrdagi kiritilgan jami investitsiya hajmi; X_i^t – i-hududning t-davrdagi viloyat investitsiyalaridagi ulushi;

Y_{ij}^t – i-hududning t-davridagi j-tarmoqda yaratilgan yalpi mahsulot hajmi. Mazkur tarmoqlar oʻz ichiga sanoat, qurilish, qishloq xoʻjaligi va xizmatlar sohasini qamrab olgan.

Ushbu usul asosida viloyatning shahar va tumanlaridagi investitsiya meyorlari baholadik. Olingan natijalarni ifodalashicha, viloyatdagi investitsiya meyorining 2010-2022 yillardagi oʻrtacha koʻrsatkichi 19,1 foizga teng boʻlgan.

3.1.2-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida investitsiya meyori, foizda¹¹²

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Surxondaryo viloyati	15,7	12,2	12,3	14,4	12,7	12,7	13,1	17,5	26,6	35,8	26,8	26,7	21,2	19,1
Termiz sh.	10,5	12,9	14,1	21,3	13,4	14,3	11,5	25,9	31,4	31,4	26,1	27,3	28,2	20,6
Oltinsoy	14,0	10,0	9,4	13,3	10,9	10,8	9,8	11,1	23,3	18,6	24,3	19,0	13,7	14,5
Angor	9,0	6,9	6,7	11,3	11,0	10,5	11,9	13,5	18,8	11,8	12,5	20,0	20,4	12,6
Bandixon											8,1	17,9	17,8	14,6
Boysun	58,9	26,5	25,0	29,6	28,3	27,9	29,7	32,5	46,9	375,6	216,8	94,1	104,7	84,3
Muzrabot	9,3	8,0	8,3	12,1	10,8	11,2	11,0	10,1	16,0	19,8	14,8	21,2	10,5	12,5
Denov	6,1	4,8	5,2	6,7	6,5	6,3	6,6	6,6	9,4	11,7	12,2	21,4	18,1	9,4
Jarqurg'on	11,7	9,5	9,8	15,1	13,7	13,3	13,9	15,2	25,4	21,6	16,9	11,8	13,4	14,7
Qumqurg'on	13,2	9,6	9,8	12,3	10,7	10,7	11,2	15,1	14,4	9,3	11,2	13,4	10,0	11,6
Qiziriq	7,7	9,8	9,8	14,0	12,5	12,5	13,5	12,8	26,8	12,3	12,6	19,0	12,8	13,5
Sariosiyo	39,1	20,8	20,5	25,5	21,8	20,7	24,5	27,8	37,9	36,3	27,5	59,0	30,6	30,1
Termiz	20,9	16,9	17,7	27,5	27,3	28,0	31,5	31,1	43,5	44,9	43,3	37,1	30,7	30,8
Uzun	7,8	5,2	5,5	9,1	8,0	7,8	8,9	9,8	10,2	14,8	14,8	16,5	11,0	10,0
Sherobod	8,3	7,1	7,2	10,2	10,5	10,1	11,3	34,2	70,3	14,0	20,4	19,1	11,7	18,0
Sho'rchi	8,0	6,1	6,0	9,4	8,8	9,1	8,9	10,4	12,4	11,9	13,5	14,5	11,9	10,1

¹¹² Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Jumladan, 2010-2016 yillarda viloyatdagi investitsiya meyori 12-13 foiz oralig'idagi ko'rsatkichlarni ifodalagan bo'lsa, 2017 yildan keskin o'sib, 17,5 foizga yetgan. Shuningdek, tadqiqotning keyingi davrida 20 foizdan yuqori qiymatlarni aniqladik. Oxirgi yillarda Surxondaryo viloyatida tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi hisobiga ham xorijiy, ham mahalliy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni ko'lami o'smoqda. Ya'ni, 2010-2016 yillarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 13,3 foizga, 2017-2022 yillarda esa 25,8 foizga teng bo'lgan (3.1.2-jadval) .

Shuningdek, viloyatning shahar va tumanlaridagi investitsiya meyorini baholaganimizda hududlarning ko'rsatkichlari bir-biridan farqlanmoqda. Jumladan, yuqori qiymatlar Boysun (84,3 foiz), Sariosiyo (30,1 foiz), Termiz (30,8 foiz) tumanlarida, o'rtacha ko'rsatkichlar esa Termiz shahri (20,6 foiz), Sherobod (18,0 foiz) tumanida aniqlandi. Qolgan hududlardagi ko'rsatkichlar esa past qiymatlarga ega bo'lmoqda. Mazkur tendensiyalarni omilli tadqiq qilganimizda, hududlardagi investitsiya meyori sanoat tarmog'ining yalpi mahsulotdagi ulushiga mutanosiblikni ifodalaganligini ochib berdik. Demak, viloyat shahar va tumanlarida investitsiya meyorini oshirish uchun taqsimotda sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirishga e'tibor qaratishimiz zarur. Jumladan, investitsiya salohiyati sanoat va xizmatlarga yuqori mutanosiblikni ifodalamoqda.

Bu esa, investitsiya jalb etishni optimal tartibga solishda tarmoqlar kesimi bo'yicha kapital ko'lamini kengaytirishni talab etadi. Natijada, mintaqadagi kapitaldan foydalanish darajasi ortadi. Uning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri kapital qaytimi hisoblanadi.

Shu bois, mintaq va uning hududlaridagi kapital qaytimini baholaymiz. Jumladan, 2010-2022 yillardagi Surxondaryo viloyatiga oid statistik ma'lumotlar asosida baholash jarayoni amalga oshirildi. Buning uchun, quyidagi ko'rinishga ega mulliflik yondashuvi ishlab chiqildi va foydalanildi.

$$KapQay_i^t = \frac{\sum_{j=1}^n Y_{ij}^t}{I_i^t * X_i^t} \quad (3.1.2)$$

3.1.3-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida kapital qaytimi ko'rsatkichi, birlikda¹¹³

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Surxondaryo viloyati	6,4	8,2	8,1	6,9	7,9	7,9	7,6	5,7	3,8	2,8	3,7	3,7	4,7	6,0
Termiz sh.	9,6	7,8	7,1	4,7	7,5	7,0	8,7	3,9	3,2	3,2	3,8	3,7	3,5	5,7
Oltinsoy	7,1	10,0	10,6	7,5	9,2	9,2	10,2	9,0	4,3	5,4	4,1	5,3	7,3	7,6
Angor	11,1	14,5	14,8	8,9	9,1	9,6	8,4	7,4	5,3	8,4	8,0	5,0	4,9	8,9
Bandixon											12,4	5,6	5,6	7,9
Boysun	1,7	3,8	4,0	3,4	3,5	3,6	3,4	3,1	2,1	0,3	0,5	1,1	1,0	2,4
Muzrabot	10,7	12,6	12,0	8,3	9,2	8,9	9,1	9,9	6,3	5,0	6,7	4,7	9,5	8,7
Denov	16,4	20,7	19,1	14,9	15,4	15,8	15,2	15,2	10,6	8,6	8,2	4,7	5,5	13,1
Jarqurg'on	8,5	10,5	10,3	6,6	7,3	7,5	7,2	6,6	3,9	4,6	5,9	8,4	7,5	7,3
Qumqurg'on	7,6	10,4	10,2	8,1	9,3	9,3	8,9	6,6	7,0	10,7	8,9	7,5	10,0	8,8
Qiziriq	13,1	10,2	10,2	7,1	8,0	8,0	7,4	7,8	3,7	8,1	7,9	5,3	7,8	8,1
Sariosiyo	2,6	4,8	4,9	3,9	4,6	4,8	4,1	3,6	2,6	2,8	3,6	1,7	3,3	3,6
Termiz	4,8	5,9	5,7	3,6	3,7	3,6	3,2	3,2	2,3	2,2	2,3	2,7	3,3	3,6
Uzun	12,8	19,2	18,0	11,0	12,5	12,9	11,3	10,2	9,8	6,7	6,8	6,1	9,1	11,3
Sherobod	12,0	14,0	13,9	9,8	9,5	9,9	8,8	2,9	1,4	7,1	4,9	5,2	8,6	8,3
Sho'rchi	12,4	16,4	16,7	10,6	11,3	10,9	11,3	9,6	8,1	8,4	7,4	6,9	8,4	10,7

¹¹³ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Bunda: $KapQay_i^t$ – viloyat i-hududining t-davrdagi kapital qaytimi ko'rsatkichi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida Surxondaryo viloyatida kapital qaytimi 2010-2022 yillarda 6 birlikka tengligini hisob-kitob qildik (3.1.3-jadval).

Shuningdek, shahar va tumanlari bo'yicha hisoblangan o'rtacha qiymatlar esa 7,7 birlikka teng. Shunday bo'lsada, Termiz shahri (5,7), Boysun (2,4), Sariosiyo (3,6), Termiz (3,6) tumanlari o'rtachadan past ko'rsatkichlarni ifodalagan. Buning asosiy sababi, mazkur hududlarga kiritilgan investitsiyalar ko'lamining yuqori sur'atlarga egaligi hamda ishga tushirish davriyligining uzoqligi bilan asoslaymiz. Demak, viloyat va uning hududlarida kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishda hamda uning iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ta'minlashda o'rta muddatli investitsiyalarga e'tibor qaratishimiz zarur. Bunda, investitsiyalarni jalb etish va taqsimlashni tartibga solishda ham mazkur holatni e'tiborga olishimiz, talab etiladi. Jalb qilishni tartibga solishda hududlar kesimida optimal taqsimotni amalga oshirish uchun davlat budjeti mablag'larini yo'naltirish hamda davlat kafolati ostidagi investitsiyalarni oshirish lozim. Chunki, investorlarni faoliyatga undovchi va istiqbolda kafolatlovchi mezon davlat ishtiroki hisoblanadi. Ya'ni, davlatning ishtiroki odatda investor uchun kafolat vazifasini bajarib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, investitsiya oqimi past hududlarda iqtisodiy zonalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o'z navbatida mintaqaning xususiyatiga xos o'rta muddatli investitsiyalar ko'lamini oshiradi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznesni kengaytirishga ham e'tibor qaratish zarur. Natijada, o'rta muddatli, istiqbolli investitsiyalar ko'lamini o'sadi hamda samaradorligi oshadi.

Yuqoridagilar qatori investitsiyalar ko'lamini ortishi o'z navbatida ish o'rinlarini yaratishga, qo'shimcha mahsulot hajmini o'sishiga hamda asosiy fondlarning yangilanishi va kengayishiga olib keladi. Mazkur uzviylikning natijaviy ko'rsatkichlaridan biri bu kapitalintensivlik hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni baholash uchun quyidagi ko'rinishdagi mulliflik yondashuvini ishlab chiqdik.

$$KI_i^t = \left[HI_i^t / I^t \right] / \left[HBS_i^t / JBS^t \right] \quad (3.1.3)$$

Bunda: KI_i^t – i-hududning t-davrdagi kapitalintensivlik ko‘rsatkichi, birlikda;
 HI_i^t – i-hududga t-davrdagi jalb etilgan investitsiya hajmi;

I^t – viloyatga t-davrdagi jalb etilgan investitsiya hajmi;

HBS_i^t – i-hududda t-davrdagi ish bilan band bo‘lganlar soni;

JBS^t – viloyatda t-davrdagi ish bilan band bo‘lganlar soni.

Mazkur yondashuv asosida Surxondaryo viloyati shahar va tumanlaridagi 2010-2022 yillar bo‘yicha holatni baholadik. Amalga oshirilgan tahlil natijalarini ifodalashicha, mintaqahududlarida o‘rtacha kapital intensivlik 1 ga teng bo‘lgan. Bizga ma‘lumki, mazkur kattalik qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik ijobiy hisoblanadi. Viloyatda o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichlar Termiz shahri (1,4), Boysun (3,3), Sariosiyo (1,4), Termiz (1,7) tumanlarida aniqlangan (3.1.4-jadval).

Shuningdek, past ko‘rsatkichlar Oltinsoy (0,6), Muzrabod (0,6), Denov (0,6), Qumqo‘rg‘on (0,6), Uzun (0,5), Sho‘rchi (0,4) tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

Shuni ham alohida ta‘kidlaymizki, viloyatning 4 ta hududida o‘rtachadan yuqori holat aniqlangan bo‘lib, qolgan 11 ta hududdagi ko‘rsatkichlar esa o‘rtachadan past holatni ifodalamoqda. Mazkur ko‘rsatkich investitsiyaning samaradorlik mezonlaridan biri bo‘lib qolmay, ishlab chiqarishning qolgan omillari samaradorligiga ham ta‘sir qiladi. Jumladan, kapitalintensivlik mehnat unumdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etuvchi mezon hisoblanadi. Shu bois, viloyat va uning hududlaridagi mehnat samaradorligini alohida baholaymiz. Tadqiqot davomida quyidagi uslubni ishlab chiqdik va qo‘lladik.

$$MU_i^t = \left[YM_i^t / YHM^t \right] / \left[HBS_i^t / JBS^t \right] \quad (3.1.4)$$

Bunda: MU_i^t – i-hududning t-davrdagi mehnat samaradorligi, koeffitsiyentda;

YM_i^t – i-hududning t-davrdagi yalpi mahsuloti hajmi;

YHM^t – viloyatda t-davrdagi yaratilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi.

Shuningdek, yuqoridagi yondashuvda shahar va tumanlardagi yalpi mahsulot hajmini aniqlash uchun quyidagi usuldan foydalanamiz.

3.1.4-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida kapital intensivlik ko'rsatkichi, koeffitsiyentda¹¹⁴

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	0,6	0,9	1,0	1,5	1,4	1,4	1,3	2,2	1,9	1,3	1,4	1,7	2,2	1,4
Oltinsoy	0,7	0,6	0,6	0,7	0,7	0,7	0,6	0,5	0,5	0,3	0,5	0,4	0,4	0,6
Angor	0,6	0,6	0,6	0,8	0,9	0,8	0,9	0,7	0,7	0,3	0,4	0,7	0,9	0,7
Bandixon											0,3	0,8	1,0	0,7
Boysun	2,9	1,7	1,7	1,9	2,1	2,0	2,0	1,6	1,7	10,2	7,1	3,1	4,4	3,3
Muzrabot	0,4	0,5	0,5	0,7	0,7	0,7	0,7	0,5	0,5	0,5	0,6	0,9	0,6	0,6
Denov	0,5	0,5	0,6	0,6	0,7	0,6	0,6	0,4	0,4	0,4	0,5	0,7	0,7	0,6
Jarqurg'on	0,8	0,8	0,8	1,2	1,2	1,1	1,1	0,9	1,1	0,7	0,7	0,5	0,7	0,9
Qumqurg'on	0,6	0,6	0,6	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,5	0,2	0,4	0,6	0,5	0,6
Qiziriq	0,3	0,6	0,7	0,8	0,9	0,8	0,9	0,7	1,0	0,3	0,6	0,8	0,6	0,7
Sariosiyo	1,6	1,2	1,2	1,4	1,4	1,3	1,4	1,2	1,4	1,1	1,0	2,4	1,4	1,4
Termiz	1,1	1,2	1,3	1,8	2,1	2,0	2,3	1,8	1,7	1,4	2,1	1,7	1,9	1,7
Uzun	0,5	0,5	0,5	0,6	0,7	0,6	0,6	0,5	0,3	0,3	0,4	0,4	0,4	0,5
Sherobod	0,5	0,5	0,5	0,7	0,8	0,7	0,8	1,8	2,6	0,5	0,9	0,8	0,7	0,9
Sho'rchi	0,4	0,4	0,4	0,5	0,5	0,5	0,5	0,4	0,4	0,2	0,4	0,4	0,5	0,4

¹¹⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

3.1.5-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi, koeffitsiyentda¹¹⁵

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ўртача
Termiz sh.	0,96	0,87	0,84	1,00	1,32	1,27	1,47	1,48	1,64	1,44	1,45	1,67	1,62	1,31
Oltinsoy	0,75	0,78	0,82	0,80	0,87	0,78	0,82	0,78	0,58	0,62	0,58	0,60	0,56	0,72
Angor	0,99	1,05	1,06	1,05	1,06	0,98	0,96	0,94	0,97	0,90	0,80	0,91	0,93	0,97
Bandixon											1,01	1,18	1,22	1,14
Boysun	0,77	0,78	0,84	0,92	0,95	0,89	0,87	0,87	0,95	0,97	0,88	0,89	0,89	0,88
Muzrabot	0,75	0,74	0,77	0,83	0,84	0,75	0,80	0,92	0,91	0,93	1,11	1,16	1,16	0,90
Denov	1,36	1,35	1,34	1,35	1,30	1,16	1,14	1,19	1,13	1,10	1,00	0,89	0,85	1,17
Jarqo'rg'on	1,05	1,03	1,03	1,11	1,10	1,03	1,03	1,03	1,10	1,12	1,18	1,15	1,09	1,08
Qumqo'rg'on	0,70	0,71	0,75	0,81	0,86	0,81	0,81	0,82	0,86	0,93	0,99	1,10	1,01	0,86
Qiziriq	0,71	0,79	0,83	0,86	0,91	0,86	0,89	1,01	0,95	0,89	1,17	1,10	0,91	0,91
Sariosiyo	0,65	0,70	0,71	0,80	0,83	0,80	0,73	0,76	0,99	1,13	0,96	1,06	0,99	0,86
Termiz	0,81	0,84	0,87	0,96	0,98	0,91	0,97	1,02	1,05	1,12	1,30	1,23	1,30	1,03
Uzun	0,99	1,06	1,01	1,02	1,06	0,99	0,94	0,83	0,83	0,67	0,69	0,72	0,70	0,89
Sherobod	0,87	0,94	0,93	0,97	0,95	0,90	0,88	0,91	1,00	1,18	1,12	1,16	1,22	1,00
Sho'rchi	0,72	0,72	0,74	0,76	0,75	0,66	0,68	0,69	0,76	0,73	0,76	0,78	0,81	0,74

¹¹⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

$$YM_i^t = SM_i^t + QM_i^t + QXM_i^t + XM_i^t \quad (3.1.5)$$

Bunda: SM_i^t – i-hududda t-davrda yaratilgan jami sanoat mahsulotlari hajmi;

QM_i^t – i-hududda t-davrda yaratilgan jami qurilish mahsulotlari hajmi;

QXM_i^t – i-hududda t-davrda yaratilgan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi;

XM_i^t – i-hududda t-davrda xizmatlar sohasida yaratilgan jami mahsulotlar hajmi.

Shuni alohida ta’kidlaymizki, ushbu yondashuv asosida aniqlangan ko‘rsatkichlarning qiymati qancha yuqori bo‘lsa, shunchalik ijobiy hisoblanadi.

Shunday bo‘lsada, amalga oshirilgan hisob-kitoblarimiz natijasida Surxondaryo viloyatining o‘rtacha ko‘rsatkichi 0,96 birlikka teng bo‘lgan (3.1.5-jadval).

Viloyatning 6 ta hududidagi aniqlangan ko‘rsatkichlar 1 dan yuqori bo‘lib, ular Termiz shahri (1,31), Bandixon (1,14), Denov (1,17), Jarqo‘rg‘on (1,08), Termiz (1,03), Sherobod (1,0) tumanlaridir. Ushbu ko‘rsatkichlar kapital qaytimi, kapitalintensivlik ko‘rsatkichiga bog‘liqlikni ifodalagan. Mazkur hududlardagi ijobiy ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarishini omilli tadqiq etganimizda kapital qaytimi hamda kapital intensivlik darajasiga to‘g‘ri bog‘liq ekanligini aniqladik. Bu esa, mintaqa va uning hududlarida iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik mezonlari investitsiya bilan kuchli bog‘liqligini ifodalaydi.

Demak, viloyatda omillar samaradorligini oshirish va ularning ijobiy o‘zgarishlarini ta’minlash uchun quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ko‘lamini oshirish lozim. Buning uchun mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy va sanoat zonalarini tashkil qilish hamda kengaytirishga e’tibor qaratish;

viloyatda aholi va tijorat banklari mablag‘lari ko‘lamini oshirish zarur. Ushbu yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha, mazkur mablag‘lar ko‘lami infratuzilma obyektlari, xususan, tijorat banklari soni va filiallari joylashuviga

mutanosib bo'lgan. Shuning uchun hududlarda tijorat banklari filiallari sonini ko'paytirish;

viloyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri respublika chegara viloyati ekanligini hisobga olib, logistika tizimini rivojlantirish;

viloyatda mavjud tabiiy resurslarni qayta ishlashga qaratilgan hududlararo loyihalarni kengaytirish;

viloyatning qishloq xo'jaligi salohiyatining yuqoriligi bois, agrar soha infratuzilmasini rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishda kapital ko'lamini oshirish zarur. Bunda, mazkur yo'nalishdagi faoliyat uchun iqtisodiy zonalar tashkil etish hamda imtiyozli kreditlash amaliyotini joriy qilish lozim.

3.2. Mintaqada jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishning ekonometrik modellarini takomillashtirish

Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning barqaror o'sish davomiyligini ta'minlashda soha va tarmoqlarni YaHMDagi ulushini oshirish muhim. Avvalgi bobda amalga oshirgan tahlillarimizdan ko'rdikki, YaHMDagi yetakchi ulush qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lib, sanoat va qurilishning ulushi o'rtacha 6-7 foiz oralig'idagi kattalikka ega bo'lgan. Bu esa, iqtisodiyotda mazkur tarmoqlarni rivojlantirishni, ular ko'lamini oshirishni talab etmoqda. Shu bois, mazkur sohalarga investitsiyalar ta'sirini baholashimiz lozim. Chunki, investitsiyalar hisobiga yangi korxonalarning barpo etilishi, qo'shimcha mahsulot yaratilishiga erishiladi. Shunday bo'lsada, investitsiyalar ta'sirini baholashda, umumiy hajmini ta'srinigina emas, balki uning manbalari ta'sirchangligiga ham alohida e'tibor qaratdishimiz zarur. Tadqiqotlarni amalga oshirishda ekonometrik usullardan foydalanamiz.

Bunda, viloyatning YaHM tarkibiy tuzilishiga xos xususiyatdan kelib chiqib tadqiqotlar olib boramiz. Jumladan, sanoat, qurilish va xizmatlar ko'lamini oshirish ustuvor hisoblanadi. Chunki, viloyatda sanoatning YaHMDagi ulushi bo'yicha respublika mintaqalari orasida ortda qolmoqda. Shu bois, viloyatdagi yuqorida qayd

etilgan tarmoqlar ulushini oshirishga e'tibor qaratamiz. Bunda ularni ulushini oshirishda investitsiya manbalari ta'sirini tadqiq qilamiz.

Jumladan, sanoatning ulushiga investitsiya manbalari ulushining ta'sirini regressiya tenglamasini tuzib oldik.

$$San_ul_t = KMul_t^{a1} * DMul_t^{a2} * ATBMul_t^{a3} * XMul_t^{a4} \quad (3.2.1)$$

Bunda: San_ul_t – mintaqada t-davrda yaratilgan sanoat mahsulotining YaHMDagi ulushi;

$KMul_t$ – mintaqada t-davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalaridagi korxona o'z mablag'lari ulushi;

$DMul_t$ – mintaqada t-davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalaridagi davlat mablag'lari ulushi;

$ATBMul_t$ – mintaqada t-davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalaridagi aholi va tijorat banklari mablag'lari ulushi;

$XMul_t$ – mintaqada t-davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalaridagi xorijiy mablag'lar ulushi;

a_1, a_2, a_3, a_4 – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

(3.2.1) tenglikni logarifmlash asosida amaliyotda qo'llaymiz. Ya'ni:

$$\log(San_ul_t) = a_1 * \log(KMul_t) + a_2 * \log(DMul_t) + a_3 * \log(ATBMul_t) + a_4 * \log(XMul_t) \quad (3.2.2)$$

Surxondaryo viloyatiga tegishli 2010-2022 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida regression tahlillarni amalga oshirdik. Natijada, mintaq iqtisodiyotiga xos bo'lgan quyidagi xususiy ko'rinishdagi regressiya tenglamasini ishlab chiqdik (3.2.1-ilova).

$$\log(San_ul_t) = 0,35 + 0,12 * \log(KMul_t) + 0,05 * \log(DMul_t) + 0,086 * \log(ATBMul_t) + 0,11 * \log(XMul_t) \quad (3.2.3)$$

Tahlil natijalarini ifodalashicha, sanoat ulushiga yuqori ta'sir qilayotgan manbalar korxona o'z mablag'lari hamda xorijiy investitsiyalar ulushi hisoblanadi. Jumladan, jami investitsiyadagi korxona o'z mablag'lari ulushining 1 foizga o'sishi

sanoatning YaHMDagi ulushini 0,12 foizga, xorijiy investitsiyalar ulushining 1 foizga o'sishi esa 0,11 foizga ortishiga olib kelmoqda.

Bu holat omilli tadqiq qilinganda, viloyatda qazib olish va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar ko'lami ortib borayotganligini aniqladik. Shuningdek, tijorat banki kreditlari va aholi mablag'lari asosan xizmatlar sohasi va qurilish yo'nalishidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yo'naltirilganligini aniqladik. Shuningdek, sanoatning tarkibiy tuzilishida ham qazib olish va qayta ishlash sanoati yetakchi ulushga ega bo'lmoqda. Shu bois, yuqoridagi ikki manbaning ta'siri katta bo'lmoqda.

Shuningdek, sanoatning YaHMDagi ulushining ijobiy o'zgarishlarini yuqoridagi mutanosib o'zgarishni ikki manba bilan bog'liqlikda tahlil qildik. Natijada, korxona o'z mablag'larining ulushi o'rtacha 47 foiz, xorijiy investitsiyalarning ulushi esa, o'rtacha 29 foiz davrida sanoatning YaHMDagi ulushining ijobiy o'zgarishi ta'minlanganligini aniqladik. Shu bilan birga, qolgan 2 manba ulushi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijasini ifodalashicha, davlat mablag'lari ulushining optimal miqdori 7 foizga hamda aholi va tijorat banklari kreditlarining ulushi 17 foizga teng bo'lishi maqbul daraja bo'lmoqda.

Shuningdek, qurilish tarmog'i va unga investitsiyalarning manbalarni tarkibiy ta'sirini ekonometrik tahlil qilamiz. Buning uchun regressiya tenglamasini ishlab chiqamiz.

$$Qur_ul_t = KMul_t^{b1} * DMul_t^{b2} * ATBMul_t^{b3} * XMul_t^{b4} \quad (3.2.4)$$

Bunda: Qur_ul_t – mintaqada t-davrda yaratilgan qurilish mahsulotining YaHMDagi ulushi;

b_1, b_2, b_3, b_4 – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

Yuqoridagi tenglikni qo'llash uchun logarifmlaymiz.

$$\begin{aligned} \log(Qur_ul_t) = & b_1 * \log(KMul_t) + b_2 * \log(DMul_t) + b_3 * \\ & \log(ATBMul_t) + b_4 * \log(XMul_t) \end{aligned} \quad (3.2.5)$$

Mazkur tenglikni Surxondaryo viloyatining 2010-2022 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida regression tahlil qildik va quyidagi chiziqli modelga ega bo'ldik (3.2.2-ilova).

$$\log(Qur_ul_t) = 0,12 * \log(KMul_t) + 0,29 * \log(DMul_t) + 0,36 * \log(ATBMul_t) + 0,38 * \log(XMul_t) - 0,52 \quad (3.2.6)$$

Olingan natijalarni ifodalashicha, investitsiyalardagi korxona mablag'larining ulushi 1 foizga oshsa qurilishning YaHMDagi ulushi 0,12 foizga, davlat mablag'lari ulushining 1 foizga o'sishi qurilishning 0,29 foizga, aholi va tijorat banklari mablag'larining hamda xorijiy investitsiyalarning 1 foizga o'sishi qurilishning YaHMDagi ulushini mos ravishda 0,36 va 0,38 foizlarga o'sishini ta'minlamoqda. Tahlil natijalarini ifodalashicha, yuqori ta'sirchanlik, xorijiy investitsiyalar hamda aholi va tijorat banklari mablag'lariga to'g'ri kelmoqda. Bu esa, viloyatda jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish – montaj ishlariga mablag' ajratish ustuvorlikka egaligini ifodalaydi. Ya'ni, aksariyat xorijiy mablag'lar jalb etilishi hisobiga yangi korxona va tashkilotlar barpo etilayotganligini anglatadi.

Shuningdek, aholi va tijorat banklari mablag'larining yuqori ta'sir darajasini mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini yuqoriligi hamda qurilish sohasining asosini tashkil qilishi bilan asoslaymiz. Jumladan, kichik biznesda tadbirkorlik kapitalining katta hissasini xususiy hamda kredit mablag'lari tashkil qiladi. Shu bilan birga, davlat mablag'larining kuchli ta'siri ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq holat hisoblanadi. Korxona o'z mablag'lari manbasining ta'siri ijobiy bo'lsada, nisbatan pastligi – ularning asosiy qismi mashina va asbob-uskunalar xaridiga yo'naltirilayotganligidandir.

Shu bilan birga, qurilish tarmog'ining YaHMDagi ulushini ijobiy o'zgargan davrini investitsiya manbalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini ham alohida tadqiq etdik. Bunda, investitsiya manbalarining o'rtacha o'zgarishlari, ularning qo'shimcha o'zgarish miqdorlari asosida tadqiq qildik. Olingan tadqiqotimiz natijalarini ifodalashicha, jalb etilayotgan investitsiya manbalarining optimal

miqdorlari o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega bo'lmoqda. Jumladan, korxona mablag'larini ulushi 46 foiz, davlat mablag'lari ulushi 6 foiz, aholi va tijorat banklari mablag'lari ulushi 17 foiz hamda xorijiy investitsiyalarning ulushi 31 foizga teng bo'lgan.

O'z navbatida, sanoat va qurilish tarmoqlarining kengayishi xizmatlar sohasining ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, xizmatlar sohasi ishlab chiqarish tarmoqlari qatori kapital va mehnat omili ta'sirida ham kengayadi. Jumladan, investitsiyalar ta'sirini alohida baholaymiz. Bunda, xizmatlar bilan investitsiya manbalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasini tuzamiz va undan foydalanish uchun logarifmlash amaliyotini qo'llaymiz.

$$Xiz_ul_t = KMul_t^{d1} * DMul_t^{d2} * ATBMul_t^{d3} * XMul_t^{d4} \quad (3.2.7)$$

Bunda: Xiz_ul_t – mintaqada t-davrda yaratilgan xizmatlarning YaHMDagi ulushi;

d_1, d_2, d_3, d_4 – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

$$\log(Xiz_ul_t) = d_1 * \log(KMul_t) + d_2 * \log(DMul_t) + d_3 * \log(ATBMul_t) + d_4 * \log(XMul_t) \quad (3.2.8)$$

Surxondaryo viloyati statistik ma'lumotlari asosida quyidagi chiziqli bog'liqlikni hosil qildik (3.2.3-илова).

$$\log(Xiz_ul_t) = 0,059 * \log(KMul_t) + 0,033 * \log(DMul_t) + 0,029 * \log(ATBMul_t) + 0,008 * \log(XMul_t) + 1,87 \quad (3.2.9)$$

Regression tahlil natijalarini ifodalashicha, xizmatlar sohasiga milliy investitsiyalarning ta'siri nisbatan kuchli ekanligini aniqladik. Jumladan, korxona mablag'larining ulushi 1 foizga o'sishi xizmatlarning YaHMDagi ulushini 0,059 foizga, davlat mablag'larining ulushi esa 0,033 foizga, aholi va tijorat banklari mablag'larining 1 foizga o'sishi 0,029 foizga hamda xorijiy mablag'larning ulushi esa 0,008 foizga o'sishiga olib keladi. Jumladan, xorijiy mablag'larga nisbatan korxona mablag'lari 7,3 marta, davlat mablag'lari 4,1 marta, aholi va tijorat mablag'lari 3,6 marta kuchli ta'sir etmoqda.

Demak, viloyatda xizmatlar sohasini rivojlantirishda asosiy manba ichki investitsiyalar hisoblanar ekan. Bu esa, mintaqada turizm salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotganligini, asosiy xizmatlar mahsuloti an'anaviy tarmoqlarda yaratilayotganligini ifodalaydi. Ushbu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun mintaqaning chegaradoshligini va respublika markazidan uzoqligini hamda mavjud salohiyatini hisobga olib quyidagilarni taklif etamiz:

logistika xizmatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar va dasturlar qabul qilish;

qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlarini barpo qilish va rivojlantirish;

turizm bo'yicha erkin zonalarini hamda turizm klasterlarini tashkil etish.

Shuningdek, xizmatlar sohasini YaHMDagi ulushini oshirish va iqtisodiyotga ta'sirini kengaytirish uchun sohaga jalb etilayotgan investitsiyalarni optimallashtirish talab etiladi. Bunda, amalga oshirilgan tahlillarimizga muvofiq investitsiyalardagi korxona o'z mablag'lari ulushini 43 foiz, davlat mablag'lari ulushini 9 foiz, aholi va tijorat banklari mablag'lari ulushini 21 foiz hamda xorijiy mablag'lar ulushini 27 foiz bo'lishini optimal miqdorlar ekanligini hisob-kitoblarimiz asosida aniqladik.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda mintaqaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga investitsiyalar ta'sirini, ularni jalb etishning optimal darajalarini baholadik. Shu bilan birga, ijtimoiy ko'rsatkichlarga, aholi turmush darajasiga investitsiyalar ta'sirini alohida tadqiq qilamiz. Bunda, yuqorida amalga oshirgan tahlillarimizning mantiqiy davomi sifatida investitsiya manbalarining ish bilan bandlik darajasi, ish haqi hajmiga ta'sirchanligini ham aniqlaymiz.

Viloyatda ish bilan bandlik darajasi va unga investitsiya manbalarining bog'liqligini ifodalovchi quyidagi ko'rinishdagi ko'p omilli regressiyanı tuzdik.

$$BD_t = KMul_t^{f1} * DMul_t^{f2} * ATBMul_t^{f3} * XMul_t^{f4} \quad (3.2.10)$$

Bunda: BD_t – mintaqada t-davrdagi ish bilan bandlik darajasi;

$f1, f2, f3, f4$ – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

$$\log(BD_t) = f_1 * \log(KMul_t) + f_2 * \log(DMul_t) + f_3 * \log(ATBMul_t) + f_4 * \log(XMul_t) \quad (3.2.11)$$

Viloyatda 2010-2022 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlillarimiz natijasida quyidagi tenglikni hosil qildik (3.2.4-ilova).

$$\log(BD_t) = 0,75 * \log(KMul_t) + 0,016 * \log(DMul_t) + 0,047 * \log(ATBMul_t) + 0,059 * \log(XMul_t) + 1,64 \quad (3.2.12)$$

Demak, viloyatda ish bilan bandlik darajasi o'zgarishiga korxona o'z mablag'lari, xorijiy investitsiyalar hamda aholi va tijorat banklari mablag'lari kuchli ta'sir etmoqda. Aholi mablag'lari va tijorat banki kreditlari ta'sirining yuqoriligini mintaqada ish bilan bandlikni kichik biznes sohasi ta'minlayotganligi bilan asoslaymiz. Jumladan, viloyatda kichik biznesda bandlar soni viloyatdagi jami ish bilan bandlarning $\frac{3}{4}$ qismini tashkil qilmoqda. Ya'ni, ushbu sohada tadbirkorlik kapitalining asosini tadbirkor mablag'i yohud tijorat banklari kreditlari tashkil etadi. Shuningdek, xorijiy mablag'lar ulushining yuqori ta'sirchaligiga sabab – mintaqaga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarining sanoatga yo'naltirilganligi bilan asoslaymiz. Jumladan tabiiy resurslarni qayta ishlash faoliyati asosan xorijiy mablag'lar hisobiga yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa, yangi ish o'rinlarini yaratishga, ish bilan bandlik darajasining o'sishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, oxirgi yillarda respublika va uning hududlarida investitsiyalarni jalb etish ko'lamini oshirish bo'yicha qator choralar ko'rilmogda. Mazkur usullarning samaralilaridagn biri soliq yukining oxirgi 5 yilda 1,5 marta pasayganligi. Buning natijasida, korxonalar tomonidan investitsion faoliyatni kengaytirish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shuningdek, ish bilan bandlik darajasining ijobiy o'zgargan davrlari asosida investitsiya manbalaridagi korxona mablag'lari, davlat mablag'lari, aholi va tijorat banklari kreditlari, hamda xorijiy mablag'lar darajasi tahlil qildik. Natijada, korxona mablag'larining ulushi 48 foiz, davlat budjeti mablag'lari 8 foiz, aholi va tijorat banklari mablag'lari 17 foiz va xorijiy mablag'larning ulushi 27 foizga teng bo'lgan optimal miqdorni aniqladik. Ya'ni,.

Yuqoridagilar qatori ish haqqi o'zgarishi uchun investitsiya manbalarining ta'sirini ham baholadik.

$$IshHaq_t = KMul_t^{c_1} * DMul_t^{c_2} * ATBMul_t^{c_3} * XMul_t^{c_4} \quad (3.2.13)$$

Bunda: $IshHaq_t$ – mintaqada t-davrdagi ish haqqi hajmi;

c_1, c_2, c_3, c_4 – empirik tadqiqotlar asosida olinadigan koeffitsiyentlar.

$$\log(IshHaq_t) = c_1 * \log(KMul_t) + c_2 * \log(DMul_t) + c_3 * \log(ATBMul_t) + c_4 * \log(XMul_t) \quad (3.2.14)$$

Viloyatning 2010-2022 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida olib borgan hisob-kitobimiz natijasida quyidagi tenglikni ishlab chiqdik (3.2.5-ilova).

$$\log(IshHaq_t) = 1,35 * \log(KMul_t) + 0,71 * \log(DMul_t) + 1,08 * \log(ATBMul_t) + 1,51 * \log(XMul_t) + 0,22 \quad (3.2.15)$$

Olingan natijalarni ifodalashicha, korxona mablag'larining, davlat budjeti mablag'larining, aholi va tijorat banklari hamda xorijiy mablag'larning 1 foizga o'sishi mos ravishda ish haqqining real darajasini 1,35, 0,71, 1,08, 1,51 foizlarga oshishiga olib keladi. Demak, iqtisodiyotda aholi turmush darajasi va ularning daromadlarini oshirish uchun korxona mablag'lari hamda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish zarur. Ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'lamini oshirish talab etiladi.

3.2.1-jadval

Surxondaryo viloyatida soha va tarmoqlar bo'yicha investitsiyalar manbalarining optimal darajalari¹¹⁶

T/r	Soha va tarmoq nomi	Korxona o'z mablag'i ulushi	Davlat budjeti mablag'lari ulushi	Aholi va tijorat banklari mablag'lari ulushi	Xorijiy mablag'lar
1	Sanoat sohasi uchun optimal ko'rsatkichlar	47	7	17	29
2	Qurilish sohasi uchun optimal ko'rsatkichlar	46	6	17	31
3	Xizmatlar sohasi uchun optimal ko'rsatkichlar	43	9	21	27

¹¹⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

4	Ish bilan bandlik darajasi uchun optimal ko'rsatkichlar darajasi	48	8	17	27
5	O'rtacha optimal ko'rsatkichlar	46	7	18	29

Yuqorida olib borgan tadqiqotlarga ekonometrik tahlil natijalariga, viloyatdagi soha va tarmoqlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga hamda ularning investitsiya va uning manbalaridagi o'zgarishlariga mutanosibligini o'rganish hamda ekspert usullarini qo'llash natijasida Surxondaryoda o'rta muddatlar uchun investitsiya manbalarining taqsimotini maqbul ulushini ishlab chiqdik. Jumladan, Surxondaryo viloyati uchun o'rta davrlarga investitsiyalarni jalb etishning manbalari bo'yicha optimal darajalar sifatida korxona mablag'lari ulushi 46 foiz, davlat budjeti mablag'lari 7 foiz, aholi va tijorat banklari mablag'lari 18 foiz va xorijiy mablag'larning ulushi 29 foiz bo'lishini ta'minlash zarur (3.2.1-jadval).

Surxondaryo viloyatida investitsiyalar jalb etishni tartibga solishda manbalarining maqbul darajasini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

viloyatda jalb etilayotgan investitsiyalar bo'yicha dasturlarni takomillashtirish lozim. Bunda, mintqa xususiyatidan kelib chiqib, korxona o'z mablag'lari va xorijiy mablag'larni rag'batlantirish;

aholi mablag'larini iqtisodiyotga faol kapital sifatida samarali jalb etishda tadbirkorlik faoliyati uchun sanoat zonalarini takomillashtirish va kengaytirish;

turizm klasterlarini va iqtisodiy zonalarini tashkil etish orqali to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'lamini oshirish zarur.

Bu esa, soha va tarmoqlarning YaHMDagi ulushi va ularda yaratilgan mahsulot hajmining o'sishiga, aholi ish bilan bandlik darajasi o'sishi hamda turmush darajasining oshishiga olib keladi. Umumiy holda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligi ta'minlanadi.

3.3. Mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish istiqbollari

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish o‘z navbatida kuchli ta’sir qiluvchi omillarni ochib berishni talab etadi. Bu o‘rinda, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar doirasida eng keng tarqalgan usullar ekonometrik va prognoz usullari hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, iqtisodiyot rivojlanishi, unga omillar bog‘liqligini tadqiq qilishda PESTEL va SWOT-tahlil usullari muhim sanaladi. Bunda, investitsiyalar ko‘lamini oshirish, ularning oqilona hamda samarali taqsimotini ta’minlash bilan bog‘liq omillarni ochib berish imkoniga ega bo‘lamiz. Jumladan, ushbu omillarni aniqlash investitsiyalarni jalb etish bilan emas, balki ularni taqsimotini optimal tartibga solishga ham bevosita bog‘liq.

Shu bois, dastlab investitsiyalarni jalb qilish va optimal tartibga solishning PESTEL va SWOT-tahlil usullarini qo‘llaymiz. Xususan, Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etish va ular ko‘lamini oshirish hamda optimal tartibga solishning istiqbolli yo‘nalishlarining muhim omillarini PESTEL-tahlil asosida baholadik (3.3.1-jadval). Bunda, mazkur masala bilan bog‘liq viloyatdagi siyosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy xujjatlar;
- soliq tizimi, ular bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari;
- mintaqaga investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar;
- investitsiyalarni jalb qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimi;

Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb qilish dasturi va uni takomillashtirish.

3.3.1-jadval

Surxondaryo viloyatida jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishning PESTEL-tahlili¹¹⁷

<i>P-omillari (siyosiy)</i>	<i>E-omillari (iqtisodiy)</i>
investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy xujjatlar;	YaHM, uning o‘rish sur‘ati;
soliq tizimi, ular bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari;	YaHMning tarkibiy tuzilishi, soha va tarmoqlarning ulushi;
mintaqaga investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar;	YaHMning iste‘mol tarkibi;
	mintaqaning investitsiya salohiyati;
	investitsiyalar darajasi va meyori;

¹¹⁷ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

investitsiyalarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi; Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb qilish dasturi va uni takomillashtirish	asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning manbalari bo'yicha tarkibi; investitsiyalarning texnologik tarkibi; investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi; ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi; tabiiy resurslar va xom ashyo darajasi
S-omillar (ijtimoiy) aholi soni, uning o'sish sur'ati va tarkibi; mehnat resurslari soni va tarkibi; ish bilan bandlik darajasi va uning sohalar bo'yicha taqsimoti; aholi jon boshiga daromad hamda uning shahar va tumanlar bo'yicha disproporsiyasi; o'rtacha ish haqi va uning tarmoqlar bo'yicha disproporsiyasi; tibbiy muassasalar, xodimlar soni; ta'lim tizimi va uning tuzilishi; migratsiya holati; ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi	T-omillari (texnologik) mintaqa va uning hududlarini innovatsion salohiyati; ilmiy tadqiqot va tashkiliy konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda uning mulkchilik bo'yicha tarkibi; axborot texnologiyalari tizimi va unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlanganligi; texnologiyalar transferi, xorijiy texnologiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati; innovatsion infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik holati
E-omillar (ekologik) ekologik vaziyat va barqarorlik; korxona va tashkilotlar faoliyatining ekologiya hamda atrof-muhitga ta'siri; mintaqa tabiatining o'ziga xosligi, tabiiy resurslaridan foydalanish tartibi; yerlarning sho'rlanish darajasi va meliorativ holati; mintaqa va uning hududlarida sug'orish hamda irrigatsiya tizimi	L-omillar (huquqiy) investitsiya faoliyati, jalb etish tizimi va foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslari; iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar; mintaqa hamda uning hududlarida sanoat zonalarini tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar; mintaqa va uning shahar hamda tumanlarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar; xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan mintaqaviy huquqiy hujjatlarning mavjudligi

Shu bilan birga, mintaqalarda investitsiyalarni jalb etish va ularni optimal tartibga solish hamda samaradorligini oshirishda iqtisodiy omillar ham muhim. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi omillarni aniqladik:

YaHM, uning o'sish sur'ati;

YaHMning tarkibiy tuzilishi, soha va tarmoqlarning ulushi;

YaHMning iste'mol tarkibi;

mintaqaning investitsiya salohiyati;

investitsiyalar darajasi va meyori;

asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning manbalari bo'yicha tarkibi;

investitsiyalarning texnologik tarkibi;
investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi;
ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi;
tabiiy resurslar va xom ashyo darajasi.

Shuningdek, investitsiyalarni jalb etish va uning taqsimoti iqtisodiy mezonlarhisoblansada, mazkur jarayon ko‘p jihatdan inson omiliga ham bog‘liq. Ya’ni, investorning asosiy maqsadi foyda olish bo‘lgani bois, ishchi kuchi malakasi muhim hisoblanadi. Shu maqsadda Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etish va optimal tartibga solishning ijtimoiy omillarini ham tadqiq qildik hamda muhimlarini ajratdik:

aholi soni, uning o‘sish sur‘ati va tarkibi;
mehnat resurslari soni va tarkibi;
ish bilan bandlik darajasi va uning sohalar bo‘yicha taqsimoti;
aholi jon boshiga daromad hamda uning shahar va tumanlar bo‘yicha disproporsiyasi;
o‘rtacha ish haqi va uning tarmoqlar bo‘yicha disproporsiyasi;
tibbiy muassasalar, xodimlar soni;
ta’lim tizimi va uning tuzilishi;
migratsiya holati;
ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi.

Shu o‘rinda, inson kapitalini rivojlanishi hamda viloyatga jalb etilgan investitsiyalar ko‘lamini o‘sishi texnika-texnologiyalar darajasini o‘zgarishiga olib keladi. Shunday bo‘lsada, investitsiyalar ko‘lamini oshirishda mavjud texnika-texnologiya darajasi va uning infratuzilma tizimi ham muhim hisoblanadi. Bu esa, texnologik omillarni tadqiq qilishni talab etadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasida Surxondaryo viloyati uchun muhim deb topgan quyidagi omillarni aniqladik:

mintaqa va uning hududlarini innovatsion salohiyati;
ilmiy tadqiqot va tashkiliy konstruktorlik ishlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hamda uning mulkchilik bo‘yicha tarkibi;

axborot texnologiyalari tizimi va unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlanganligi;

texnologiyalar transferi, xorijiy texnologiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati;

innovatsion infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik holati.

Surxondaryo viloyati va uning hududlarini o'ziga xos xususiyatlaridan biri, mazkur mintaqadagi tabiiy-iqlim sharoiti hisoblanadi. Bu esa, mintaqaning ekologik omillarini tadqiq etishni talab qiladi. Natijada, mintaq va uning hududlari xususiyatidan kelib chiqib, ekologik omillarni baholadik:

ekologik vaziyat va barqarorlik;

korxona va tashkilotlar faoliyatining ekologiya hamda atrof-muhitga ta'siri;

mintaqa tabiatining o'ziga xosligi, tabiiy resurslaridan foydalanish tartibi;

yerlarning sho'rlanish darajasi va meliorativ holati;

mintaqa va uning hududlarida sug'orish hamda irrigatsiya tizimi.

Yuqoridagi omillar bilan birga, huquqiy hujjatlar ham mintaq va uni rivojlantirish, investitsiyalar ko'lamini oshirish hamda soha va tarmoqlar kesimida optimal tartibga solishda muhim sanaladi. Ayniqsa, mintaqani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan meyoriy-hujjatlar va ularni mavjudligini baholash muhim, deb hisoblaymiz. Natijada esa, istiqbolda mintaqada investitsiyalar ko'lamini oshirish hamda optimal taqsimlash va tartibga solish imkoniyati ortadi. Tadqiqotlarimiz natijasida Surxondaryo viloyati uchun quyidagi huquqiy omillarni muhim manbalar deb hisoblaymiz:

investitsiya faoliyati, jalb etish tizimi va foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslari;

iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar;

mintaqa hamda uning hududularida sanoat zonalarini tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar;

mintaqa va uning shahar hamda tumanlarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar;

xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan mintaqaviy huquqiy hujjatlarning mavjudligi.

Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solish bo'yicha PESTEL-tahlil asosida aniqlangan omillarning ahamiyatlilik darajasini aniqlaymiz. Olib borgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha, investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq huquqiy-meyoriy hujjatlar, soliq tizimi, imtiyozlari va soliq yuki, investitsiyalarning manbalari bo'yicha tuzilishi, mintaqaning investitsiya salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, tabiiy resurslarning mavjudligi, mehnat resurslarining soni va sifati, texnologiyalar transferi, xorijiy texnologiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati, mintaqa tabiatining o'ziga xosligi, tabiiy resurslardan foydalanish tartibi, iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar, mintaq hamda uning hududularida sanoat zonalarini tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar, mintaq va uning shahar va tumanlarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan mintaqaviy huquqiy hujjatlar kuchli ta'sirga ega omillar hisoblanadi (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval

Surxondaryo viloyatida jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishning PESTEL-tahlili bo'yicha omillarning ta'sirchanlik darajasi¹¹⁸

<i>Mintaqada investitsiyalar jalb etishga ta'sir qiluvchi omillar</i>	<i>Omillarning ahamiyatlilik darajasi</i>
<i>P-omillari (siyosiy)</i>	
investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq meyoriy-huquqiy xujjatlar;	0,2
soliq tizimi, ular bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari;	0,2
mintaqaga investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq chora-tadbirlar;	0,15
investitsiyalarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi;	0,15
Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb qilish dasturi va uning takomillashtirish	0,18
<i>E-omillari (iqtisodiy)</i>	
YaHM, uning o'sish sur'ati;	0,16
YaHMning tarkibiy tuzilishi, soha va tarmoqlarning ulushi;	0,14
YaHMning iste'mol tarkibi;	0,12
mintaqaning investitsiya salohiyati;	0,2
investitsiyalar darajasi va meyori;	0,12
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning manbalari bo'yicha tarkibi;	0,2

¹¹⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

investitsiyalarning texnologik tarkibi;	0,17
investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi;	0,17
ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi;	0,19
tabiiy resurslar va xom ashyo darajasi	0,19
S-omillar (ijtimoiy)	
aholi soni, uning o'sish sur'ati va tarkibi;	0,12
mehnat resurslari soni va tarkibi;	0,2
ish bilan bandlik darajasi va uning sohalar bo'yicha taqsimoti;	0,15
aholi jon boshiga daromad hamda uning shahar va tumanlar bo'yicha disproporsiyasi;	0,15
o'rtacha ish haqi va uning tarmoqlar bo'yicha disproporsiyasi;	0,15
tibbiy muassasalar, xodimlar soni;	0,14
ta'lim tizimi va uning tuzilishi;	0,16
migratsiya holati;	0,13
ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi	0,16
T-omillari (texnologik)	
mintaqa va uning hududlarini innovatsion salohiyati;	0,15
ilmiy tadqiqot va tashkiliy konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda uning mulkchilik bo'yicha tarkibi;	0,16
axborot texnologiyalari tizimi va unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlanganligi;	0,16
texnologiyalar transferi, xorijiy texnologiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati;	0,19
innovatsion infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik holati	0,16
E-omillar (ekologik)	
ekologik vaziyat va barqarorlik;	0,17
korxona va tashkilotlar faoliyatining ekologiya hamda atrof-muhitga ta'siri;	0,16
mintaqa tabiatining o'ziga xosligi, tabiiy resurslardan foydalanish tartibi;	0,2
yerlarning sho'rlanish darajasi va meliorativ holati;	0,18
mintaqa va uning hududlarida sug'orish hamda irrigatsiya tizimi	0,16
L-omillar (huquqiy)	
investitsiya faoliyati, jalb etish tizimi va foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslari;	0,18
iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar;	0,2
mintaqa hamda uning hududlarida sanoat zonalarini tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar;	0,2
mintaqa va uning shahar va tumanlarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar;	0,2
xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan mintaqaviy huquqiy hujjatlarning mavjudligi	0,2

PESTEL-tahlil asosida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida investitsiyalarni jalb etish va optimal tartibga solishga omillar ta'sirchanlik quyidagicha bo'ldi:

P-siyosiy omillar - 0,88;

E-iqtisodiy omillar - 1,66;

S-ijtimoiy omillar - 1,36;
 T-texnologik omillar – 0,82;
 E-ekologik omillar – 0,87;
 L-huquqiy omillar -0,98.

Mazkur tahlil natijalarini ifodalashicha, Surxondaryo viloyati va uning hududlarida investitsiyalar ko‘lamiga hamda ularning istiqbolda samarali qo‘llash va tartibga solishga iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy omillar guruhi kuchli ta’sir qilmoqda. Shu bois, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarimizni chuqurlashtirish uchun SWOT-tahlil usulini qo‘llaymiz (3.3.3-jadval).

3.3.3-jadval

Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etish va optimal tartibga solish hamda samaradorligini oshirish imkoniyatlarining SWOT-tahlili¹¹⁹

<i>S (kuchli tomonlari)</i>	<i>W (kuchsiz tomonlari)</i>
Mintaqadan qo‘shni Afg‘oniston Respublikasiga o‘tuvchi xalqaro transport yo‘lining mavjudligi	Sanoat, qurilish kabi tarmoqlarning YaHMdagi ulushining pastligi
Mintaqadagi iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlik	Infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mahalliy budjet mablag‘larining kamligi
Tarixiy turizm obyektlarining mavjudligi	Innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda unga sarflanayotgan mablag‘larning kamligi
Mahalliy tadbirkorlik faoliyati va ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklari imtiyozli kreditlarining ajratilayotganligi	Ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarining shahar va tumanlar markazida joylashganligi, chekka hududlarda yetarlicha ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjud emasligi
Mintaqada ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq davlat hamda mahalliy budjet mablag‘larining sarflanayotganligi	Mintaqada yaratilgan YaHMning asosini qishloq xo‘jaligiga tegishliligi
Qo‘shni Qashqadaryo viloyatidagi boy tabiiy resurslarni qayta ishlash bo‘yicha qo‘shma loyihalar ishlab chiqish imkoniyatining yuqoriligi	Mintaqaning respublika markazidan uzoqligi
	Sanoat korxonalaridagi mavjud ishlab chiqarish vositalarining asosiy qismini jismoniy va ma’naviy eskirganligi
<i>O (imkoniyatlar)</i>	<i>T (xavf-xatarlar)</i>
Tibbiy, tarixiy va ekologik turizm salohiyatining yuqoriligi	Qo‘shni Afg‘oniston Respublikasidagi nobarqaror siyosiy vaziyat
Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq qonunchilik bazasini takomillashtirilayotganligi	Mintaqada mahalliyashtirish dasturlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi

¹¹⁹ Муаллиф ҳисоб-китоблари асосида ишлаб чиқилган.

Xalqaro darajadagi transport va temir yo‘l qurish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqilganligi va joriy etilayotganligi	Mintaqaning investitsiya dasturini ishlab chiqishda yetarlicha malaka talablari qo‘yilmaganligi
Mintaqada kichik sanoat hududi va erkin iqtisodiy zonalarini kengaytirish imkoniyatining mavjudligi	Mintaqaning investitsiya dasturida mahalliy investorlarga ustuvorlik berilganligi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarining yetarlicha baholanmayotganligi
Mintaqaning boy tabiiy resurslari va ularni qayta ishlash sanoatining rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilganligi	Mintaqa shahar va tumanlarining rivojlanish darajalaridagi keskin farqlanishning mavjudligi

Surxondaryo viloyati va uning hududlarida investitsiyalarni jalb etish hamda optimal tartibga solish, taqsimlash hamda samaradorligini oshirish borasida olib borilgan ekonometrik tadqiqotlarimiz, PESTEL va SWOT-tahlil usullari natijalari asosida mintaqaga kiritilgan kapital hajmining prognoz parametrlarini ishlab chiqamiz. Prognoz parametrlarini ishlab chiqishda ekonometrik usullar bilan birga ekstrapolyatsiya hamda ekspert usullaridan ham keng foydalandik.

Jumladan, Surxondaryo viloyatida 2023-2028 yillar davomida yaratiladigan YaHM hajmi, kiritilgan investitsiyalar ko‘lami hamda ularning faollik darajasi avvalgi paragraflarda olingan xulosalarga muvofiq ishlab chiqildi (3.3.4-jadval).

3.3.4-jadval

Surxondaryo viloyatida yaratilgan YaHM va investitsiyalarning prognoz ko‘rsatkichlari¹²⁰

<i>Ko‘rsatkichlar nomi</i>	<i>2023</i>	<i>2024</i>	<i>2025</i>	<i>2026</i>	<i>2027</i>	<i>2028</i>
<i>YaHM hajmi, mlrd.so‘m</i>	38561,1	42838,9	46916,8	50394,7	54272,6	59050,5
<i>Investitsiya hajmi, mlrd.so‘m</i>	12143,5	13563,1	14982,6	16189,2	17521,7	19241,3
<i>Investitsiya meyori, foizda</i>	31,5	31,7	31,9	32,1	32,3	32,6

Ishlab chiqilgan prognoz parametrlarni ifodalashicha, 2023-2028 yillar davomida mintaqada yaratilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 38561,1 mlrd.so‘mdan 59050,5 mlrd.so‘mgacha ortadi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mazkur davr davomida o‘sib borib, 12143,5

¹²⁰ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

mlrd.soʻmdan 19241,3 mlrd.soʻmgacha yetadi. Ushbu davr davomida investitsiyaning faollik darajasini ifodalovchi koʻrsatkichlardan ham ijobiy oʻzgarishlar kuzatilishi hisob-kitoblar orqali asoslangan. Jumladan, olib borgan tadqiqotlarimiz va prognoz koʻrsatkichlarimizni ifodalashicha, investitsiya meyori 2023 yildagi 31,5 foizdan ortib borib, 2028 yilda 32,6 foizga yetadi.

Uchinchi bob boʻyicha xulosalar

1. Mintaqaga investitsiyalar jalb etishni optimal tartibga solishda kapitaldan foydalanishga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim. Bunda, mintaqada kapital omilidan foydalanishning miqdor va samara koʻrsatkichlarini baholash muhim sanaladi. Shu bois, Surxondaryo viloyati va uning hududlarining oʻziga xos xususiyatlarini hamda investitsiyalarni jalb etish koʻlami va tarkibini hisobga olib baholash usullarini takomillashtirish talab etiladi. Ushbu jarayonda, hududlarning oʻziga xos xususiyati va ustunligini ochib berish uchun mintaqaviy tadqiqotlarda nisbiy koʻrsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu asosda, mintaqada investitsiyalardan foydalanishning nisbiy kapitalintensivlik, nisbiy kapital qaytimi koʻrsatkichlarini baholash usullarini taklif qildik. Mazkur usullar asosida mintaqada koʻrsatkichlarini baholash natijasida, hududlarda ichki investitsiyalarga, toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar koʻlamini oshirishga eʼtibor qaratish lozim.

2. Surxondaryo viloyatida investitsiyalar jalb etishni optimal tartibga solishning soha va tarmoqlari kesimida manbalari taʼsirchanligini ekonometrik modellarini ishlab chiqdik. Olingan natijalar asosida mintaqada iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishda samarali taqsimlash boʻyicha maqbul koʻrsatkichlarga ega boʻldik. Jumladan, mintaqada iqtisodiyotida jalb etilgan investitsiyalarning manbalari boʻyicha optimal darajalari sifatida korxona mablagʻlari ulushi 46 foiz, davlat budjeti mablagʻlari 7 foiz, aholi va tijorat banklari mablagʻlari 18 foiz va xorijiy mablagʻlarning ulushi 29 foiz boʻlishi zarur.

3. Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etishga taʼsir qiluvchi omillarni PESTEL va SWOT-tahlil usullari orqali baholadik. Olingan natijalarni ifodalashicha, investitsiyalarni jalb etish bilan bogʻliq huquqiy-meyoriy hujjatlar,

soliq tizimi, investitsiya salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, tabiiy resurslar va xom ashyo, ishchi kuchi sifati, xorijiy investitsiyalar va texnologiyalar, mintaqadagi iqtisodiy va sanoat zonalarining mavjudligi kabilar kuchli omillar hisoblanar ekan. Shu asosda, mintaqada yaratilgan yalpi hududiy mahsulot, investitsiya hajmining prognoz parametrlari ishlab chiqildi. Natijada, Surxondaryo viloyatida 2023-2028 yillarda YaHM hajmi 1,5 marta, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 1,6 marta o'sishi asoslab berilgan.

XULOSA

1. Mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishni tadqiq etish ichki va tashqi muhit omillari bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu bois, mazkur jarayonni o‘rganish metodologiyasi zahirida eksternal va internal omillar asosida investitsiyalarning bozor sharoitidagi oqimi hamda ta’sirini modellashtirish lozim. Bunda, har bir mintaqaning ichki moliyaviy manbalarini jalb etish hamda tashqi, Ya’ni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni optimal tartibga solishda raqobatbardosh xususiyatlariga ustuvorlik qaratiladi. Bu esa, ekonometrik modellashtirish qatori PESTEL va SWOT-tahlil usullarini qo‘llashni talab etadi. Natijada, ustun taraflarini ochib berish va rivojlantirishga hamda zaif tomonlarini aniqlash va bartaraf etishga imkoniyat yaratadi. Demak, mintaqada investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solish murakkab tizim bo‘lib, u o‘z ichiga iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hamda ekonometrik, iqtisodiy-statistik tahlillarni qamrab olgan keng qamrovli tushuncha hisoblanadi.

2. Mintaqaga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishda xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadli hisoblanadi. Bunda, Surxondaryo viloyati uchun samarali yo‘llar sifatida quyidagilarni qo‘llash lozim: kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liqlikda hududiy rivojlanish strategiyasini investitsiya dasturiga muvofiq lashtirish (AQSH, Germaniya, Avstriya amaliyoti); davlat tomonidan hududlar o‘z xohishi asosida sarflash mumkin bo‘lgan subsidiyalarni yo‘lga qo‘yish (Kanada amaliyoti); davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish (AQSH, Fransiya tajribasi); mintaq subyektlari o‘rtasida hududlararo investitsiyalarni amalga oshirish (Xitoy tajribasi); sarmoyalarni mahalliy lashtiradigan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish.

3. Surxondaryo viloyatida yaratilgan YaHM tarkibiy tuzilishini baholash asosida olingan natijalarga ko‘ra, mintaq iqtisodiy rivojlanishi agrar iqtisodiyot turini aks ettirmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi ulushi xizmatlardan 1,3 marta, sanoatga nisbatan 7,6 marta, qurilishga nisbatan 7,9 marta yuqori. Bu esa, mintaqaning mavjud ishlab chiqarish-xomashyo salohiyatini hisobga

olgan holda, sanoatning qazib olish va qayta ishlash, oziq-ovqat hamda to'qimachilik sohalarini rivojlantirish zarur. Buning uchun investitsiyalarni soha va tarmoqlar kesimida salohiyatdan kelib chiqib jalb qilish hamda taqsimlashni optimal tartibga solish zarur.

4. Surxondaryo viloyatida yaratilgan YaHM tarkibi iqtisodiy-statistik baholanganda, 2010-2022 yillarda o'rtacha qishloq xo'jaligi 49,4 foiz, sanoat 6,6 foiz, qurilish 6,3 foiz, xizmatlar sohasi 37,2 foiz ulushlarga ega bo'lgan. Ular asosida tarmoqlar o'sish sur'atining mintaqa iqtisodiy o'sish darajasiga ta'siri ekonometrik tadqiq etilganda qishloq xo'jaligi (0,504) va xizmatlar (0,351) yuqori, sanoat (0,103) va qurilish (0,062) nisbatan kuchsiz ta'sirga ega ekanligi aniqlandi.

5. Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida investitsiyalar taqsimlanishi baholaganda notekis taqsimot aniqlandi. Mintaqada investitsiyalarni tarmoq va hududlar kesimida jalb etishni optimal tartibga solish uchun qishloq xo'jaligi tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish; agrologistika va infratuzilmani davlat-xususiy sherikchilik asosida rivojlantirish; hududlar kesimida investitsiya jalb qilishda tabiiy resurslarga boy tumanlar qatori boshqa tumanlarga ham hududlararo loyihalar uchun investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim.

6. Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalarning 2010-2022 yillardagi o'rtacha o'sish sur'ati 113,6 foiz, shuningdek, mintaqaning shahar va tumanlarida ham o'rtacha ijobiy o'sish kuzatilgan. Yuqori o'rtacha o'sish Bandixon va Boysun (161,7 foiz) tumanlarida, nisbatan past o'rtacha o'sish sur'atlari Oltinsoy (106,8 foiz), Qumqo'rg'on (107,8 foiz), Uzun (108,6 foiz), Qiziriq (109,4 foiz) tumanlarida aniqlangan. Past ko'rsatkichlar to'g'ri kelgan hududlar holati omilli baholanganda ikki jihat aniqlandi. Jumladan, ushbu tumanlar asosan qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan, ikkinchi tomondan esa, infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa, mazkur hududlarda davlat-xususiy sherikchilik orqali infratuzilmani, jumladan, agrologistika tizimini rivojlantirishni talab qiladi.

7. Surxondaryo viloyati tarmoqlarining ekonometrik va iqtisodiy-statistik usullar asosida rivojlanish darajasi hamda investitsion faolligi guruhlanganda sanoat

bo'yicha 33,33, xizmatlar bo'yicha 86,67, qurilish bo'yicha 73,33 foiz hududlar qoniqarsiz tasnif oraliq'idaligi aniqlandi. Mazkur holat omilli baholanganda, tarmoqlar rivojlanishi investitsiya meyoriga, tuman va shaharlar iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati investitsiyalarning hududiy taqsimotiga mutanosibliigi asoslandi. Shunga ko'ra mintaqaga kapital jalb etishni optimal tartibga solishda investitsiya dasturida soha va tarmoqlar investitsiya meyorini oshirish zarur.

8. Mintaqa investitsion salohiyatining hududlar bo'yicha rivojlanish darajasi besh oraliq bo'yicha statistik va ekonometrik usullar orqali guruhlandi (a'lo, yaxshi, o'rta, qoniqarli, qoniqarsiz). Natijada, hududlarning investitsiyadagi ulushi bo'yicha 40,0 foizi qoniqarsiz oraliqqa tegishli bo'lgan (Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Uzun va Sho'rchi tumanlari). Shuningdek, investitsiya meyori bo'yicha 80 foiz hududlar qoniqarsiz guruhdan joy olgan (Termiz sh., Oltinsoy, Angor, Bandixon, Muzrabod, Denov, Jarqo'rg'on, Qo'mqorg'on, Qiziriq, Uzun, Sherobod, Sho'rchi tumanlari). Mazkukr masalalarni ijobiy hal qilish uchun davlat investitsiyalarini infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish, erkin iqtisodiy zonalarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hududlarda tadbirkorlik salohiyatini oshirish orqali aholi va tijorat banklari mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilish lozim.

9. Mintaqada ishlab chiqarish omillari samaradorligi ishchi kuchi va kapitalga bog'liqligi tadqiq etilganda, investitsiyalarga yuqori muvofiqlik aniqlandi. Bu esa, mintaqa va uning hududlarida investitsion faollikni oshirishni talab etadi. Buning uchun, mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib sanoat zonalarini kengaytirish, tijorat banklari filiallari sonini ko'paytirish, logistika tizimini rivojlantirish, hududlararo loyihalarni qo'llash zarur.

10. Surxondaryo viloyatida investitsiyalar jalb etishni optimal tartibga solish uchun soha va tarmoqlari kesimida manbalari ta'sirchanligining ekonometrik modellari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqa iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solish bo'yicha maqbul ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Jumladan, mintaqa iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarning manbalari bo'yicha korxona mablag'lari ulushi 46 foiz, davlat budjeti mablag'lari 7

foiz, aholi va tijorat banklari mablagʻlari 18 foiz va xorijiy mablagʻlarning ulushi 29 foiz optimal darajalarda boʻlishi zarur.

11. 2010-2022 yillardagi statistik maʼlumotlar asosida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga koʻra jami investitsiyadagi korxona oʻz mablagʻlari ulushining 1 foizga oʻsishi sanoatning YaHMDagi ulushini 0,12 foizga, xorijiy investitsiyalar ulushining 1 foizga oʻsishi esa 0,11 foizga ortishiga olib kelmoqda. Shuningdek, davlat mablagʻlari ulushining 1 foizga oʻsishi qurilishning 0,29 foizga, aholi va tijorat banklari mablagʻlarining hamda xorijiy investitsiyalarning 1 foizga oʻsishi qurilishning YaHMDagi ulushini mos ravishda 0,36 va 0,38 foizlarga oʻsishini taʼminlamoqda. Shu bilan birga, korxona, davlat budjeti, aholi va tijorat banklari hamda xorijiy mablagʻlarning 1 foizga oʻsishi mos ravishda ish haqqining real darajasini 1,35, 0,71, 1,08, 1,51 foizlarga oshirmoqda.

12. Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solish boʻyicha PESTEL-tahlil asosida aniqlangan omillarning ahamiyatlilik darajasi aniqlandi. Olingan natijalarni ifodalashicha, investitsiyalarni jalb etish bilan bogʻliq huquqiy-meyoriy hujjatlar, soliq tizimi, investitsiya salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, tabiiy resurslar va xom ashyo, ishchi kuchi sifati, xorijiy investitsiyalar va texnologiyalar, mintaqadagi iqtisodiy va sanoat zonalarining mavjudligi kuchli omillar hisoblanar ekan. Jumladan, PESTEL-tahlil asosida olib borilgan tadqiqot natijalari boʻyicha P-siyosiy omillar - 0,88, E-iqtisodiy omillar - 1,66, S-ijtimoiy omillar - 1,36, T-texnologik omillar – 0,82, E-ekologik omillar – 0,87, L-huquqiy omillar – 0,98 koeffitsiyentlar boʻyicha taʼsirchanlikka ega boʻlgan.

13. Surxondaryo viloyatining 2023-2028 yillar boʻyicha ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini ifodalashicha, yalpi hududiy mahsulot hajmi 38561,1 mlrd.soʻmdan 59050,5 mlrd.soʻmga, investitsiyalar hajmi 12143,5 mlrd.soʻmdan 19241,3 mlrd.soʻmga, investitsiya meyor 31,5 foizdan ortib borib, 32,6 foizga yetadi. Yaʼni, prognoz davrida YaHM hajmi 1,5 marta, investitsiyalar 1,6 marta, investitsiya meyor 1,03 marta oʻsishi asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**
- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son farmoni.
 - 1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi «2020 — 2022-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4565-son qarori.
 - 1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi «Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida» PQ-4702-son qarori.
 - 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi «Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6042-son farmoni.
 - 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-4864-son qarori.
 - 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6244-son farmoni.
 - 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni.
 - 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini

boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-72-son qarori.

- 1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son farmoni.
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 22-dekabr.
- 1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2018-yil 17-dekabr.
- 1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020-yil 25-yanvar.
- 1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020-yil 30-dekabr.
- 1.14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 10-maydagi «2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi VMQ-245-son qarori.
- 1.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 27-maydagi «Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi VMQ-332-son qarori.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

- 2.1. Абдуллаев И.С. Совершенствование механизмов оптимального регулирования региональной экономической системы. Автореферат диссертации. Ташкент: 2017.
- 2.2. Александров Г.А., Вякина И.В., Скворцова Г.Г. Инвестиционный климат и инвестиционные риски: методология анализа взаимосвязи и оценки // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014, №22(259). С.12-22.

- 2.3. Александров Г.А., Скворцова Г.Г., Вякина И.В. Повышение качества методов оценки инвестиционного климата региона // Российское предпринимательство. – 2017. – Том 18. – № 22. – С. 3473-3482. doi: 10.18334/rp.18.22.38495.
- 2.4. Алиев А. Т., Космачёва Н. М. Методологические основы оценки инвестиционной привлекательности в системе управления экономикой региона // Проблемы экономики и юридической практики. 2018, №5. С. 17-21.
- 2.5. Алиев А.Т., Космачёва Н.М. Методологические основы оценки инвестиционной привлекательности в системе управления экономикой региона // Проблемы экономики и юридической практики. 2018, №5. С.17-21.
- 2.6. Арсланов Б.Д., Арсланов Ш.Д. Особенности управления корпоративными отношениями в российских компаниях // Вестник ДГТУ. Технические науки. 2011. №2.
- 2.7. Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.
- 2.8. Берекчиян А.Л. Инвестиционная привлекательность Ростовской области: динамика, опыт, пути совершенствования // Economics. 2018. С. 103-107. <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnaya-privlekatelnost-rostovskoy-oblasti-dinamika-opyt-puti-sovershenstvovaniya>.
- 2.9. Бифов А.А. Канадский федерализм: генезис и правовые особенности // Право и управление. XXI век. 2012. № 1(22). С. 126–132.
- 2.10. Валиев Б.Б. Ўзбекистонда худудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSC) диссертацияси автореферати. – Т.: Ўз.Р.Банк молия академияси. 2021 й.

- 2.11. Валинурова Л.С., Казакова О.Б. Оценка инвестиционной привлекательности регионов Приволжского федерального округа: факторы и условия привлечения инвестиций // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. 2013. № 4. С. 81—95.
- 2.12. Вдовин С.М. Инвестиционная привлекательность как фактор устойчивого развития региона // Экономический анализ: теория и практика. 2014. Т. 13. Вып. 41. С. 20—27. URL: [Link](#).
- 2.13. Вилков И.Н. К вопросу о рейтингах инвестиционной привлекательности регионов // Вестник Пермского университета. Сер. «Экономика» = Perm University Herald. Economy. 2016. № 1(28). С. 90—97.
- 2.14. Вилинская В.Ю., Кострюкова Л.А. Об инвестиционном климате в России // Устойчивое развитие России: финансово-экономические аспекты: сб. науч. тр. Челябинск: ЮУрГУ, 2015. С. 16—18.
- 2.15. Вологдин Е.В. Оценка инвестиционной привлекательности региона: теория и практика (на примере Алтайского края): монография. Барнаул: АлтГУ, 2017.
- 2.16. Гимадиева Л.Ш. Динамика и перспективы использования прямых иностранных инвестиций в экономике региона (на примере Республики Татарстан) // Научный журнал КубГАУ, №115(01), 2016 года.
- 2.17. Григорьева К.Д., Захаркина М.В., Полянская Н.В. Иностранные инвестиции как важнейший фактор при оценке инвестиционного климата в Самарской области // Региональное развитие: электронный научнопрактический журнал. 2016. № 6(18).
- 2.18. Гэлбрейт Дж. Новое индустриальное общество. М.: ТРАНЗИТКНИГА, 2004.
- 2.19. Дадахонова С.М. Хорижий мамлакатларда инвестиция фаолиятини тартибга солиш йўллари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a9.

- 2.20. Долан Э.ДЖ., Линдсей Д. Микроэкономика/Пер. С англ. В. Лукашевича и др., Под общ.ред. Б. Лисовкина и В. Лукашевича. – СПб., 1994. стр. 13.
- 2.21. Дуплякин В.М. Особенности идентификации нормального закона распределения // Вестник Самарского университета. 2020, 11(3). С. 176-183. DOI: 10.18287/2542-0461-2020-11-3-176-183; <https://klikunov-nd.livejournal.com/485677.html>.
- 2.22. Елкина О.С. Инвестиционный климат как условие развития региона // Сибирский торговоэкономический журнал. 2016. № 4. С. 33—35.
- 2.23. Ерохина Е.В. Инвестиционный имидж и инвестиционная привлекательность региона — возможности развития // Наука и современность. 2016. № 4. С. 20—33.
- 2.24. Зюбан Е.В. Сравнительный анализ развития политики инвестиционной привлекательности на региональном уровне в России и за рубежом // Ученые записки российской академии предпринимательства. 2014. № 38. С. 62–71.
- 2.25. Ирхин Ю.В. Канадский опыт государственной региональной политики: сравнительный анализ // Социально-гуманитарные знания. 2008. № 6. С. 225–240.
- 2.26. Кобозев О.В. Экспертный и статистический методы оценки инвестиционной привлекательности региона // Российское предпринимательство. 2011. Т. 12. № 2. С. 151—155.
- 2.27. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. С основами аграрных рынков. Курс лекций. –М.: Ассоциация авторов и издателей. ТАНДЕМ: Изд. ЭКМОС, 1998. - 448 с
- 2.28. Кокушкина И.В. Региональные аспекты формирования инвестиционного климата и инвестиционной политики Китая // Проблемы современной экономики. 2014. № 2 (50). С. 305–308.
- 2.29. Костин И.В. Привлечение инвестиций в основной капитал: региональная практика // Финансовый журнал, 2011, с. 161-170.

- 2.30. Кочемасова А.В. Мировой опыт привлечения прямых иностранных инвестиций в условиях глобализации экономики // Финансы и кредит. 2013, 18 (546). С.66-77.
- 2.31. Крамин Т.В., Леонов В.А. Развитие методики управления инвестиционной привлекательностью российских регионов // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. 2012. № 1. С. 40—47.
- 2.32. Кузнецов А.В. Особенности инвестиционной стратегии Японии и перспективы сотрудничества с Россией // Финансы: теория и практика. 2017. Т. 21. № 6. С. 108–117.
- 2.33. Лачин Ю.В. Инвестиционная активность региональных органов власти как одно из направлений повышения экономического потенциала региона // Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2015 № 1 (49). С.84-87.
- 2.34. Лашко С.И., Сапрыкина В.Ю. Инвестиционная привлекательность региона (на примере Краснодарского края) // Научный вестник Южного института менеджмента. 2018. №2. С. 68-73. <https://doi.org/10.31775/2305-3100-2018-2-68-73>.
- 2.35. Литвиненко В.А. Направления и механизмы государственной инвестиционной политики стабилизации и экономического роста // Аудит и финансовый анализ. 2009. № 2. С. 1–10.
- 2.36. Михалёв И.В., Левченко Т.П. Методические аспекты оценки инвестиционной привлекательности // Интернетжурнал «Науковедение» Том 8, №3 (2016).
- 2.37. Морозова Т. Г., Александрова А. В. Механизмы реализации инвестиционно-инновационной стратегии в стабильно развивающихся регионах РФ // Региональная экономика. — 2010. — № 18 (153).
- 2.38. Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. Монография. – Ташкент: IFMR, 2014. – 212 с.

- 2.39. Невьянцева Л.С. Вестник РУДН. Серия: Государственное и муниципальное управление. 2022. Т. 9. № 1. С. 97-98.
- 2.40. Николаев И.А., Марченко Т.Е., Точилкина О.С. Инвестиции как источник экономического роста. Москва, 2019. 27 с.// https://www.fbk.ru/upload/docs/Investments_report.pdf.
- 2.41. Никонова М.А. Проблемы несоответствия инвестиционной привлекательности и инновационной активности регионов России // Региональная экономика: теория и практика. 2016, №8. С.130–148.
- 2.42. Оганян М.А. Управление инвестиционным климатом на основе определения неоднородности регионов // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки. 2009. № 4. С. 173—177. URL: [Link](#).
- 2.43. Особенности привлечения инвестиций органами местного самоуправления в Украине на примере города Мариуполя // Теоретичні і практичні аспекти економіки та інтелектуальної власності 2015 Випуск 2(12), Том 1. С.153-161.
- 2.44. Отажонов У.А. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг инвестиция муҳитини баҳолаш //“UzBridge” электрон журнали. 2020, №1. 46 – 58 б.
- 2.45. Перцухов В.И. Инвестиционный климат территориальных образований: основные положения исследования социально-экономических и инвестиционных процессов на территориальном уровне управления // Интеллект. Инновации. Инвестиции. 2010. № 4. С. 61—65. URL: [Link](#).
- 2.46. Подшиваленко Г.П. Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2010. № 15. С. 7—10. URL: [Link](#).
- 2.47. Ражабов Н.Р. Ҳудуд инвестицион салоҳиятидан самарали фойдаланиш //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil.
- 2.48. Сурхондарё вилояти Статистика бошқармаси маълумотлари.

- 2.49. Траченко М.Б., Джигоев В.А. Оценка инвестиционной привлекательности регионов: какая методика отвечает интересам инвестора? // Государственное управление. Электронный вестник. Выпуск № 76. Октябрь 2019. С. 92-108. DOI: 10.24411/2070-1381-2019-10005.
- 2.50. Траченко М.Б., Джигоев В.А. Экспресс-анализ инвестиционной привлекательности регионов // Финансы и кредит. — 2018. — Т. 24, № 9. — С. 2151 — 2165. <https://doi.org/10.24891/fc.24.9.2151>.
- 2.51. Хурсандов К.М. Саноатнинг машинасозлик тармоғида инвестициялардан самарали фойдаланиш йўналишлари. Иқт. фан. фалсафа. док. авт. 2022. 61 б.
- 2.52. Шарп У., Александр Б., Бэйл Дж. Инвестиции. М.: ИНФРА-М, 1997, стр.-8.
- 2.53. Япония: консервативный поворот / Рук. проекта Э. Молодякова. М.: АИРО-XXI, 2015; Ахмедова Л.А. Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3. Общественные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2. С.34-45. DOI: 10.21779/2500-1930-2016-31-2-34-45.
- 2.54. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
- 2.55. Belikova K.M. Investicionnaja politika i strategii privlechenija investicij v Juzhnoj Koree: retrospektiva i sovremennoe sostojanie [Investment Policy and Investment Attraction Strategies in South Korea: A Retrospective and the Current State]. Problems of Economics and Legal Practice. 2018;2:131–136 (In Russ.)
- 2.56. Minghua Zhan, Shuai Li, Zhouheng Wu. Can digital finance development improve balanced regional investment allocations in developing countries? — The evidence from China. Emerging Markets Review, Volume 56, 2023, 101035.

- 2.57. Platonova I.N. Xitoy iqtisodiyotida xorijiy kapitalning roli / IN Platonova // Iqtisodiyot ufqlari. - 2018. No 6. - B.88-94.
- 2.58. Shafigullin L.N., Golyashev V.A., Yurkov D.V. Opyt investicionnoj politiki Kitaja i vozmozhnost' ego primeneniya v Rossii [The Experience of China's Investment Policy and the Possibility of its Application in Russia]. Issues of Economics and Law. 2014; 12:48–56 (In Russ.).

III. Internet manbalari

- 3.1. OECD (2020), Инвестиционные перспективы в странах Восточного партнерства. www.oecd.org/investment/Investment-perspectives-in-Eastern-Partner-countries.pdf.
- 3.2. <http://www.stat.uz>
- 3.3. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
- 3.4. <http:// www.mf.uz>.
- 3.5. <http:// www.minecon.uz>.
- 3.6. <http:// www.gkk.uz>.
- 3.7. <http:// www.xs.uz>.
- 3.8. <http:// www.gov.uz>.
- 3.9. <http:// www.eurostat.com>.
- 3.10. <http:// www.worldbank.org>.
- 3.11. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2023_Key_Messages_and_Executive_Summary_ru.pdf.

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I BOB.	MINTAQADA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	8
1.1.	Mintaqaviy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy asoslari	8
1.2.	Mintaqalarda investitsiyalar jalb etish mexanizmining xorij tajribasi	20
1.3.	Mintaqalarda investitsiyalarni jalb etishning optimal tartibga solishning metodologik asoslari	32
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	
II BOB.	SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	45
2.1.	Mintaqa iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jalb etilgan investitsiyalarning iqtisodiy-statistik tahlili	45
2.2.	Mintaqada jalb etilgan investitsiyalar manbalarini klaster usulida guruhlash va tartibga solish tahlili	61
2.3.	Mintaqada jalb etilgan investitsiyalarni tarmoqlarga ta'sirini ekonometrik va statistik tahlili	74
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	89
III BOB.	MINTAQAGA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	91
3.1.	Mintaqaga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish yo'llari	91
3.2.	Mintaqada jalb etilgan investitsiyalarni optimal tartibga solishning ekonometrik modellarini takomillashtirish	102
3.3.	Mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish istiqbollari	110
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	119
	Xulosa	121
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	125